

**O'ZBKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

Xaydarov M.T, AbdullaevaM.

MAKROIQTISODIY TAHLIL

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus,
kasb-xunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar
faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan
“Makroiqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2007

Xaydarov M.T, Abdullaeva M.. «Макроiqtisodiy tahlil» - (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2007 – 149 bet.

o'quv qo'llanmada makroiqtisodiy tahlilda foydalaniladigan asosiy iqtisodiy tushunchalar va kategoriyalarni mohiyati, ular orasidan o'zaro bog'liqliklar yaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy xolatlarni tahlil qilish usullari va hisoblash ko'rib chiqilgan.

O'kuv qo'llanma iqtisodiy fanni yutuqlarida va jaxon amaliyotida asoslangan va undan tashqari xalqaro moliya institutlarini talabiga asoslangan. O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishlarning bakalavrlari, magistrleri, professor-o'qituvchilari va iqtisodiy integraciya sharoitida makroiqtisodiy tahlil bilan qiziqadiganlar uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir: i.f.n., doc. Xayitov A.B.

Taqrizchilar: i.f.n., professor Ishmuhamedov A.E';
i.f.n., professor Xakimov N.X.

**Хайдаров М.Т., Абдуллаева М.К. «Макроэкономические анализ» -
(Учебное пособие) – Т.: ТЭУ, 2007г. с.**

В учебном пособии рассматриваются важнейшие вопросы макроэкономической анализа, экономические категории отношение между ними, а также социально-экономический характер анализа. Дается характеристика перехода на систему национальных счетов (СНС) как основу перестройки макроэкономической статистики в условиях рыночной экономики. Экономические отношение между институциональными секторами, государственные финансы, их взаимоотношение, атак же тенденции развитие рассматривается как неотъемлемая часть макроэкономической анализа.

Учебное пособие предусмотрена для бакалавров, магистров, профессорам-преподавателям, а также интересующих макроэкономическим анализе.

Ответственный редактор доц.А.Б.Хайитов

Рецензенты: д.э.н.,проф. Ишмухамедов А.Э.
д.э.н.,проф.Хакимов Н.Х.

Xaydarov M.T. Abdullaeva M. « A subject of the theory of economic and social forecasting » - – T.: TDIU, 2007 yil– 180 bet.

This manual is about main categories and economic terms of macroeconomic analysis, their relations, social- economic relations and ways of calculation.

The manual is based on the achievements of economic science, world practice and international financial institutions. In connection with transition market relation it is impotant to study institutional sector of NAS and government management sector.

This manual is designed for the bachelor and master's students of Higher Educational Establishments as well as for professor-lecturers and for those interested in analysis of macro-economy.

Editor in chief: dos. Khaitov A.B.
Reviewers: p.h.d., prof. Ishmuhamedov A.E
p.h.d., Khakimov N.K.

KIRISH

Halqaro iqtisodiyotiga integraciyalashish XVF, Jaxon Banki, Osiyo Rivojlanish Banki kabi xalqaro moliya tashkilotlar faoliyatiga qatnashish bir qancha qoidalarga rioya qilishni talab e'tadi. Bulardan biri bo'lib mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilganda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini bir xil usul va uslublarda xisoblash kiradi. Mamlakatni iqtisodiy xolatini, o'tkazilayotgan joriy chora tadbirlarini zarurligini, samarasini baxalashdaiqtisodiy tahliljuda katta axamiyatga e'ga. Tahlilni muxim vazifalridan biri bo'lib mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlarni modellashtirishni sifatini oshirish, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatni natijalarini aniqlash. Makroiqtisodiy tahlil asosiy ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri bo'lib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zaro boglikliklarini aniqlab berishga yordam beradi.

Ushbu muammoli ma'ruzalar matnlarini vazifasi bo'lib, milliy iqtisodiyotni ko'rsatkichlarini baxolash va monitoring o'tkazishda foydalanadigan usullarni to'plamini o'rgatish. o'quv qo'llanmada mamlakatda ishlab chiqarishdagi tovar va xizmatlarni jami xajmini xisoblash, inflyaciya suratlarni, ishsizlik darajasini, to'lov balansini saldosi va valyuta almashtiruv kursini tahlil qilish usul va uslublarini ko'rib chiqilgan.

Makroiqtisodiy tahlil ko'rsatilgan iqtisodiy agregatlarni o'zgarishlarini tushuntirib, iqtisodiyotda kutilmagan o'zgarishlarni oldini olish va chora tadbirlarni ko'rish uchun mamlakat mamuriyatiga belgilani ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan. Mamlakatda sodir bo'ladigan xollarni aniq tahlili va undan keyingi zarur bo'ladigan siyosatni ishlab chiqish, aniq iqtisodiy va statistik ma'lumotlari sistematik ravishda to'planishni talab e'tadi.

Muammoli ma'ruzalar matnlarini maqsadi hisobot asoslarini o'rgatish va mamlakat iqtisodiyotida daromad va boyliklarni taqsimotiga, ishlab chiqaruvchilarni va iste'molchilarni faoliyatiga ta'sir e'tuvchi, byudjet soliq, pul-kredit siyosatlarni, to'lov balansini va tashqi qarzni tahlil qilinayotganda asosiy koncepciyaalar, soliq soxasini, davlat xarajatlarini va kapital qarz siyosati bilan tanishtradi.

I BOB. “MAKROIQTISODIY TAHLIL”GA KIRISH

1.1. Dialektika va iqtisodiy tahlil

Iqtisodiy tahlil asoslanadigan dialektikaning asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin: hamma narsa xarakterda; aniq aloqalarda, o'zaro bog'liqlikda va bir-birini taqozo qilishda, koordinacion va sub koordinacion aniqlikda; zarurat va tasodifning namoyon bo'lishida; qarama-qarshiliklarning birligi va o'zaro kurashida; miqdorni sifatga va sifatni yangi miqdorga o'tkazishda, inkorlarni inkordi anglashda.

Harakat– bu, tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, fan madaniyat va insonni rivojlanishining so'zsiz shartidir. Tahlilning xususiyati, zarurati va qiyinligi statistikada e'las, balki dinamika o'rganilayotganida. Tahlilchi bu erda fotografga e'las, balki bir kadrda ikkinchisiga, bir hayotiy vaziyatdan boshqasiga doimiy o'tishni aks e'ttirib, hodisalarning ob'ektiv zanjirini yaratuvchi kinooperatorga o'xshaydi.

Harakatning o'zi– bu, juda murakkab hodisa, o'zida goho kengayib, goho qisqarib spiral bo'ylab teng aylana bo'yichcha o'tmishning qaytarilishini dialektik birlashtiruvchi va uzluksiz dinamikning diskretlik hodisalari bilan, kritiklikning konstruktivlik bilan yaqqol birikmasidir. Bularning barchasi iqtisodiy tahlilning uslubiyati va metodikasida tegishlicha aks e'tishi kerak.

Demak, iqtisodiy tahlilning predmeti bir-biri bilan u yoki bu aloqada, doimiy harakat va rivojlanishda bo'lgan predmetlar va hodisalarning to'plamidan iborat bo'lgan tadqiqotchilikdir. Bu aloqalar xilma-xildir va qismni butunicha hamda aksincha munosabatlarda, tengliklar va tengsizliklarda, aniq yoki noaniq o'zaro bo'ysunuvchilikda, bir-birini taqozo qilishda va o'zaro bog'liqlikda o'z aksini topadi. Biring holatini o'zgarib ikkinchisiga o'tishi aks e'tuvchi o'zaro munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisalarni mantiqiy-uslubiy va gneseologik bilishdir. Iqtisodiy hodisalarni, ularning o'zaro munosabatini, aniq va umumiy ko'rinishini o'rganmasdan ularning tuzilmasini, xosalarini, voqeylikning qonunlarini bilish mumkin e'las. Barcha mavjudotni qamrab oluvchi

hodisalar, jarayonlar, predmetlarning hamma narsani qamrab oluvchi aloqasi munosabatlarning “to’ri” orqali bir butunni yaratadi va bu tadqiqot ob’ekti bo’ladi.

Bunda sabab-oqibat aloqani topish, ayniqsa, muhimdir, chunki sabab oqibatni keltirib chiqaradi, oqibat e’sa boshqa keyingi hodisa yoki holatning sababiga aylanadi va bu cheksiz davom e’tadi. Bu erda biz yana koordinatsiya va subkoordinatsiya namoyon bo’lgan doimiy harakat, rivojlanish va o’z-o’zini rivojlantirish jarayoni bilan to’qnashamiz. Ma’lumki, sabab-oqibat munosabatlar funktsional va stoxastikga bo’linadi, lekin ular hech qachon sababsizlik, tasodifga aylanmaydi.

Falsafiy ma’noda ta’osdifiyning o’zi zaruratning namoyon bo’lish shakllaridan biridir, u qandaydir sabablikning (ayrim vaqtd juda kam uchraydigan) hosilasidir.

Bu erda biz determinant va funktsional bog’liqlik tushunchalari bilan to’qnashamiz. Agar birinchisi o’rganilayotgan hodisalar o’rtasidagi aniq qat’iy aloqadorlikni bildirsa, ikkinchisi e’htimolli aloqa bilan xarakterlanadi. Shundan iqtisodiy tahlilning uslublari chiziqli aloqa xos bo’lgan determinant yoki e’htimolli bog’liqliklarni aniqlovchi stoxastik uslublar sifatida namoyon bo’ladi.

“Falsafa”ning asosiy muammolaridan biri qarama-qarshiliklarni birligi va o’zaro kurashi, tarixiy, shu jumladan, iqtisodiy rivojlanishining ziddiyatliliigi haqidagi muammodir. Hech bir formatsiya bir tekis rivojlanmagan. Ularning har biriga rivojlanishning e’gri chiziqli, zigzagsimon, oldinga ketish, orqaga qaytishli xarakteri xos bo’lgan. Hozirda Rossiya va boshqa sobiq sosialistik lager mamlakatlarining iqtisodiyoti bunga yorqin misoldir. Qarama-qarshiliklarning birligi va o’zaro kurashi, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligi olg’a harakat qilishning e’ng qudratli vositalaridan biri hisoblangan. Global xarakterga e’ga bu qonun o’zini makrodarajada yaqqol namoyon qilib, turli iqtisodiy tarkibiy qismlarning o’zaro munosabatiga ta’sir e’tadi, Movaraunnahr ikrodarajadagi tuzilmalarda ham o’z aksini topadi. Ushbu qonunning korxonalar va ularning asosiciyalari xo’jalik-moliyaviy faoliyatiga ta’sirini iqtisodiy tahlil topishi va kelib chiqishi mumkin bo’lgan salbiy oqibatlarni qo’l ostidagi vositalar va usullar bilan oldini olishi, shu

usullar va vositalar bilan ziddiyatli rivojlanish natijasi bo'lgan ijobiy sifatli oqibatga yordam berishi kerak.

Iqtisodiy tahlilni dialektik bilish bilan miqdor va sifat falsafiy muammosi ayniqsa yaqinlashtiriladi. Bilish, fikrlash, tahlilga miqdoriy yondashuvning asosida asosan dinamik jarayon rivojlanishining uzluksizligi e'las, uning diskretligi yotadi. Butunlik e'las, balki qismlarga bo'linish, lekin ular ham butunga birlashadilar. Miqdorni tadqiq qilishga hisob va o'lchov xarakterlidir. Miqdorni falsafiy tushuncha sifatida predmetlar va ularning qismlari, xossalari va aloqalarining tashi, formal o'zaro munosabati sifatida ta'riflab, bular son, kattalik, hajm, u yoki bu xossaning namoyon bo'lish darajalari ko'pdan–ko'p o'lchovlari bilan ifodalanadi.

Masalaga tarixiy nuqtai nazardan qarab, shuni aytish kerakki, avvallari iqtisodiy tahlil asosan sifatmas, balki miqdor kategoriyalardan foydalangan. Shu vaqtning o'zida bu kategoriyalar faqat dialektik birlikda, miqdorni yangi sifatga va yangi sifatning yangi miqdorga o'tishida ko'rib chiqilishi kerak. Axir ma'lumki, yangi sifat miqdoriga ham ijobiy ta'sir qiladi. Masalan, xalq iste'moli mahsulotlari sifatining o'sishi ularning mustahkamligini oshiradi va foydalanish mudatini uzaytiradi, bu e'sa ushbu mahsulot ishlab chiqarishning yangi miqdoriy o'sishini talab qilmaydi. Jahon andozalariga ko'ra biz ancha orqada qolganmiz, deyarli raqobatbardoshlikka e'ga e'lasimiz va bizning rivojlanishimiz zahiralari avvalambor bu sohadadir. Agar ko'rib chiqilayotgan kategoriyani aniq ifodalasak, sifat – bu, ob'ektning mavjud xossalarning, ichki va tashqi aniqligining, nisbiy barqarorligining funkional birligidir, nisbiylik deganining ma'nosi shuki, sifat, mukammallikning chegaralari yo'q.

Nihoyat, “inkorni inkor” dialektik qonuni va uning iqtisodiy tahlil uslubiyatiga ta'siri haqida. Bunda biz tahlil ob'ekti cheksiz yo'q bo'luvchi va yangidan paydo bo'luvchi xo'jalik jarayonlari e'kanligini so'zsiz yana bir bor tasdiqlashimiz lozim.

1.2 Makroiqtisodiy tahlil va milliy hisoblash tizimining roli

Makroiqtisodiy tahlil turli iqtisodiy o'zgaruvchilar orasidagi funktsional o'zaro aloqalarning parametrlarini baholashdan iborat. Makroiqtisodiy tahlil o'tkazilgandada ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish keng qo'llaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilning vositalari quyidagi modellardir: e'konometrik, vaqti qatorlar, imitacion, umumiy muvozanat. Yuqorida aytilgan modellar milliy hisoblar tuzilmasi doirasida joriy, o'zgarmas narxlarda o'sish va qo'shimcha o'sishning sur'atlarida tuziladi.

Makroiqtisodiy tadqiqot uchun qo'llaniladigan modellar tadqiqotchisi mansub bo'lgan iqtisodiy maktab hamda o'tkazilayotgan tahlil maqsadiga qarab farqlanadi. Lekin milliy hisoblash tizimi yagona shartdalar ishlab chiqarish, iste'mollar va boshqa milliy hisoblash tizimi asosida yotgan asosiy tushunchalarga zid bo'lmislik sharti bilan barcha iqtisodiy maktablar talabiga javob beradi.

Milliy hisoblash tizimi makroiqtisodiy hisoblarning, aktiv va passiv balanslarning hamda jadvallarning mantiqiy ketma-ket, butun to'plamidan iborat.

Ularning asosida xalqaro darajada kelishilgan qator tushunchalar, tasniflar va hisoblar qoidalari yotadi. Hisoblarning kompleks tizimi iqtisodiy tahlil, qaror qabul qilish va siyosat, ishlab chiqarish maqsadlari to'g'ri keladigan shaklda iqtisodiy ma'lumotlarni tuzish va berish imkonini beradi.

Milliy hisoblash tizimi makroiqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni makroiqtisodiy tahlil e'htiyojlari uchun kerakli shaklga tizimli ravishda keltirishga imkon beruvchi buxgalteriya hisobining tizimi sifatida ishlab chiqilgan. U milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlari tahlilida, baholashda va monitoringda muhim rol o'ynovchi axborotning uzluksiz oqimini tashkil e'tish uchun xalqaro hamjamiyat tan olgan asosdan iborat.

Rasmiy doiralar iqtisodiy statistika ma'lumotlarini taqqoslashni ta'minlashga birinchi bor qiziqishni 1928 yilda namoyon qilishdi. BMT yagona statistikasi yaratish va ma'lumotlarni berishning bir xil uslublarini

qabul qilish maqsadida iqtisodiy statistika bo'yicha xalqaro konferenciya o'tkazdi.

Milliy hisoblash tizimi tarixida 2 ta tendenciyaning birikmasi kuzatilgan: milliy hisobchilikning rivojlanishi va statistika masalalarining internacionalizatsiyasi.

1939 yil. Millatlar Ittifoqi birinchi bor milliy daromadni, bahollarni e'lon qildi.

Milliy hisoblash tizimining ayrim qoidalari: 1953, 1968 va nihoyat, 1993 yillarda ko'rib chiqilgan. Milliy hisoblash tizimi 1993(Milliy hisoblash tizimi-93)ning muhim xususiyatlari quyidagilardir: soddalik, modernizatsiya, aniqliklar va soddalashtirish hamda kelishilganlik. Milliy hisoblash tizimi birinchi marta nashr e'tilganidan beri turli mamlakatlar iqtisodiyotida o'zgarishlar ro'y berdi. Olib borilayotgan siyosatning e'ng asosiy muammolaridan biri inflyatsiya e'di. Ko'pgina mamlakatlarda, ayniqsa, o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarda DBOlaining roli o'zgardi. Xizmatlar sohasidagi faoliyat muhim ahamiyat kasb e'tdi. Moliyaviy institutlarning tuzilmasi murakkablashdi. Milliy hisoblash tizimi-93 da operatsiyalarning noqonuniyligi ularni hisoblarga kiritmaslikka asos bo'la olmasligi ko'rsatilgan. Tizimning oxirgi tahririda QQ soliqlari kategoriyasiga tegishli va qator mamlakatlarda 1968 yildan keyin kiritilgan soliqlarni hisobga olish uslublari tavsiya e'tilgan. Nihoyat, milliy hisoblash tizimi-93 da rasmiy ko'p valyuta kursli tizimlarda hisobga olish tartibi bo'yicha tavsiya berilgan.

Milliy hisoblash tizimi-93ni qabul qilish BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashiga, statistika qo'mitasiga Nyu-Yorkda 22 fevral-3 martda bo'lib o'tgan 27-sesiyasida tavsiya qilingan.

1.3 Milliy hisoblash tizimidan foydalanish sohalari

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, milliy hisoblash tizimini qo'llashning asosiy sohalarini belgilaymiz:

1. **Makroiqtisodiy tahlil.** Milliy hisoblash tizimi ushbu tahlil uchun qulay asosdir, chunki etarlicha e'giluvchandir, turli iqtisodiy

nazariyalar va g'oyalarga to'g'ri keladi, iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida foydalaniladi.

2. Turli davrlar uchun ma'lumotlarning solishtirma tahlili.

Milliy hisoblash tizimi e'ng muhim makroiqtisodiy agregatlarning vaqt davomida o'zgarishini kuzatishga imkon beradi.

3. Mamlakatlararo yoki o'zaro tahlil. Turli mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlarni taqqoslash. Milliy hisoblash tizimi xalqaro tashkilotlar tomonidan foydalaniladi, ta'riflanish va tasniflanishning tegishli xalqaro andozalarga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni berishga imkon beradi. Bu ma'lumotlar asosida XVFGa a'zo mamlakatlarining kvotalarini hisoblashda imtiyozli yordamga huquqlar haqida qarorlar qabul qilinadi. Umuman olganda, mamlakatlararo tahlil turli mamlakatlardagi iqtisodiy holatni taqqoslash uchun qo'llaniladi.

Bunday taqqoslash ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlarini umumiy valyutada o'tkazishni talab qiladi. Amaliyotda YAIMning milliy valyutadagi ma'lumotlarni o'tkazish bozor kurslarida amalga oshiriladi. Bu ayirboshlash qayta hisoblash maqbul bo'ladi, agar bozor (yoki rasmiy) ayirboshlash kurslari tegishli mamlakatlarda taqqoslanadigan mamlakatlardagi tovarlar va xizmatlarning o'rta tortilgan narxlar nisbatlariga teng bo'lsa. Bu o'zaro aloqani xarid qobiliyatining Pariteti-HQPdan keskin farq qilishi mumkin, bu e'sa YAIMning ulush koefficientlarida o'zgarishlarga va demak, taqqoslashda sistematik xatoga olib keladi.

Markaziy rejalashtirishda pirovard ishlab chiqarish hajmini baholash uchun boshqa tizim – Moddiy Mahsulot Tizimi (MMT) ishlab chiqarish, uning doirasida ishlab chiqarish yalpi hajmi ko'rsatkichi bo'lib moddiy ishlab chiqarishning sof mahsuloti xizmat qilgan. MMTning milliy hisoblash tizimidan asosiy farqi shundaki, MMTda amortizatsiya va nomoddiy xizmatlar sektorining qo'shilgan qiymati hisobga olinmagan.

Milliy hisoblash tizimida iqtisodiyotning 5 ta asosiy sektori farqlanadi: uy xo'jaliklari, korxonalar, moliyaviy sektor, hukumat va tashqi sektor.

Uy xo'jaliklari iqtisodiy resurslarning asosiy etkazib beruvchilaridir. Ular turli omil bozorlariga mehnat resurslarini, er va kapitalni taklif qilishadi, tovarlar bozorida tovarlar va xizmatlarga talabni

paydo qilishadi, lekin yuridik shaxs bo'lmagan korxonalarni tuzib, ishlab chiqaruvchilar sifatli faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Korxonalar er, ish kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillaridan foydalanishadi.

Moliyaviy sektor-moliyaviy xarakterdagi vositachilik xizmatlar bilan iqtisodiyotni ta'minlaydi.

Hukumatning iqtisodiy roli samarali me'yoriy-huquqiy bazani yaratish, ayrim ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqarish, soliq tizimini nazorat qilish va davlat xarajatlarini boshqarishdan iborat.

Tashqi dunyo sektori iqtisodiyotning norezidentlar bilan barcha operatsiyalarini birlashtiradi.

Qisqacha xulosalar

Makroiqtisodiy tahlil dialektik qonunlarga asoslanadi. Iqtisodiy tahlil predmeti bo'lib, o'zaro aloqador, doimiy harakatdagi va rivojlanadigan predmet va hodisalar to'plamidagi tadqiq qilinadigan reallik hisoblanadi. Makroiqtisodiy tahlil asosida XX asr boshidan beri jahon hamjamiyati foydalanayotgan va doimo rivojlanayotgan hamda jahon iqtisodiy integratsiyasini globalizatsiyasini hisobga olib qayta ishlanayotgan milliy hisoblar tizimi doirasidagi iqtisodiy modellar yotadi. Iqtisodiy tahlilning predmeti bir-biri bilan u yoki bu aloqada, doimiy harakat va rivojlanishda bo'lgan predmetlar va hodisalarning to'plamidan iborat. Sabab-oqibat munosabatlar funktsional va stoxastikga bo'linadi, lekin ular hech qachon sababsizlik, tasodifga aylanmaydi.

“Falsafa”ning asosiy muammolaridan biri qarama-qarshiliklarni birligi va o'zaro kurashi. Iqtisodiy tahlilni dialektik bilish bilan miqdor va sifat falsafiy muammosi ayniqsa yaqinlashtiriladi. “Inkorni inkor” dialektik qonuni va uning iqtisodiy tahlil uslubiyatiga ta'siri haqida. Makroiqtisodiy tahlil turli iqtisodiy o'zgaruvchilar orasidagi funktsional o'zaro aloqalarning parametrlarini baholashdan iborat. Makroiqtisodiy tadqiqot uchun qo'llaniladigan modellar tadqiqotchi mansub bo'lgan iqtisodiy maktab hamda o'tkazilayotgan tahlil maqsadiga qarab farqlanadi. Milliy hisoblash tizimi makroiqtisodiy hisoblarning, aktiv va passiv balanslarning hamda jadvallarning mantiqiy ketma-ket, butun to'plamidan iborat. Milliy hisoblash tizimi-93ni qabul qilish BMTning iqtisodiy va ijtimoiy

kengashiga, statistika qo'mitasiga Nyu-Yorkda 22 fevral-3 martda bo'lib o'tgan 27-sesiyasida tavsiya qilingan. Makroiqtisodiy tahlil. Milliy hisoblash tizimi ushbu tahlil uchun qulay asosdir, chunki etarlicha e'giluvchadir, turli iqtisodiy nazariyalar va g'oyalarga to'g'ri keladi, iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida foydalaniladi. Turli davrlar uchun ma'lumotlarning solishtirma tahlili. Mamlakatlararo yoki o'zaro tahlil. Milliy hisoblash tizimida iqtisodiyotning 5 ta asosiy sektori farqlanadi

Nazrorat va muhokama uchun savollar

1. "Iqtisodiy tahlil" ning predmeti nima?
2. Makroiqtisodiy tahlil qanday dialektika qonunlarga asoslanadi?
3. Birlamchi statistikani yaratishning qanday bosqichlarini bilasiz?
4. Milliy hisoblash tizimi iqtisodiyotning qanday sohalarida ishlatiladi?
5. Makroiqtisodiy tahlilning qanday vositalarini bilasiz?
6. Milliy hisoblash tizimi tarixida qanday tendenciyalar birikmasi kuzatilgan ?
7. Milliy hisoblash tizimida iqtisodiyotning qanday asosiy sektori farqlanadi ?
8. Uy xo'jaliklari vazifasi nimadan iborat?
9. Korxonalar vazifasi nimadan iborat?
10. Moliyaviy sektor- vazifasi nimadan iborat?
11. Hukumatning iqtisodiy roli nimadan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishidagi nutqi: "Halq so'zi" gazetasi. 29 yanvar 2006 y.
2. "Makroiqtisodiy tahlil va siyosat». XV seminar materiallari. –Vena, 2000.

3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Departamenti "Milliy xisobot tizimi".
4. "System of National Accounts" Commission of European Communities, International Monetary Fund, Organization for Economic Cooperation and Development, United Nations and The World Bank, 1993. Volume 1

E'lektron pochta

1. <http://www.Yabloko.rug/themes/belorus/belfrus-25.html>
2. <http://www.vqi.freenet.lezg/trudyg/bratisviko.htm>
3. <http://www.Biblio.rkg/encaztag/humanitariang/cicle.htm>
4. <http://www.vqi.freenet.lezg/trudyg/dratisviko.htm>
5. <http://www.vqi.freenet.lezg/trudyg/bratisviko.htm>
6. www.informika.rug/textg/exhibitg/papersg/2004g/c11-3doc

II BOB. IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI

2.1. Milliy daromadlar va mahsulotlar hisobi

Asosiy makroiqtisodiy hisoblar milliy daromad, milliy mahsulot hisoblari, to'lov balansi, davlat moliya statistikasi va pul-kredit obzori hisoblanadi. Bu hisoblar umumiy maqsad uchun xizmat qiladi. Ular iqtisodiy tahlil va iqtisodiy siyosatga doir qarorlar qabul qilish uchun poydevor hisoblanadi. Iqtisodiyotning turli nuqtai nazarlarini xarakterlashiga qaramay, ularning hammasi yagona konsepciyaga asoslanadi va yagona tizimni tashkil e'tadi. Bu bobni o'rganishdan maqsad – shu tizimni va shu hisoblar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga qaratilgan.

Makroiqtisodiyotning predmeti iqtisodiy agregatlarni o'rganish hisoblanadi, chunonchi, xarajatlar, daromadlar va ishlab chiqarish hajmi umumiy darajalarini; bandlik ko'rsatkichlari; baho va ish haqi; tashqi savdo oqimlari; soliq tushumlari va davlat xarajatlari; pul va kredit oqimlari. Amaliyotda makroiqtisodiyot uch masalani echishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi: o'zgarishlarni iqtisodiy agregatlar orqali tushintirish; iqtisodiy o'zgaruvchilar o'zgarishi oqibatlarini bashoratlash; iqtisodiy siyosatni aniqlovchi shaxslarga u yoki bu iqtisodiy maqsadlarga e'rishishiga yordam berish. Ravshanki, iqtisodiy rivojlanish sabab va oqibatlarini tahlil qilish uchun, avvalo, iqtisodiy holatlarni o'lchashni bilish lozim. Milliy xisoblar asoslari makroiqtisodiy o'zgaruvchilar haqidagi zaruriy axborotlarni sistemalashtirilgan tarzda qayd qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

E'ng muhim bo'lgan makroiqtisodiyot agregatlari, bu – ishlab chiqarish yoki “mahsulot” umumiy hajmi qiymatidir. Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmi yalpi ichki mahsulot (YAIM) sifatida aniqlanadi va mazkur hisob tizimi milliy hisoblar tizimi (milliy hisoblash tizimi) deb ataladi. Bu bo'limda milliy hisoblash tizimi muvofiq milliy berilmalar hisobining bir qator asosiy konsepciyasi va ta'siflari ifodalangan. Milliy hisoblash tizimi u yoki bu mamlakatning ma'lum davrdagi ishlab chiqarishi hajmi haqidagi ma'lumot olishga imkon beradi. Hisoblarning o'zi e'sa

shunday ishlab chiqilganki, ular yordamida asosiy iqtisodiy savollarga javob olish mumkin. Masalan, “Mamlakatda qaysi mahsulot ishlab chiqarilayapti va qay miqdorda?”, “Mamlakat iqtisodiyotida qanday ishlab chiqarish sektorlari mavjud?”, “Milliy daromad ishlab chiqarish omillari orasida qanday taqsimlanadi, hususan, mehnat va kapital o’rtasida?”. Milliy hisoblar iqtisodiy tahlil bilan shug’ullanuvchilar kabi iqtisodiy rejalashtirishlarni amalga oshiruvchilarga ham zarur. Chunki ular:

- muhim iqtisodiy o’zgarishlarni o’lchovi va iqtisodiy rivojlanish tahlilini o’tkazish uchun mos statistik asosni;
- iqtisodiy rivojlanib borishni baholash uchun davrlar ko’rsatkichlarini taqqoslash imkoniyatini;
- iqtisodiyot potencial imkoniyatlari ko’rsatkichlarini haqiqiy iqtisodiy ko’rsatkichlari bilan taqqoslash imkonini;
- turli mamlakatlar orasida taqqoslash o’tkazishga imkon beruvchi umumiy asosni ta’minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanishni o’rganish uchun iqtisodiy agregatlarning miqdoriy ahamiyatini aniqlash hamda mamlakat iqtisodiyotini subsektorlar orasidagi aloqalarni yaqqol holda ko’rsatish zarur. Milliy daromadlar va mahsulotlar hisobi bu ikkala masala echimini ta’minlaydi.

Milliy hisoblash tizimi bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarda bir necha o’n yillardan beri qo’llaniladi. Avvallari markazlashtirilgan rejalashtirish qo’llanilgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning ohirigi hajmini o’lchash uchun o’zga tizim ishlab chiqilgan. Bu tizim moddiy mahsulotlar tizimi (MMT) deya nomlanib, uning ko’rsatkichi moddiy ishlab chiqarish sof mahsuloti xizmat qiladi.

YAIM va “Milliy ishlab chiqarish sof mahsulotlari” tushunchasi

Avvallari markazlashtirilgan rejalashtirish amal qilgan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmini o’lchash uchun “Moddiy ishlab chiqarish sof mahsulot” (MISM) nomini olgan miqdor qo’llanilgan. MISM markaziy reja asosida yotuvchi harajat-mahsulot jadvalidan kelib chiqqan. MISM va YAIM orasidagi farq shuki, MISM tarkibiga amartizatsiya va nomoddiy xizmat sektoriga qo’yilgan qiymatning ma’lum qismi qo’yilmaydi. MISM tarkibiga moddiy ishlab chiqarish mahsulotining taqsimoti bilan bog’liq xizmat kiradi, masalan, transportirofka saqlash va

marketing. Bunday xizmatlarga moddiy ishlab chiqarish jarayoni “davomi” deb qaralgan. Bundan tashqari MISM tarkibiga ishlab chiqarish jarayonida qo’shimcha qo’shiladigan resurslar tarkibiga kirmasa-da MISMdand chiqarib tashlanmagan. Shu bilan bir vaqtda avvallari markazlashtirilgan rejalashtirish qo’llanilgan turli mamlakatlarda nomoddiy xizmatlar orasida qaysilari kirishi amaliyotda turlicha hal qilingan.

Shunday qilib, MISM asosida YAIMni hisoblash uchun unga amartizaciya va barcha nomoddiy xizmatlar qo’shilgan qiymati, shu jumladan, davlat boshqaruv organlari qo’shgan qiymat summasini qo’shib va undan ishlab chiqarish jarayonida qo’shimcha qo’shiladigan resurslar sifatida qo’llanilgan nomoddiy qiymatlar summasi ayrilganiga teng. Bundan to’g’rilash natijasida olingan YAIM qiymati ko’p hollarda MISM ko’rsatkichidan 20-30% yuqori bo’lgan.

Asosiy konceptiyalar

Ishlab chiqarish umumiy hajmi

Bozor narxlarida hisoblangan YAIM ishlab chiqaruvchi birlik – rezidentlar xo’jalik faoliyatining oxirgi natijasini ifodalaydi. U barcha ishlab chiqaruvchi birlik–rezidentlar tomonidan qo’shilgan qiymatlarning yalpi summasini aks e’ttiradi. U yana oxirigi tovar va xizmatlar iste’molining summasidan import tovar va xizmatlar summasini **chiqarib** tashlaganiga yoki bo’lmasa ishlab chiqaruvchi birlik rezidentlar tomonidan taqsimlangan daromadlar summasiga teng. Jismoniy shaxs yoki tashkilot “boshqa hududlarga qaraganda ko’proq aloqalar” yoki uning manfaatlari markazi joylashgan mamlakat rezidenti hisoblanadi. Bunday holatda chet e’liklar tasarrufidagi korxonalar manfaati markazi deb ular o’z faoliyatini olib borayotgan mamlakat hududi tushuniladi. Shunday qilib, milliy hisoblash tizimi muvofiq mamlakat hududida amal qilayotgan barcha korxonalar, ular qisman yoki to’liq chet e’liklar mulki bo’lsada, rezidentlar, deb ataladi. Bundan kelib chiqadiki, chet e’ldagi feliallar va ichki korxonalar shu’ba korxonalariga ularning bosh kompaniyalari joylashgan mamlakat rezidentlari deb qaralmaydi. Jismoniy shaxslar milliy hisoblar (to’lov balansi) tuzishda millati va fuqaroligidan qa’tiy nazar mamlakat hududida 1 yil va undan ortiq yashayotgan bo’lsa, rezidant hisoblanadi. Davlat boshqaruv organlari xodimlari faoliyatini xorijda olib

borishsa ham o'z mamlakatlari rezidentlari hisoblanishadi. Shunday qilib, mamlakatdan tashqaridagi e'lxixonalar va unda ishlovchi shu mamlakatning fuqorolari o'z mamlakatlari rezidentlari sanaladi. E'lxixonaning mahalliy aholi hisobidan yollangan ishchilarga e'sa o'z mamlakatlari rezidentlari deya qaraladi.

Ishlab chiqarish rezidentlari ho'jalik faoliyati natijasida olingan daromad, asosan rezident o'rtasida taqsimlanadi. Shu bilan birga daromadlarning ma'lum bir qismi norezidentlarga to'lanishi, tashqi dunyo (norezidentlar) daromadlarining bir qismi rezidentlarga o'tishi mumkin. Rezidentlar tarafidan olingan daromadlarni hisoblash uchun YAMD, YAIMdan norezidentlarga tegishli daromadni (yollanma ishchilarga to'lovlar yoki mulkdan daromad) ayirib, unga ishlab chiqaruvchi birlik norezidentlardan kelgan daromad ko'shiladi. YAIM va YAMD orasidagi farq "sof xorij daromadi" deya nomlanadi va u musbat yoki manfiy qiymatga e'ga bo'lishi mumkin. Bunday to'lovlar va tushumlar asosan investiciyalardan devidentlar, qisqa va uzoq muddatli zayomlar bo'yicha foizlarni oladi. Mehnat daromadlari nisbatan kam, chunki chet e'lda ishlayotgan ishchi bir yil o'tgach, o'sha mamlakat rezidenti (statistika nuqtai nazaridan) hisoblanadi va uning daromadi yashayotgan davlat YAIM va YAMMga qo'shiladi. Tashqi omillardan foydalanishdan to'lovlar va tushumlar summasiga er va binolar ijarasi to'lovlari va mualliflik (kitob, filmlar, musiqa, dasturiy ta'minot uchun) huquqi e'galariga to'lovlar kiradi.

Transfertlar

Transfertlar deb to'lovlarning shunday turiga aytiladiki, uni amalga oshiruvchi tomon to'lovi o'rniga hech nima olmaydi va qabul qilgan tomonning hech qanday majburiyati bo'lmaydi. Transfertlarga chet e'llikliklar, boshqa mamlakatlarda ishlovchilar jamg'armalari repatriyaciyasi, e'mmigrantlar tuhfalari pul o'tkazuchilar, xayriya tashkilotlari yordam tarzida o'tkazgan vositalar xorijiy davlatlar iqtisodiy yordam tartibida bergan vositalar kiradi. Transfertlar ichki iqtisodiyot ishlab chiqarishining qismi bo'lmaganligi tufayli ular ishlab chiqarish umumiy hajmi ko'rsatkichlariga qo'shilmaydi. Shu bilan birga transfertlarni ma'lum davrda mamlakat iqtisodiyoti e'ga va uni oxirgi

iste'mol yoki yalpi jamg'armaga sarflashi mumkin bo'lgan daromadlar bari bir **oshiradi** yoki kamaytiradi. YAMD va xorijiy transfertlarni aks e'ttirish uchun yalpi milliy ixtiyoridagi daromad (YAMID) tushunchasi qo'llaniladi. Modomiki, sof transfertlar manfiy ishorada bo'lishi (transfert to'lovi transfert tushumidan katta bo'lishi), yalpi milliy ixtiyoridagi mahsulot xajmi yaxshilovchi milliy mahsulotdan kam bo'lishi mumkin.

Nominal va real agregatlar

Nominal agregatlar deb joriy davr baxolarida o'lchanadigan agrigatlarga aytiladi, real agragatlar deb bazis davr baxolarida o'lchanadigan agrigatlarga aytiladi. Shunday qilib nominal YAIM ma'lum davrdagi tovar va xizmatlarning joriy davr nrxlaridagi o'lchangan xajmidir. Real YAIM ham shu tovar va xizmatlarni belgilaydi, ammo narxlarni bazis yili baxolarida oladi. Nominal YAIM o'zgarishi narx yoki xajm o'zgarishi natijasida ham yuz berishi mumkin. Real YAIMni Uzarishi oxirgi mahsulot xajmi o'zgarishini aks e'ttiradi. Nrxlarning o'rtacha darajasi bazis yilga nisbatan o'zgarishi nominal YAIMni real YAIMga nisbati kabi aniqlash mumkin. Bu koefficient YAIMning narx diflyatori deb ataladi. Bazis yil uchun diflyator qiymati birga (yoki koefficient foizlarida hisoblansa 100 ga) teng. YAIM diflyatori o'rtacha qiymatining o'zgarishi mamlakatdagi inflyatsiyaning umumiy ko'satkichi bo'ladi.

Tovar va xizmatlar

Milliy hisoblash tizimiga muvofiq har bir ishlab chiqarish birligi, u tovar ishlab chiqaradimi yoki xizmat ko'rsatadimi resurslardan foydalanib, mahsulot ishlab chiqaradi va qo'shilgan qiymat yaratadi. Modmiki, xamma ishlab chiqarish birliklari yaratgan qo'shilgan qiymati qo'shilsa, YAIM tarkibiga hamisha xizmat ko'rsatish sohasi yaratgan qo'shilgan qiymat ham qo'shiladi. Har bir tur mahsulot bahosi unga bozorda sotish narxi yoki tartibga soluvchi baho "tabiiy" monopoliya holatida (masalan, telefon xizmati) o'lchanadi. Davlat boshqaruvida esa uning mahsuloti qiymati davlat sektoridagi umumiy ish haqi summasi bilan o'lchanadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, xizmat sohasidagi kapital tovarlar

e'skirishi (masalan, satarosh qaychisi e'skirishi) ham YAIM tarkibiga qo'shiladi: u mamlakat iqtisodiyoti amartizatsiyasi umumiy summasi tarkibi hisoblanadi.

Tashqi balans

E'ksportga ishlab chiqariladigan tovarlar oxirgi mahsulot qismi bo'ladi. Umumiy iste'mol va kapital qo'yish o'z ichiga import tovarlarini olar e'kan, ichki mahsulot xajmini aniqlash uchun undan import xajmini ayirish kerak. Shunday qilib, YAIMni xarajatlar bilan hisoblashda e'ksportni boshqa xarajat komplektlariga qo'shish, importni e'sa ayirish kerak.

2.2. Milliy hisobning asosiy ayniyatlari

Korxonalar yaratgan qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish hajmi bilan oraliq iste'mol farqiga teng. YAIMni barcha ishlab chiqarish birliklari qo'shilgan qiymati summasi kabi olish mumkin. YAIMni yana bozor baholarida va (omillarni) qiymatlari bo'yicha o'lchash mumkin. Keyingi usul daromadlarni o'lchash bilan bog'liq. U yalpi qo'shilgan qiymatdan soliqlar minus ishlab chiqarish subsidiyasi ayirilganiga teng bo'lgan ixtiyoriy natijani beradi.

YAIM (omillar qiymati bo'yicha) = hamma omillar daromadlarning summasi (daromadlarga soliqlarni to'lashdan ilgari)
 $=W+OS$ (1)

YAIM (bozor baholari bo'yicha) q YAIM (omillar qiymati bo'yicha) ITS
 $W+OS+ITS$

Bu erda:

W – ishchilarga ish haqi va boshqa to'lovlarni jamlovchi ko'rsatkich;

OS – ishlab chiqarish birliklari joriy operatsiyalardan olgan (YAIM) yangi foyda (o'z ichiga ijara to'lovlari, foiz to'lovlari, amortizatsiya va foydani oladi);

ITS – subsidiyalar chiqarib tashlangan bilvosita soliqlar (sotuvdan va xo'jalik faoliyati uchun korxonalar davlatga to'lagan soliqlardan korxonalar davlatdan olgan transfertlar ayriladi).

Yalpi ichki mahsulotni yana bozor baholarida oxirgi tovar va xizmatlarga sarflar summasi bilan o'lchash mumkin. Bunda iste'mol xarajatlari, yalpi investiciya va sof e'ksport qo'shiladi.

$$(3) \quad \text{YAIM} = \text{S+I+(x-M)}$$

Bu erda:

S – davlat va uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari summasi;

I – xususiy va davlat sektorida asosiy kapital jamg'arish va tovar – moddiy zaxiralar qiymati o'zgarishi summasi;

x – tovar va nomoddiy xizmatlar e'ksporti;

M – tovar va nomoddiy xizmatlar importi.

Asosiy kapital jamg'arish deb asosiy aktivlar sotib olishga aytiladi. Asosiy aktivlar bu ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarida yil davomida va ko'proq muttasil ravishda foydalaniladigan aktivlardir. Kapital jamg'arishning asosiy shakllari:

- yashash binolari;

- boshqa qurilish va inshootlar;

- mashina va asbob–uskunalar;

- “etishtiriladigan” aktivlar, masalan, meva, sut kabilarni ishlab chiqarish uchun daraxt va uy hayvonlari.

Milliy daromadlar hisobi doirasida yalpi jamg'arma yalpi iste'mol qilinmagan daromad sifatida aniqlanadi. Birinchidan, yuqorida ko'rsatilganidek quyidagi ayniyatlar o'rinli:

$$(4) \quad \text{GNI}=\text{GDP}+\text{YF}$$

$$\text{GNDI}=\text{GNI}+\text{TRF}$$

(5)

Bu erda:

GNDI – yalpi milliy ixtiyoridagi daromad;

YF – xorijdan olingan sof moddiy omillar daromadi;

TRF – xorijdan olingan sof moddiy omillar daromadi;

Mamlakat iqtisodiyotidagi yalpi jamg'armalar summasini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

$$\text{S}=\text{GNDI}-\text{C}$$

(6)

(G) va (3) tenglamalar yordamida quyidagi muhim munosabatni olamiz.

$$(\text{S}-\text{I}) = (\text{x}-\text{M})+\text{YF}+\text{TRF}$$

(7)

Bu ifodaning muhimligini baholash juda qiyin. Chunki ushbu ayniyat bizga to'liq bog'liklikni bildiradi olmaydi.

U hisob ayniyati bo'lib hamisha bajariladi (albatta agar oldingi hisoblashlarda xato bo'lmasa). U tarkibiga kiritilgan agrigatlar va Milliy hisoblash tizimi hisob qoidalari bilan tushuntiriladi. (7) ayniyat ichki sektor va to'lov balansi joriy operatsiyalari orasida muhim aloqa mavjudligini ko'rsatadi. Buni qisqa qilib quyidagicha ifodalash mumkin: agar xususiy va davlat sektori xarajatlari summasi daromadlar summasidan ortsa, u holda investitsiyalar jamg'armalardan oshadi va bu joriy tashqi operatsiyalar hisobida kamomadda to'g'ridan-to'g'ri aks e'tadi.

Iqtisodiy nazariya qoidasi bo'yicha uy xo'jaligining iste'moli va ixtiyoridagi daromadi o'rtasidagi arifmetik bog'liqlikka qaramay, ular o'rtasida axloqiy bog'liqlik mavjud. Uning oddiy shakli quyidagicha:

$$\text{CP}=\text{a}+\text{b YD}$$

$$a > 0, 0 < b < 1$$

Iste'mol funkciyasining bunday ko'rinishda yozilishi iste'molga chegaralangan moyillik (MRG yoki $\Delta CP/\Delta YO$) ning o'zgarmas va b ga teng bo'lishini nazarda tutadi. Bu vaqtda iste'molga o'rtacha moyillik (SR/YD)dir. Uning o'sishi bilan musbat konstanti qiymati kamayganligi tufayli kamayadi. Bu bog'liklar shuni tasdiqlaydiki, iste'mol va jamg'armaning o'zgarishi iqtisodiy barqarorlashuvga imkon beradi. Modomiki, jamg'arma ko'efficienti iqtisodiy ko'tarilish davrida oshish va iqtisodiy tushkunlik davrida e'sa pasayish tendenciyasiga e'ga bo'ladi. Bundan tashqari ular daromadlarning o'sishi bilan uzoq muddatli istiqbolda jamg'arma ko'efficientining o'sishini taqozo qiladi.

Yuqorida keltirilgan iste'molning oddiy tenglamasiga yana bir qancha o'zgaruvchilarni kiritish mumkin. Bu e'sa tenglamaning xo'jalik iste'moli qonuniyatlarini tushuntirishga xizmat qiluvchi "o'zgarmas daromad" nazariyasiga mos kelishini ta'minlashga imkon beradi. Kengaytirilgan iste'mol funkciyasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$CP = f(YD^*, NW, r, X)$$

Bu erda:

CP – shaxsiy iste'molga sarflar;

YD* - joriy va kelajakda uy ho'jaliklari ixtiyoridagi daromadning o'rtachasi ((2) tenglamaga muvofiq aniqlangan);

NW – uy ho'jaliklarining sof moddiy boyligi;

r – soliq to'langandan keyingi boshqa o'zgaruvchilar;

X – iste'molga ta'sir e'tuvchi boshqa o'zgaruvchilar.

Xususiy sektorda kapital qo'yilmalarni aniqlovchi omillar

Yalpi kapital qo'shilmalar asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi (mashinalar, asbob-uskunalar, bino va inshootlar)ga va tovar-material

zahiralarining o'sishiga bo'linadi. Bozor iqtisodiyoti amal qilgan mamlakatlarda kapital qo'yilmalarni prognozlashda, qoidaga ko'ra, kapital qo'yilmalarni davlat va xususiy quyilmalarga ajratish maqsadga muvofiq. Davlat kapital qo'yilmalarining prognozi byudjet rejalariga mos kelishi shart. O'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda siyosiy raxbarlar tomonidan echiladigan muhim masalalardan biri davlat korxonalarining kapital qo'yilmalari rejasi hisoblanadi. Buning natijasida bozor kuchlari davlat korxonalarining kapital qo'yilmalarini aniqlovchi yagona omil bo'lmasligi mumkin.

Xususiy sektor kapital qo'yilmalari YAMM tarkibiy komponentlari qatoriga kiradi. Ularni prognozlash katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda xususiy investiciyalar, qoidaga ko'ra, uy-joy fondiga kapital qo'yilmalar va uy-joy bilan bog'liq bo'lmagan boshqa barcha fondlarga kapital qo'yilmalarga ajratiladi. Shu bilan birga bu 2 turdagi kapital quyilmalarning har biri uchun alohida modellar yaratiladi.

Xususiy sektor xo'jalik kapital quyilmalari nazariy modellarida asosiy e'tibor investor modellashtirishdan oladigan foyda me'yorini hisoblash uning kelajakdagi sotuv hajmidan keladigan foydani kutishiga asoslanishi mumkin. Investorlarning muvoffaqiyatga bo'lgan umidi va ishonchi sezilarli sub'ektivlik e'lementini o'z ichiga oladi, buni miqdoriy baholab bo'lmaydi. Buning ustiga kapitalning chegaralangan unumdorligiga va qiymatiga asoslangan kapital qo'yilmalarni optimallashtirishning standart modellari rivojlangan moliyaviy bozorlarning bo'lmasligi, kapitalni shakllanishida davlatning etarlicha sezilarli roli kabi institucional va tuzilmaviy omillar mavjudligi hamda bozor mexanizmi nomukammalligining turlicha ko'rinishlari tufayli qo'llanilmasligi mumkin. Bundan tashqari bu kabi modellarni qo'llash ko'pincha zarur ma'lumotlarni, xususan, mavjud kapital miqdori, ishchi kuchi, ish haqi xarajatlari va kapital qiymati haqidagi ma'lumotlarni olish murakkabligi tufayli qiyinlashadi.

Ba'zi bir ishlarda ta'kidlanadiki, bu mamlakatlarda xususiy kapital qo'yilmalari cheklovchi asosiy omillar bo'lib moliyalashtirish bahosi e'las, balki kapital sifatida qo'yiladigan vositaning yo'qligi hisoblanadi. Bu real foiz stavkalari bozor muvozanati darajasidan past darajada

turganligini hamda moliyaviy resurslar narxsiz mexanizmlar orqali taqsimlanayotganligini aks e'ttirishi mumkin.

Bunday mamlakatlarda xususiy kapital qo'yilmalarning miqdorini aniqlovchi asosiy omillar bank kreditining, xorij kapitali kirib kelishining hamda taqsimlanmagan foydaning mavjudligi hisoblanadi. Bank kreditining mavjudligi o'tkazilayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Shuningdek, bundan soliq-byudjet siyosati ham muhim o'rin tutadi, sababi davlat sektori tomonidan bank tizimi kreditiga talabning oshirilishi xususiy sektor olishi mumkin bo'lgan kredit hajmi cheklanishiga olib kelishi mumkin.

2.4 Narx darajasini prognozlash. Umumiy holatlar

Inflyaciyani prognozlash turli xil omillar tahlil qilinishini nazarda tutadi. Ularning ba'zilar quyida keltirilgan:

1. Tannarxning oshishida qanday tendenciyalar narxning o'sishiga imkon yaratadi? 1973-74 va 1979-80 yillarda e'nergiya tashuvchilarga dunyo narxlarining keskin ko'tarilishi bilan xarajatlarning ilojisiz o'sishi (yoki taklifning ta'siri) natijasida narx-navoning sezilarli o'sishi bunga misol bo'la oladi. Xarajatlarning o'sishini baholashda sarflar ko'payishining (pasayishining) qancha foizi narxlarda va qancha foizi past (baland) foyda ko'rinishida korxonaning o'zida aks e'tishini tahlil qilish zarur.

2. Xarajatlar oshishi natijasida firmalar o'z narxlarini qanchalik oshirishlari mamlakat iqtisodiyoti qaysi iqtisodiy cikl bosqichida turganligiga bog'liq. Agar tovar va xizmatlarga talab yuqori va malakali ishchilar etishmovchiligi bo'lsa, firmalar ish haqini sezilarli oshirishlari va buning ketidan darhol qo'shimcha xarajatlarni qoplash maqsadida narxlarni oshirishlari mumkin (talab ta'siri ostidagi inflyaciya). Bunday holat mamlakat ichida raqobat bo'lganda, shuningdek xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat bo'lganda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Yuqoriroq xarajatlarning narxlarga ko'chishi darajasi, shuningdek, o'tkazilayotgan siyosatga, shu jumladan, o'sayotgan xarajatlar bilan to'qnashayotgan sektorlarga soliq imtiyozlari yoki subsidiya berishga hukumatning tayyorligiga ham bog'liq.

3. Iqtisodiy siyosatning bosh yo'nalishlari qanday va u o'tgan yildagiga nisbatan qanday o'zgarishlarga uchradi? Masalan, pul-kredit nazoratining susayishi, ayniqsa, real mahsulot hajmining o'zgarishsiz qolishi narxlarni yuqoriga ko'taradi, sababi, iste'molchilar o'sgan pul massasini tovar va xizmatlarga sarflashga intiladilar (talab ta'siri ostidagi inflyatsiya).

4. Bir yoki bir qancha narxlarning o'zgarishi umuman narx darajasining o'zgarishini aks e'ttiradimi yoki o'zgarish boshqa narxlarning qarama-qarshi yo'nalishda o'zgarishi natijasida sodir bo'lganmi? Nisbiy narxlarning o'zgarishi cheklangan resurslarni ulardan e'ng unumli foydalanadigan sohalarga qayta taqsimlanishi zarurligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, umumiy narx darajasining oshishi, qoidaga ko'ra, iqtisodiyotda ortiqcha talab mavjudligidan guvohlik beradi. Amaliyotda bu ikki ko'rinish o'rtasidagi farq qancha muddatli kelajakda narxlar pasayishiga qarshilik ko'rsatilishi tufayli yo'qolib ketadi. Shunday qilib, nisbiy narxlarning o'zgarishi, odatda, umumiy narxlar darajasining hech bo'lmasa vaqtincha o'sishda o'z aksini topadi.

5. Iste'molchilarning kelajakda narx o'zgarishlarini kutishlari bugungi narx o'sishi darajasiga qanday ta'sir qiladi? Masalan, inflyatsiyani kutish foiz stavkalarining o'sishida va ish haqining ko'tarilishini talab qilishlarida o'z aksini topadi hamda iste'molchilar sarfiga ta'sir ko'rsatadi. Garchi, kutishni modellashtirish muammosi muhim kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi va butun bir e'mpirik tadqiqotlar o'tkazishga qilgan bo'lsa ham uning asosida etarlicha oddiy hukm yotibdi, odamlarning kelajak haqidagi tasavvuri ularning bugungi kundagi harakatlariga ta'sir ko'rsatadi.

6. Narxlar ko'tarilishiga mamlakatning rasmiy siyosati ham ta'sir qiladi. Unga narx ustidan nazorat qilish choralari raqobat sohasidagi siyosat va tashqi savdo tizimi kiradi. Oxirgisi qanchalik e'ziz bo'lsa, ortiqcha talabning shunchalik katta foizi ichki narxlarning ko'payishida e'las, balki to'lov balansida aks e'tadi. Narxlarning o'zgarishiga almashuv kursi rejimi ham kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin; almashuv kursi tizimi qanchalik kam e'g'uluvchan bo'lsa, talab o'sishining shunchalik ko'p darajasi valyuta zahiralarning kamayib ketishida aksini topadi.

Amaliy yondashuv

Inflyaciyani baholashning oddiy usullaridan biriga ko'ra xarajatlarning o'sishi prognozlarning asosi hisoblanadi. Lekin inflyaciyani bunday baholash faqatgina taxminiy bo'lishi mumkin, sababi, vaqti kelib narxlar ko'tarilishining butun iqtisodiyotga sezilarli bilvosita ta'siri namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum davr ichidagi narxlarning o'zgarishi nafaqat shu davr ichidagi xarajatlar o'sishining o'zgarishini, balki oldingi davrlardagi xarajatlar o'sishining davomli ta'sirini ham aks e'ttiradi. Masalan, importga narxlarning ko'tarilishi boshida faqatgina bevosita import tovarlari va mamlakat ichida import xom ashyosi va materiallaridan foydalanib ishlab chiqarilgan tovarlarning narxida aks e'tishi mumkin. Lekin keyinroq, yuqoriroq narxlarning iqtisodiyotda tarqalishi bilan, e'htimol, mamlakat ichida boshqa tovarlarni ishlab chiqarishda xom ashyo va materiallarni sotib olish xarajatlari ham oshishi mumkin. Bu oqibatlar, agar narxlarning oshishi orqasidan qoplash sifatida ish haqi oshirilsa, yana ham sezilarliroq bo'lishi mumkin.

Iste'mol narxlari indeksi (CPI) – bu, rezidentlar tomonidan iste'mol qilinadigan import va mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarlarni ma'lum savatdagi narxi indeksidir. Bundan farqli ravishda YAMM deflyatori – bu, ham ichki iste'mol, ham e'ksport uchun ishlab chiqarilgan barcha tovarlar narxi indeksidir. Kutish mumkinki, iste'ml narxlari indeksi (INI) va YAMM deflyatorining o'zgarishidagi farqlar aks e'ttiradi. Agar import narxlari e'ksport narxlariga qaraganda ko'proq darajada oshsa, INI orqali ifodalangan inflyaciya darajasi, boshqa sharoitlar teng bo'lganda, YAMM deflyatori orqali ifodalangan inflyaciya darajasidan yuqori bo'ladi.

Lekin shuni nazarda tutish lozimki, amaliyotda import narxlarning INIga va e'ksport narxlarning YAM deflyatoriga ta'siri bir xil e'vas. U import tovarlari narxi oshishining mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarlar narxiga ko'chishiga bog'liq.

E'ksport narxlarining o'sishiga kelganda shuni aytish kerakki, ba'zi e'ksport tovarlari ichki bozorda iste'mol qilinishi mumkin. Ichki va e'ksport bozorlarida e'ksport tovarlarga narxlar bir xil bo'lganligi sababli, e'ksport narxlari o'zgarishining oqibatlari INIga bevosita ta'sir ko'rsatish mumkin.

Inflyatsiyaning bazis darajasini aniqlashda faraz qilish mumkinki, xarajatlar ortishining o'zgarimas sur'atlarida narxlarning o'sish sur'atlari butunlay oldingi yil darajasida qoladi. Keyin inflyatsiya sur'atlarini ko'tarilishiga yoki pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillar aniqlanadi. Butunlay faraz qilinadiki, talabni tartibga solishda yumshoq siyosat o'tkaziladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bazis prognoz aniq iqtisodiy siyosat yuritish haqidagi farazga va muqobil prognozga asoslangan. Talabni tartibga solishda qat'iyroq siyosat yuritishni nazarda tutadigan muqobil prognozda inflyatsiya sur'atlarini dastlabki baholash xarajatlar ortishining kam sezilarli bilvosita oqibatlarini hisobga olgan holda tuzatilishi kerak.

Qoida bo'yicha xarajatlar o'sishi tendenciyasiga quyidagilarning o'zgarishi ta'sir qiladi:

- jahon savdosidagi narx darajasi (xorijiy valyutada);
- nominal almashuv kurslari;
- ish haqi miqdori;
- e'gri soliqlar miqdori.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiyotning real sektori o'z ichiga institucional sektorlarni olib, ular o'z navbatida ikkita asosiy turga bo'linadi: yuridik shaxslar va uy xo'jaliklar.

Milliy hisoblash tizimi doirasida makroiqtisodiy tahlil uchun asosiy rol o'ynaydigan va xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari taklif e'tgan metodlar asosida hisoblanadigan va tasniflanadigan tushunchalar mavjud. Turli iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda ishlab chiqarish hajmini o'lchashdagi paydo bo'ladigan xatolarning asosiy sabablarini bilish kerak. Amaliyotda makroiqtisodiyot uch masalani echishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi E'ng muhim bo'lgan makroiqtisodiyot agregatlari, bu – ishlab chiqarish yoki “mahsulot” umumiy hajmi qiymatidir. Milliy hisoblash tizimi u yoki bu mamlakatning ma'lum davrdagi ishlab chiqarishi hajmi haqidagi ma'lumot olishga imkon beradi. Milliy hisoblar iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchilar kabi iqtisodiy rejalashtirishlarni amalga oshiruvchilarga ham zarur. Milliy hisoblash tizimi bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarda bir necha o'n yillardan beri qo'llaniladi. Bozor narxlarida

hisoblangan YAIM ishlab chiqaruvchi birlik – rezidentlar xo'jalik faoliyatining oxirgi natijasini ifodalaydi. Milliy hisoblash tizimi muvofiq mamlakat hududida amal qilayotgan barcha korxonalar, ular qisman yoki to'liq chet e'lliklar mulki bo'lsada, rezidentlar, deb ataladi. Ishlab chiqarish rezidentlari ho'jalik faoliyati natijasida olingan daromad, asosan rezident o'rtasida taqsimlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy ishlab chiqarish sof mahsuloti tushunchasi nimani anglatadi?
2. Milliy hisobning qanday asosiy ayniyatlarini bilasiz?
3. Yalpi milliy daromad, yalpi milliy, ixtiyordagi daromad tushunchasi va ular qanday xisoblanadi?
4. Xususiy sektorda kapital qo'yilmalar qanday xisoblanadi?
5. Davlat kapital qo'yilmalarining prognozi nimalarga mos kelishi shart?
6. Xususiy sektor kapital qo'yilmalari nimani komponentlari qatoriga kiradi?.
7. Inflyatsiyani prognozlashda qanday omillar tahlil qilinishinikerak?
8. INI va YAIM deflyatori farqi nimadan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishidagi nutqi: "Halq so'zi" gazetasi. 12 fevral 2006 y.
2. Fareycheva G.V. Sistema obshchestvennykh potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii M. MGU. TEIS. 2004. 456s
3. Tarassovich L.S, P.I.Grebennikov, A.I.Leusskiy Makroe'konomika Uchebnik 5-e izdanie M. YUrayot 2004g. 654s.
4. G.A.Kutorshevskiy «E'konomika» osnovy, teoriya Uchebnoe posobie izd. «E'konomika» 2004. 382s.
5. Efimova M.R i dr. Praktikum po obshchey teorii statistika M. 2004.
6. "Makroiqtisodiy tahlil va siyosat». XVf seminar materiallari. –Vena, 2000.

E'lektron pochta

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. [http: g'g' www. Review.uz g'homeg' azticle.asp?](http://g'g'www.Review.uz/g'homeg'/azticle.asp?)
3. [http: g'g' www. Biblio.rkg'encaztag'humanitariang'cicle.htm](http://g'g'www.Biblio.rkg'encaztag'humanitariang'cicle.htm)
4. [http: g'g' www. vqi.freenet. g'trudyg'dratisviko.htm](http://g'g'www.vqi.freenet.g'trudyg'dratisviko.htm)

III Bob. TO'LOV BALANSI

3.1. Tahliliy hisobot

To'lov balansi hisoblarini tuzishning asosiy maqsadlaridan biri tashqi muvozanatlikni to'g'rilash e'htiyojining paydo bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotga e'ga bo'lishdir. Biroq ikkilik yozuv tizimi to'lov balansida debet va kredit tinchligini nazarda tutadi. Shuning uchun unda ijobiy saldo yoki deficitni ko'rsatish uchun barcha tashqi operaciyalarni summalash va bu guruh ichidagi operaciyalarni moddalardan ajratish kerak (chiziq ostidan yoki ustidan).

Chiziqni tortish erini hal qilish to'lov balansi bosh e'htiyojining a'lo darajadagi qaysi operaciyalar doirasini ko'rsatish to'g'risidagi sub'ektiv nazarni ifodalaydi. Mustaqil hisoblangan operaciyalarga bo'lgan yondashuvlarning biriga asosan, avtonom moddalarni kompensaciyalash uchun ular amalga oshiriladigan operaciyalardan ajratilishi kerak. Boshqa yondashuv doirasida asosiy e'tibor operaciya xarakterining o'zgaruvchanligiga qaratiladi: nostabil deb qaraladigan operaciyalar to'lov balansining umumiy holatini ko'rish uchun "chiziq ostida" belgilanadi.

Afsuski, moddalarni farqlash uchun yagona o'lchov birligi mavjud e'mas, chunki bunday bo'lish sezilarli darajada operaciyani amalga oshiruvchi iqtisodiy agent motivaciyasiga nisbatan sub'ektiv qarashni ifoda e'tadi. Shuningdek, qanday moliyaviy aktivlar yuqori o'zgaruvchanlik bilan xarakterlanishini aniqlash mumkin. Balans tushunchasiga bir qator turli yondashuvlar birligi ham bejiz e'mas.

To'lov balansining tor ma'nosi savdo balansi, ya'ni FOV asosida e'ksport va import saldosi ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda tovarlar va xizmatlar oqimi orasidagi farq sub'ektiv hisoblanadi. Xizmat e'ksportidan tushgan chet e'l valyutasi birligi, tovar e'ksportidan tushgan chet e'l valyutasi birligidan maqsadi tashqi savdo balansining ahvolini yaxshilashdir. Savdo balansidan asosan bojxona hisobotlaridan foydalanib tovar savdosi bo'yicha ma'lumotlarga nisbatan tezroq e'ga bo'lish mumkinligi sababli foydalaniladi.

Nazariy nuqtai nazardan joriy operatsiyalar hisobi tushunchasi ahamiyatga e'ga. Mavjud nuqtai nazarlarning biriga asosan, bu hisob o'z ichiga tovar savdosi, xizmat va daromadlar, boshqasiga ko'ra e'sa bundan tashqari, xususiy yoki umuman bir yoqli transfertlarni oladi. Xususiy bir yoqli transfertlar to'lov balansini to'g'rilash nuqtai nazaridan qaralganda tarkibga kirishi mumkin. U holda boshqa hech qaysi tarkibga kirmaydigan mehnat daromadi ko'rsatkichni chiziq ustiga, chet e'ldan kelgan imigrant xizmatchilarni e'sa chiziq ostiga joylashtiriladi. Ba'zan rasmiy transfertlar joriy oqim e'sa, balansni kapital oqimi bo'lganligi uchun hisobga olinmaydi. Biroq bir yoqli transfertlarni chiziq ostida hisobga olishda muammolar paydo bo'ladi: **real** respublikalar qabul qiluvchi debet to'lov balansini yomonlashtiradi, degan fikr paydo bo'ladi. Hozirgi paytda e'ng tarqalgan yondashuv bu joriy hisobga barcha transfertlar kirishidir. Tovarlar, xizmatlar, daromadlar va bir yoqli transfertlar balansi ikkinchi real operatsiyalar natijasida o'zgaradigan moliyaviy aktivlarning haqiqiy kattaligini ifodalaydi. Joriy operatsiyalar hisobi balansi sof kapital oqimi kattaligini ifoda e'tadi. Joriy operatsiyalar hisobi balansi sof kapital oqimi kattaligi yoki zahiralalar va parallel moddalar summasining o'zgarishi bilan mos kelishi kerak.

Joriy operatsiyalar hisobining muvozanatsizlashtirilganligi doim ham iqtisodiy o'zgartirish kiritish e'htiyojini ko'rsatmaydi. Misol uchun, davlat rahbariyati rivojlantirishga qaratilgan xarajatlar bilan bog'liq uzoq muddatli kapitallar oqimi hisobidan moliyalashtirilgan deficitning joriy operatsiyalar hisobini saqlashga borishi va aksincha, tashqi investiciyani moliyalashtirish uchun joriy operatsiyalar hisobining ijobiy saldosi saqlashga o'z faoliyatini qaratishi mumkin.

Joriy operatsiya xisobi saldosi o'ziga xos tahliliy ahamiyatga e'galigi yana ikkita omil bilan ifodalanadi. Birinchisi, agar transfertlar bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik hisobga olinmasa, kattalik bo'yicha joriy operatsiyalar hisobining deficiti yoki ijobiy saldosi iqtisodiyotning qolgan boshqa barcha sektorlari bo'yicha jamg'armalar summasining o'sishi yoki qisqarishiga teng bo'ladi. Ikkinchisi, joriy operatsiyalar hisobining saldosi sof tashqi qarzlar hajmining o'zgarishiga tengdir. Umumiy balansga e'rishish uchun chiziq tagiga faqat yuqori likvidli aktivlar va pul-kredit organlarining qisqa muddatli passivlar hajmining (yoki ular tomonidan

boshqariladigan ma'lum bir aktiv yoki passiv) ko'rsatkichi joylashtiriladi. Pul-kredit boshqaruv organlarining oltin, qimmatli qog'ozlar va aktivlari odatda zahiralar tarkibiga kirgan bir paytda, depozit pul banklaridagi aynan shu xil aktivlar tushunchasi sub'ektiv hisoblanadi va hukumat bu aktivlarning ishlatilishini qay darajada nazorat qilishiga bog'liq.

Bundan tashqari passivlar tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchilik ham yuzaga keladi.

XVF tomonidan ishlatiladigan kreditlar zahiralar kategoriyasiga kiritiladi va ba'zi hollarda ma'lum talablarni bajaruvchi tomonidan zahira aktivlari sifatida qaraladigan passivlar, shuningdek chiziq ostiga joylashtiriladi (masalan, ma'lum M. B. ning boshqa M. B lardagi hisoblari). Ushbu yondashuvning afzallik tomoni shundaki, u balanslarni aniqlashda muvofiqlikni ta'minlaydi.

Ma'lumotlarning asosiy manbalari

Tovar operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbalari davlatning soliq tizimi tomonidan to'planib, ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi savdo hisobotlari, bank tizimi orqali chet e'l valyutasining to'lovlari va oqimini ko'rsatuvchi valyuta almashuvi bo'yicha ma'lumotlar hisoblanadi.

Savdo hisobotlarida tovarlarning davlat chegarasi orqali jismoniy harakati, banklar orqali amalga oshirilgan va xizmatlar uchun to'lovlarda valyuta almashuvi bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, bank tizimi orqali daromadlar harakati aks e'tadi. Bu manbalardan foydalanilganda doim ham e'galik huquqining sotuvchidan xaridorga o'tayotganida (ikkala tomonning ham buxgalteriya kitobida aks e'tadi) to'lov balansining o'tkazish prinsipi operatsiyasini tuzishda joriy manbaga amal qilinmaydi. Shuning uchun operatsiya o'rtasidagi farq ularni kategoriyalarga bo'lim operatsiyalarini amalga oshirish vaqti tushunchasi, shuningdek, qiymati baholashlarni ifodalovchi tuzatishlarni kiritish kerak bo'lishi mumkin. Valyuta almashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarda operatsiyalar hisobi uchun tuzatishlar kiritilishi kerakki, bularni amalga oshirishda to'lov bank tizimi orqali bajarilmaydi. Natural ko'rinishdagi davlat importi, barter bitimlari, bir yoqli transfertlar va chet e'ldagi moliyaviy aktiv va passivlar hajmining o'zgarishi yordamida bevosita amalga oshirilgan operatsiyalar valyuta

almashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarga kiritiladigan moddalar qatoriga tegishlidir.

Bojxona hisoboti ma'lumotini korreksiya misoli tariqasida mamlakatdagi kemalar va dengiz ovchilari ochiq dengizdan tutgan ovini chet e'lda realizatsiya qilishlarini olish mumkin.

Turli moddalarni kategoriyalarga bo'lish bilan bog'liq tuzatishlar bo'yicha hamma e'ksport FOB asosida o'tkazilishi kerak. Bunda ma'lum o'zgartirishlar "Transportatsiya" moddasiga kiritilishi lozim. Operatsiyani amalga oshirish vaqti bilan bog'liq bo'lgan tuzatish tovar oqimi hajmi o'zgarishida shuningdek, davlat rezidentlari chet e'ldagi zahiralarga e'ga bo'lganda yoki rezident e'maslar – quriladigan davlatdagi zahiralarga e'ga bo'lganida muhim bo'lishi mumkin.

Savdo hisobotlarida tovarlarning jismoniy kuchi qayd qilinadi va shuning uchun bu zahiralarda hajmini o'zgartirishda ularga tuzatishlar kiritish kerak. Valyuta hisobotlarida operatsiyalarni amalga oshirish vaqti bilan bog'liq bo'lgan tuzatish kapitallar harakatidagi aktivlar va passiv o'zgarishni ko'rsatish uchun kiritiladi. Qiymat bo'yicha tuzatishlar asosiy manbalardan olinadigan ma'lumotlar bozor narxini ifodalamaganda zarur bo'ladi.

Ba'zi xususiy operatsiyalarni baholashda, valyuta almashuvi ustidan kuchli nazorat bo'lmagan davlatlarga tegishli so'rovnomalar yoki tanlama kuzatishlar olib borish kerak bo'lishi mumkin. "Turizm" to'lov balansi moddasini baholashda ba'zan davlat rezidentlari tomonidan chet e'lda o'tkaziladigan sutkaning o'rtacha summasini kunlarning umumiy soniga ko'paytiriladi, shuningdek, ushbu davlatda chet e'lliklar tomonidan o'tkaziladigan kunlar soniga ko'paytiriladi.

Sutkaning o'rtacha kattaligini aniqlash uchun sayohat agentligi, banklar, mehmonxona va do'konlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Chet e'l turistlarining mehmonxonalarda o'tkazgan kunlari soni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash mumkin. Turizm bo'yicha ma'lumotlar davlatlararo ba'zi ma'lumot almashish yo'li orqali tekshirilishi mumkin. So'rovnomalardan, shuningdek kema va aviakompaniyaning yo'lovchilik chiptasi narxi to'g'risidagi ma'lumot, investicion foyda va trans milliy kompaniyalarining to'g'ri investitsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishda foydalanish mumkin.

Qisqa muddatli kapital oqimi bo'yicha ma'lumotlar, odatda, ishonchsiz hisoblanadi. Valyuta almashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai sifatida ishlatilishida tijorat, kredit to'g'risidagi ma'lumotni, qiyin bo'lsa, so'rovnomalarni qo'llaganda ma'lumotning kerakli hajmini olishi, shuningdek, uning ishonchligini ta'minlash e'sa murakkabdir.

3.2 Asosiy vaziyatlar

Quyida u yoki bu davlatning to'lov balansini prognozlashtirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qancha oidalar ro'yxati kiritilgan.

JAHON IQTISODIYOTIDAGI TENDENCIYALAR.

Tashqi sektor prognozlari butun dunyo bilan o'zaro aloqador bo'ladi. Shuning uchun ham unda asosiy savdo hamkorlari va shuningdek, raqobatchi davlatlar iqtisodiyotining rivojlanish tendenciyasi hisobga olinishi kerak. E'ksport, import jahon bozoridagi xom ashyo tovar narxi va hamkorlik qilinadigan davlatlarda iqtisodiy faollik darajasiga bog'liq.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishi tendenciyasi prognozlariga ma'lum miqdordagi noaniqlik xarakterlidir. Shuning uchun xom ashyo tovarlarning narxi industriya rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarishning usuli va foiz stavkasi darajasi kabi oilalarning prognozlashtirishga qay darajada ta'sir e'tishini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

ICHKI IQTISODIY FAOLLIK VA IQTISODIY SIYOSAT. To'lov balansi prognozlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini prognozlashtiruvchi tendenciyalarga mos bo'lishi kerak. Unga, o'z navbatida bevosita o'tkaziladigan soliq, byudjet va pul-kredit siyosati ta'sir e'tadi.

PROGNOZLASHTIRISH USLUBIYATI. Prognozlarni tayyorlashda o'zgarishni ko'rsatuvchi va asosiy o'zgarishlarni prognozlashtiruvchi ko'rsatkichlar orasidagi mustahkam aloqalarni o'rnatish maqsadga muvofiqdir. To'lov balansi prognozini tayyorlash uchun prognozlashtirishining bir qator moddalari bo'lishi kerak. Ba'zi holatlarda ma'lumotlarning yo'qligi yoki ularning yomon sifatligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni keltirib chiqarish mumkin. Undan tashqari ishlab chiqarishda bo'ladigan shiddatli o'zgarishlar davrida savdo

e'lementi hisoblanmish tovar sektorida o'tkaziladigan islohotlar davrida o'zaro aloqadorlikning turkunligi buziladi. Bunday sharoitlarda miqdoriy prognozlarni tayyorlash, odatda, ma'lm miqdorda sub'ektiv baholashga tayanadi.

DEZAGREGACIYA DARAJASI. Prognozlashtiruvchi operaciya kategoriyalar tarkibida ma'lumotlarning dezagregaciya darajasi aniqlangan bo'lishi kerak. Odatda, gap turli sababli ishlar yoki turli reakciyalarning bitta omili ta'sir e'tishi to'g'risida ketganda moddalar dezogregaciyasi amalga oshirilishilozimi. Masalan, neft mahsuloti importi va barcha boshqa import ushbu seminar doirasida turli kategoriyalarga bo'lingan. Chunki importning bu ikki kategoriyasi narxlar va savdo xajmi o'zgarishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

BUXGALTERIYA HISOBIDA BALANSGA RIOYA QILISH. To'lov balansining alohida komponentlari alohida prognozlari barcha tashkiliy to'lovlar va tushunchalar summasi nimaga teng bo'lishi kerak, ya'ni joriy operaciya hisobining sadosi kapital harakati va zahiralarning miqdorining o'zgarishi summasiga teng bo'lishi kerak, degan shartni qondirmasligi mumkin. Masalan, agar joriy operaciya hisobi defitsiti, kapital harakati va zahiralarning hisobi tomonidan qoplanmasa, unda joriy operaciya hisobining dastlabki prognozlari, tashkiliy moliyalashtirish yoki zahiralarning darajasini o'zgartirish kerak bo'ladi.

JORIY OPERACIYA HISOBI DEFICITNING MA'QULLANGAN MIQDORI. Agar joriy operaciya hisobi defitsiti prognozlashtirilayotgan bo'lsa, defitsitni moliyalashtirishni ta'minlash va qarz berish bilan bog'liq bo'lgan muammoni chetlab o'tish imkonini beruvchi hajmdagi kapitallar oqimiga davlat kafolat bera olish—olmasligi muhim hisoblanadi. Mamlakatning chet e'l valyutasini qo'lga kiritish imkonini kengaytiruvchi, tashqi qarz bo'yicha maqul pozitsiyasini ta'minlash zayom vositalaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Boshqa muhim omillar sirasiga makro iqtisodiy siyosatning asoslanganligi, tashqi shart-sharoit, shuningdek, kreditorlarning davlatga berilgan kreditlar summasini oshirishga tayyorligi kiradi.

3.3 Importni tahlil qilish

Kichik davlat gipotezasidan foydalanilganda, chet e'l valyutasidagi import narxi jahon bozorida aniqlanadi va o'sha davlatning boshqaruvi organli tomonidan boshqarilmasligi nazarda tutiladi. Bu holda import hajmi ichki talab bilan importga bo'lgan talab quyidagi formula ko'rinishida aniqlanadi:

$$\frac{M}{P_m} = \frac{Y_d}{P_y} - \frac{P_m}{P_y} \quad (1)$$

(+)

(-)

Kichik davlat ko'rgazmasi

Turli moddalarni kategoriyalarga bo'lish bilan bog'liq tuzatishlar bo'yicha hamma e'ksport FOB asosida o'tkazilishi kerak. Bunda ma'lum o'zgartirishlar "Transportaciya" moddasiga kiritilishi lozim. Operaciyani amalga oshirish vaqti bilan bog'liq bo'lgan tuzatish tovar oqimi hajmi o'zgarishida shuningdek, davlat rezidentlari chet e'ldagi zahiralarga e'ga bo'lganda yoki rezident e'maslar – quriladigan davlatdagi zahiralarga e'ga bo'lganida muhim bo'lishi mumkin.

Savdo hisobotlarida tovarlarning jismoniy kuchi qayd qilinadi va shuning uchun bu zahiralar hajmini o'zgartirishda ularga tuzatishlar kiritish kerak. Valyuta hisobotlarida operaciyalarni amalga oshirish vaqti bilan bog'liq bo'lgan tuzatish kapitalar harakatidagi aktivlar va passiv o'zgarishni ko'rsatish uchun kiritiladi. Qiymat bo'yicha tuzatishlar asosiy manbalardan olinadigan ma'lumotlar bozor narxini ifodalamaganda zarur bo'ladi.

BU ERDA:

M – importning qiymati;

P_m – e'ksportning milliy valyutadagi narxi;

Y_d – ichki daromad (yoki ichki talab);

P_y – ichki narxlar darajasi.

Import hajmi haqiqiy daromad yoki haqiqiy ichki xarajatlar oshganda o'sishi mumkin. Narxlarning raqobatbardoshlik o'zgaruvchanligi ularning nisbatan o'zgarishiga import hajmining reaksiyasini, chunonchi mos valyutalarda ichki va tashqi narxlarning harakatini, shuningdek, almashish kursini aks e'ttiradi. Davlat ichida ishlab chiqariladigan tovarlar narxi import qilinadigan tovarlar narxiga nisbatan past bo'lganida import

tovarlar o'rnini shu davlatda ishlab chiqarilgan tovarlar e'gallashi tendenciyasi kuzatiladi. Nisbiy narxlarning o'zgaruvchanligi manfiy ma'no kasb e'tadi.

2–Ilova

Import narxining o'zgaruvchanligi

Importga bo'lgan talabga daromad va nisbiy narxlardan tashqari boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kreditning mavjudligi bevosita import kreditlar taklif qilinganda importga ta'sir qiladi. Shuningdek, ichki xarajatlar darajasiga ta'sir e'tuvchi boshqa kreditlar orqali bilvosita ta'sir e'tadi.

$$\frac{\Delta MR / MR}{\Delta RPM / RPM}$$

Miqdoriy chegarali va import takliflarining yuqori bo'lishi importga bo'lgan talabni cheklaydi. Prognozlashtirishda shu cheklovchi omillarning mumkin bo'lgan o'zgarishini hisobga olish kerak. Yana bitta normativ cheklashning o'ziga va uning amalda funkciya qilishga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib chet e'l valyutasining yo'qligi xizmat qilishi mumkin.

Importga bo'lgan talabning kenglik shakli turli tovarlarda turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham importni mayda kategoriyalarga ajratadi: kapital, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar prognoz qilinadigan ko'rsatkichlarni masshtablar o'zgaruvchanligi ishonchliligini oshiradi. bundan kelib chiqqan holda kapital tovarlar importi uni amalga oshiradigan kapital qo'yilmalarga, iste'mol tovarlar importini e'sa shaxsiy iste'molga bog'liq e'kanligini kutish mumkin. Bundan tashqari import bilan raqobatlashuvchi mamlakatlarda ishlab chiqilgan tovarlarning narxlar indeksi importning turli kategoriyalari bo'yicha o'zgarishi mumkin.

Importga bo'lgan talabga daromad va nisbiy narxlardan tashqari boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kreditning mavjudligi bevosita import kreditlar taklif qilinganda importga ta'sir qiladi. Shuningdek, ichki xarajatlar darajasiga ta'sir e'tuvchi boshqa kreditlar orqali bilvosita ta'sir e'tadi. Miqdoriy chegarali va import takliflarining yuqori bo'lishi importga bo'lgan talabni cheklaydi. Prognozlashtirishda shu cheklovchi omillarning mumkin bo'lgan o'zgarishini hisobga olish kerak. Yana bitta normativ cheklashning o'ziga va uning amalda funkciya qilishga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib chet e'l valyutasining yo'qligi xizmat qilishi mumkin.

3.4 E'ksportni tahlil qilish

U yoki bu davlatning e'ksport hajmi o'sha davlatda ishlab chiqariladigan tovarlarning chet e'lga etkazib berish qobiliyati, ya'ni e'ksportni taklif qilishga, shuningdek, chet e'lliklarning shu tovarni sotib olishga bo'lgan ishtiyoqi, e'ksportga bo'lgan talabiga bog'liq.

Qishloq xo'jaligining dastlabki mahsulotlaridek e'ksport moddalarini haqida gap ketganda har qanday davlat, odatda, jahon bozorida aniqlanadigan, belgilanadigan narx bo'yicha tovarlarni etkazib berish imkoniyatiga e'ga bo'lgan hajmdagi tovarlarni sotishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, qurilgan kichkina davlat gipotezasiga to'g'ri keladi. Bu holda e'ksport hajmini davlat ichida shunday xabarlar taklifini aniqlovchi ishlar asosida prognozlashtirish kerak. Umuman, olganda tahlilni 2 bosqichga bo'lish mumkin:

1. Davlat ichida ishlab chiqarishni aniqlovchi omillar tahlili;
2. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi e'ksportga ketishini aniqlash. Ikkala bosqichda ham asosiy rolni narx stimullari o'ynaydi. Ishlab chiqarishga ta'sir e'tuvchi narxlar stimuli, ushbu holatda ichki vakolatdagi mahsulotlar narxi va ishlab chiqarishda ko'rilgan zarar nisbati hisoblanadi. Ishlab chiqarish umumiy hajmining qanday qismi e'ksportga ketishi ichki narx va o'sha tovarning chet e'lda sotilishi mumkin bo'lgan narxi orasidagi nisbat bilan aniqlanadi.

E'ksport taklifining e'mpirik formulasi quyidagi soddalashtirilgan tenglamaga asoslangan bo'lishi mumkin;

$$\frac{X}{P_x} = f \left[\frac{P_x}{P_y}, Y_p, \text{GAP} \right]$$

(+) (+) (-)

Bu erda:

X – e'ksportning milliy valyutadagi qiymati;

R_x – e'ksportning milliy valyutadagi narxi;

P_y – milliy valyutadagi ichki narxlar;

Y_p – e'ksport sektorining ishlab chiqarish quvvati;

GAP - qondirilgan ichki talab.

Nisbiy narxning o'zgarish almashish kurslari, e'ksport soliqlari yoki subsidiyalari va ichki zararlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Almashish kursining pasayishi e'ksport narxining milliy valyutadagi qiymatlari o'sishiga olib keladi va buning natijasida mahsulotni davlat ichkarisida sotilgan qiymatga nisbatan e'ksport foydaliligi o'sadi. Shuningdek, e'ksport subsidiyalari ham ayni ta'sirini ko'rsatadi.

E'ksport sektorining mavjud ishlab chiqarish quvvati e'ksport hajmining o'sishini cheklashi mumkin. Amaliyotda ushbu vaziyatni e'mpirik baholash mashg'ul. Agar e'ksport mahsuloti shuningdek, ichki bozorda ham sotilsa, unda e'ksport hajmiga ushbu davlatdagi talabning ortiqchaligi ta'sir qilishi mumkin. Ishlab chiqarish quvvatining mavjud darajali davrida talab ortiqchaligining pasayishi ishlab chiqaruvchilar uchun ishlab chiqarish rentabelligini ushlab turishda e'ksportga ketadigan mahsulot sotilishining o'stirishiga imkon yaratadi.

E'ksportning ba'zi kategoriyalari uchun e'ksport hajmini talab omillari asosida prognozlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu holda u yoki bu davlatning e'ksport mahsulotiga bo'lgan talabiga o'sha davlatning yirik savdo hamkorlari hisoblanuvchi davlatlardagi daromad darajasi, shuningdek ushbu davlat e'ksportining narxi va e'ksport bozorlariga davlat e'ksportining narxi o'rtasidagi nisbat va ular to'g'risidagi omildan foydalaniladi. E'ksportga bo'lgan talab funkciyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{x}{P_x} = f \left[\frac{WD}{P_w}, \frac{P_x}{P_n} \right],$$

Bu erda:

X – e'ksportning milliy valyutadagi narxi;

WD – milliy valyutada ifodalangan jahon talabi;

Rx – e'ksportning milliy valyutadagi narxi;

Pw – milliy valyutadagi jahon narxlari;

Pn – milliy valyutada ifodalangan e'ksport raqobatlari va import o'rmini bosuvchi talablar narxi.

Yuqorida keltirilgan tenglamada shu narsa ko'rinib turibdiki, e'ksportga bo'lgan talab qisman o'sha davlat mahsulotiga bo'lgan jahon talabi bilan aniqlanadi. Shuningdek, bu o'sha davlat e'ksport mahsulotining qay darajada sotilishi va o'sha bozordagi raqobatchilarning e'ksport narxining o'rtacha tortilganligi o'rtasidagi nisbatga ham bog'liq. Bu o'rtacha tortilgan narx, shuningdek, hamkor davlatlarda import o'rmini bosuvchi tovarning ichki narxlarini ham o'z ichiga olinishi kerak. Talab va nisbiy narxlarning o'zgarishi to'g'risidagi modelni tuzish uchun ma'lum usullar yordamida savdo bo'yicha hamkor davlatlarda daromadlar va narxlar to'g'risidagi ma'lumot kerak bo'ladi.

3.5 Xizmat va transfertlarni tahlil qilish

Umuman olganda xizmat ko'rsatish sohasida debet va kreditlarning asosiy kategoriyalarini savdoda kiritilgan ayni ko'rsatkichlar, ya'ni nisbiy qiymatlar bilan bog'lash mumkin. Lekin bunday yondashuvning samaraliligi xizmat moddalarining ba'zi sohalarga tavsiv e'tuvchi omillari murakkabligi, shuningdek, turli moddalar qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarning yo'qligi sababli chegaralanadi. Shuning uchun, odatda, xizmat ko'rsatish sohasida debet va kreditlarning umumiy prognozlashtrish imkonini beruvchi usullardan foydalaniladi. Xizmat va transport kategoriyasining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashda asosiy omillar orasiga quyidagilar kiradi.

1. YUk va sug'urta debetlari importning transportirovkasi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Kreditlar e'ksportlar bilan shunday holatda

bog'liq bo'ladiki, agar o'sha davlatning transport tashkilotlari e'ksport yuklarini etkazish nuqtasigacha transportirovkasini ta'minlab bersa.

2. Boshqa transport xizmatlari, masalan yo'lovchi tashish va port xizmatlari, shuningdek, tovar savdosi oqimi, turizm darajasi va o'zimizdagi transport tashkilotlarining raqobatbardoshligiga bog'liq.

3. Turizm bilan bog'liq kiritim va to'lovlar foydalarga baholar sharoitidagi raqobatbardoshligiga bog'liq. Turizmdan tushadigan tushumlar, sayyohlar kelayotgan mamlakatning daromad darajasiga bog'liq. Sayyohlarga xizmat ko'rsatishning yaxshilanishi, masalan, xizmat ko'rsatish darajasining oshishi, mehmonxonalardan taklif qilinayotgan xizmat ko'rsatishning oshishi, ma'qul ma'noda uzoq muddatda turizm tushimlariga ta'sir e'tadi.

4. Investiciyadan olinadigan daromadlar. qonun bo'yicha tashqi qarz uchun to'lanadigan foyiz to'lovlari katta debet hisoblanadi. O'tgan va avvalgi chet e'l zayomlari bahosi va hajmi ham shulardan kelib chiqadi. CHet e'l investiciyasi natijasidagi mablag'lar oqimining o'lchanishi bugungi kundagi shunday investiciyalarning umumiy miqdoridan kelib chiqadi. Kreditlarga kelsak mablag' oqimi boshqa davlatlarga berilgan zayomning foyizidan tushadigan tushumlar, shuningdek, chet e'l zahiralarning daromad darajasiga bog'liq.

5. Xususiy bir yoqli transportlarni yirik qismidan biri ko'p hollarda, chet e'ldan xizmat qiluvchi migrantlarning o'tkazilishi hisoblanadi. Xizmat qiluvchi migrantlarning qabul qilinadigan davlatdagi umumiy maoshi va keyinchalik reportaciya qilinadigan summani hisobga olish kerak. Migrantlarga beriladigan maoshning umumiy hajmi ularni qabul qiluvchi davlat iqtisodiy ciklining qaysi bosqichda bo'lishiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin, maoshlarni reportaciya qilishga e'sa kelajakda ari boshlash kursining darajasi va soliq prognozlarini kutishlar, vositalarni reportaciya qiluvchi stimullar ta'sir e'tadi.

6. Rasmiy bir tomonlama transportlarning qiymati boshqa davlatlar hukumati tomonidan aniqlanadi. Prognoz chet e'l transfertlaridan olingan byudjet prognozlariga mos kelishi kerak.

3.6 Kapital operaciya hisobi

Kapitali operatsiyalar hisobining ikki asosiy e'lementi bo'lib, to'g'ri investitsiyalar va portfel investitsiyalar hisoblanadi. To'g'ri investitsiyalar o'lchash kapital qo'yilmalar qo'yish imkoniyatlariga bog'liq. Shuningdek, ko'proq jalb qilish muhitini yaratish uchun aniq normativ bazani mavjudligini va shuningdek makroiqtisodiy turg'unlikni ta'minlashda davlat siyosati kafolatlaridan foydalanish zarur. Portfel investitsiyalar chet e'l investitorlariga solingan qarz majburiyatlari davlat yoki davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan va shuningdek, xususiy sektorning qarz majburiyatlari va aksiyalar operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Rasmiy o'rta va muddatli kapital oqimi prognozlar byudjetida belgilangan va rivojlanish rejasi, shuningdek, kreditorlardan olingan ma'lumotlarga asoslangan. Xususiy kapital oqimini prognozlashtirish qiyinroq, ko'pchilik mamlakatlar uchun xalqaro bank zayomlariga kirish chegaralangan.

Kapital oqimini bozor ta'sirida almashinish holatlarida kapital oqimi yo'lidagi chegaralanishlar kam, ichki va tashqi qimmatli qog'ozlarni joylashtirish imkoniyati, foyizli stavkalar farqi zarur o'rinni tutadi. YA'ni, qonundagidek kapital past foyiz stavkali bozorlardan yuqoriroq stavkali bozorlarga o'tadi. Bundan tashqari uzoq muddatli kapitalni joylashtirish bilan bog'langan tavakkalchilik bahosiga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib, shu davlatdagi siyosiy holat va ijtimoiy sharoit hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakat tashqi pozitsiyasini o'lchash va baxolash – iqtisodiy siyosat qarorlarini qabul qilish jarayonidagi zarur bo'lgan tadbirlardir (bosqichlardir). Tizimli ravishda to'lov balansi ko'rinishiga keltiriladigan mamlakat va tashqi dunyo orasidagi operatsiyalar va moliyaviy oqimlar to'g'risidagi ma'lumotlar mamlakatning tashqi pozitsiyasi (holati) tahlili uchun va tuzatishlar zaruriyati uchun asosni tashkil qiladi.

To'lov balansida moddalarni farqlash uchun yagona o'lchov birligi mavjud e'mas To'lov balansining tor ma'nosi savdo balansi, ya'ni FOV asosida e'kspert va import saldosini ifodalash uchun ishlatiladi. Joriy operatsiyalar hisobining muvozanatsizlashtirilganligi doim ham iqtisodiy

o'zgartirish kiritish e'htiyojini ko'rsatmaydi. Joriy operatsiya xisobi saldosi o'ziga xos tahliliy ahamiyatga e'galigi yana ikkita omil bilan ifodalanadi. Savdo hisobotlarida tovarlarning davlat chegarasi orqali jismoniy harakati, banklar orqali amalga oshirilgan va xizmatlar uchun to'lovlarda valyuta almashuvi bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, bank tizimi orqali daromadlar harakati aks e'tadi. Savdo hisobotlarida tovarlarning jismoniy kuchi qayd qilinadi va shuning uchun bu zahiralarda hajmini o'zgartirishda ularga tuzatishlar kiritish kerak. Kichik davlat gipotezasidan foydalanilganda, chet e'l valyutasidagi import narxi jahon bozorida aniqlanadi va o'sha davlatning boshqaruvi organli tomonidan boshqarilmasligi nazarda tutiladi. Import hajmi haqiqiy daromad yoki haqiqiy ichki xarajatlar oshganda o'sishi mumkin. Importga bo'lgan talabga daromad va nisbiy narxlardan tashqari boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Eksport taklifining empirik formulasi qanday?
2. Import hajmi import narxining o'zgarishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
3. To'lov balansi qanday qismlardan iborat?
4. Importni tahlil qilishda qanday omillarga ahamiyat berish zarur?
5. Kapital oqimini tezligiga qanday omillar ta'sir e'tadi?
6. Eksport hajmi qanday aniqlanadi?
7. xizmat ko'rsatish sohasida qanday usullardan foydalaniladi?
8. Kapitalli operatsiyalar hisobining qanday asosiy elementidan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishidagi nutqi: "Halq so'zi" gazetasi. 12 fevral 2006 y.

2. "Makroiqtisodiy tahlil va siyosat». XVF seminar materiallari. –Vena, 2000.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Departamenti "Milliy xisobot tizimi".
4. G.A.Kutorshevskiy «E'konomika» osnovы, teoriya Uchebnoe posobie izd. «E'konomika» 2004. 382s.
5. Theoretical Aspects of the Design of Fund-Supported Adjustment Programs. A study by the Research Department of the International Monetary Fund, Occasional paper 55, IMF, Washington, D.C., September 1987

E'lektron pochta

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. [http: g'g' www. Review.uz g'homeg' azticle.asp?](http://g'g'www.Review.uz/g'homeg'azticle.asp?)
3. [http: g'g' www. vqi.freenet. g'trudyg'dratisviko.htm](http://g'g'www.vqi.freenet.g'trudyg'dratisviko.htm)
4. [http: g'g' www. Yabloko.rug'themesg'belorusg'belfrus-25.html](http://g'g'www.Yabloko.rug/themesg'belorusg'belfrus-25.html)
5. <http://www.vqi.freenet.lezg'trudyg'bratisvriko.htm>
[www.informika.rug'textg'exhibitg'papersg'2004g'c11-3doc](http://www.informika.rug/textg'exhibitg'papersg'2004g'c11-3doc)

1V BOB. BYUDJET-SOLIQ (FISKAL) SEKTORI

4.1 “Davlat boshqaruv organlari” tushunchasiga izoh

“DMO bo’yicha qo’llanmani”ning boshidayoq davlat boshqaruv organlari funkciyalariga izoh beriladi: imtiyozli bozor xizmatlarni taklif qilish yo’li bilan davlat siyosatini olib borish va daromadlarni, asosan, boshqa sektorga solingan soliq hisobidan qayta taqsimlash.

Davlat sektori, funkciyalari ushbu izohga mos keluvchi tuzilmaviy birliklarni o’z ichiga oladi. Davlat boshqaruv sektorlari quyidagilardan iborat:

- huquqiy jihatdan butun davlat hududida kuchga e’ga bo’lgan markaziy hukumat;

- davlat hududining bir bo’lagida markaziy hukumatga bog’liq bo’lmagan holda vakolatga e’ga bo’lgan shtatlar, viloyatlar, regionlar hokimiyati;

- turli kichik ma’muriy birliklar hududida mustaqil vakolatga e’ga bo’lgan mahalliy boshqaruv organi;

- faqat davlat hududida soliqqa tortish va davlat xarajatlari sohasidagi ba’zi funkciyalarni bajaruvchi har qanday milliy boshqarmalar.

Ijtimoiy ta’minot fondlari, yuqorida izohlangan ko’rinishda davlat sektoriga tegishli bo’ladi Ularga markaziy hokimiyat yoki davlat boshqaruv sektorining alohida sub’ektlari sifatida e’mas, balki bu fondlar amal qiladigan darajadagi davlat boshqaruv organlari sifatida, davlat boshqaruv organlari darajasiga tegishli bo’lgan tashkilotlarga, ularning bir bo’lagi sifatida qaraladi. Bunday tashkilotlarga misol tariqasida davlat boshqaruv organlarining nashriyotchilik xizmatlari, jamoatchilik binolaridagi davlat oshxonalari, shuningdek davlat sektoridagi ishchilarga ijaraga beriladigan turar joylarni olish mumkin.

Davlat tashkilotlari davlat sektoridan alohida qaraladi. Davlat mulki hisoblanuvchi va davlat tomondan boshqaruvchi va davlat

tomonidan boshqariluvchi ishlab chiqarish birliklari va korporaciya hisoblangan yoki davlat sektori tovar va xizmatlarining ma'lum hajmini sotuvchi joriy birliklar, moliyaviy tashkilotlar sektorining davlatga tegishli bo'lgan qismi sifatida qaraladi. bunga misol qilib, milliyashtirilgan yoki davlat tomonidan asos solingan, davlat mulki hisoblangan temir yo'l, aviakompaniyalar, pochta olish mumkin. Joriy, tez va jamg'arish depozitlarini qabul qiluvchi yoki majburiyatlarni to'lovchi va bozorda moliyaviy aktivlarga e'ga bo'luvchi davlatga tegishli bo'lgan yoki davlat tomonidan boshqariladigan moliyaviy muammolar, moliyaviy tashkilotlar sektorining davlatga tegishli qismi sifatida qaraladi. Shu sektorga shartli ravishda davlat boshqaruv organlarining bo'lagi sifatida qaralmaydigan Markaziy Bankni ham kiritish mumkin.

4.2 Davlat boshqaruv organlari (DBO)ning operaciya hisobi

Kassa tamoyili. Davlat Moliya statistikasi ma'lumotlarini to'plash bo'yicha Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ning normalari tomonidan davlat operaciya qayd qilishda kassa tamoyili: tushumlar va to'lovlar to'lov amalga oshirilayotgan paytda qayd qilish kerakligi uchun qo'llaniladi.

Bunday hisob-kitob asosida DBO va iqtisodiyotning qolgan qismi orasidagi fond va resurslar taqriban ifodalangan imkonining mavjudligi yotadi: unga shuningdek, moliyaviy statistikaning boshqa turlari ham bevosita to'g'ri keladi.

Agar qilingan xaridorlar yoki olingan daromad qarz majburiyatlari xarakteriga e'ga bo'lsa, operaciya turli qismlari turli bitimlar sifatida ko'rsatiladi. Masalan, agar davlat belgilangan muddatda qarzni to'lash yoki kelishuv majburiyati asosida naqd pulga sotib olinishi mumkin bo'lgan o'z xaridorlarining qimmatli qog'ozlar bilan moliyalashtirsa, unda bunday operaciya ayni vaqtdagi zayomlar bilan xarajat qilish sifatida o'tkaziladi. Bunday qarz majburiyatining ketidan qarzni to'lash amalga oshiriladi.

Yalpi va sof tushumlar, to'lovlar. Asosiy tamoyil sifatida, tushum va to'lovlarning yalpi summasi ko'rsatilishi kerak

Bu holda statistik ma'lumot milliy daromadni oshirish va uni to'latishning to'liq hajmi va ta'sirini ifoda e'tadi. Masalan, maktablarda o'qishga haq to'lash maktab sinflarining xizmatlariga bo'lgan xarajat qiymatidan amalga oshirilmaydi va unga "salbiy xarajat" sifatida qarolmaydi. Shuningdek, soliqni to'lash xarajatlari "salbiy daromad" ko'rinishidagi soliq tushumlaridan olinmaydi.

Idoraviy tashkilotlarning sanoat va savdo faoliyatlari bundan mustasnodir. Ayni paytda idoraviy tashkilotlarning kapitallar operatsiyalari DBOlari operatsiyalarning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Konsolidatsiya. Davlat moliya statistikasi ma'lumotlari tayyorlashda davlat sektori ichidagi birliklararo operatsiyalarni va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan umumiy kategoriyalar qatorida barcha operatsiyalarni birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Asosiy e'tibor, markaziy hokimiyat operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plashga qaratiladi, qaysiki ular hisobot davri tugashi bilan davlat boshqaruv sektorining boshqa subsektorlari operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra etib keladi, shuningdek, ular katta chastotaga e'ga bo'lib, batafsil yoritilgan bo'ladi. Bundan tashqari, markaziy hokimiyat o'zining mohiyati bo'yicha boshqa subsektorlardan ustun turuvchi, soliq-byudjet nuqtai nazaridan qaraganda davlat boshqaruv sektorining e'ng asosiy subsektorlar hisoblanadi.

4.3 Davlat boshqaruv organlari operatsiyalarining tavsiflanishi

Ushbu bo'limda DBO operatsiyalarini tasniflashning nazariy asoslari statistik tizimning asosiy kategoriyalari bo'yicha yoritilgan: daromadlar, olingan transfertlar, xarajatlar, sof kreditlash, minus qarzlar to'lovi va moliyalashtirish.

a) Asosiy chegaralanishlar

To'lov va bir yoqli operatsiyalar. To'lov operatsiyalari o'z ichiga tovar, xizmatlar to'lovi, mulkdan foydalanish yoki unga nisbatan

e'galik huquqning qo'lga kiritish, shuningdek, amaliy xizmatlar to'lovini oladi. Bir yoqli operaciya – masalan, soliq daromadi u yoki bu shakldagi bevosita to'lovsiz to'lov va tushumlarni o'z ichiga oladi.

Joriy va kapital. Kapital tovarlar deb ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan va kelajakdagi daromadlar va joriy iqtisodiy farovonlikka ta'sir ko'rsatuvchi, 1 yildan ortiq xizmat muddatiga e'ga bo'lgan tovarlarga aytiladi.

Moliyaviy aktivlar va passivlar. Bunday chegaralash fiskal hisoblardagi aktiv va passivlar assimetriyasi sababli zarur. Garchi, davlat zayomlari davlat moliyaviy e'htiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa-da, bazi davlat kreditlari, odatda, likvidlikni boshqarish uchun e'mas, balki siyosiy maqsadlarga e'rishish uchun ishlatiladi. Ba'zan DBOlarida moliyaviy aktivlarni likvidlikni boshqarishda ishlatiladi, masalan, “qarzlarni to'lash fondlari” (maxsus zahiralarni) va ijtimoiy ta'minotning ba'zi tizimlarida ishlatilmoqda. Boshqa hollarda DBO moliyaviy aktivlarni maxsus yordamga muhtoj bo'lgan iqtisodiy guruhlariga imtiyozli kreditlar berish bilan bog'liq bo'lgan davlat siyosatini o'tkazish natijasida qo'lga kiritadilar. Ikkala holda ham operaciya o'tkazish DBOlarida davlat sektoridan tashqaridagi iqtisodiy agentlar tomonidan nisbatan mavjud bo'lgan talablar o'zgartiriladi, biroq 2 holda motivlar va operaciyaning moliyaviy sharoitlari bir-biridan tubdan farq qiladi. DBOlari moliyaviy aktivlarni davlat siyosati maqsadlariga e'rishishi uchun e'mas, balki likvidlikni boshqarish maqsadida ishlatmoqchi bo'lganda bu muhim chegaralashni saqlash uchun shu aktivlar bilan bo'ladigan operaciya DBOlarining passivlar bilan bo'ladigan operaciya kategoriyaga kiritildi.

Kassa qoldiq summalarini o'zgartirish. Agar hisob-kitoblar kassa asosida olib borilsa, DBOlarida mavjud bo'lgan pul va depozitlar summalarining hisob davri jarayonidagi o'zgarishi o'sha hisob davri davomidagi barcha davlat tushum va to'lovlari summasiga teng bo'ladi.

b) Daromadlar

Daromadlar o'z ichiga barcha qaytmalar tushumlarni, shuningdek, tovar va xizmatlar to'lovi va bir yoqli tushumlarni oladi, boshqa davlat va xalqaro tashkilotlardan olingan transfertlar bundan mustasnodir. Daromadlar joriy va kapital turlariga bo'linadi. Kapital aktivlarni sotishdan

kelgan tashumlar oxirgilarini o'z ichiga oladi. Joriy daromad, o'z navbatida, barcha soliq tushumlari va noaniq tushumlarni qamrab oladi.

Soliq - bu, DBOlari tomonidan ijtimoiy maqsadlar uchun undiriladigan majburiy bir yoqli va qaytmas to'lovlardir. Soliq daromadlari ma'lum davrda amalga oshirilgan, qayta to'lovdan chegaralangan qismni bildiradi. Soliqlar o'z ichiga ijtimoiy ta'minot tizimiga majburiy to'lovlar, shuningdek, daromad olish uchun davlat huquqining ishlatilishini ifodalovchi DBO tomonidan o'tkazilgan byudjet monopoliyasi daromadlarini oladi, shuningdek alohida tovar va xizmatlarni monopol sotish yo'li bilan olinadigan akciz daromadlari "DMS" rahbariyatga keladigan soliq tushumi, bazaga bog'liq holda olinadigan soliq yoki majburiyatni keltiruvchi faoliyat turiga bog'liq holda 7 ta asosiy kategoriyaga bo'linadi.

Noaniq tushumlar o'z ichiga shaxsiy mulkdan keladigan daromadlar, turli yig'imlar, sanoat savdolari, shuningdek, idoraviy tashkilotlarning operaciyaon foydalarini oladi. O'rtacha ba'zi bir yoqli tushumlar, masalan, jarimalar ham kiradi. Kapital daromad o'z ichiga DBOlari tomonidan sotilgan kapital aktivlari, strategik zahira, er va nomoddiy aktivlarni oladi.

v) Olingan transfertlar

Olingan transfertlar bir yoqli, qaytarilmas, DBO va xalqaro tashkilotlardan nomajburiy tushumlar sifatida izohlanadi.

Deficit yoki ijobiy saldoning umumiy hajmini aniqlash uchun "DMS rahbariyatiga" muvofiq, olingan transfertlar daromadlar bilan bitta guruhga kiritiladi, chunki bu operaciyaon deficitni moliyalashtirmaydi, balki qisqartiradi

g) Davlat xarajatlari va kreditlarning bashorati

E'ndogen omillar davlat xarajatlari, yirik iqtisodiy darajalari kattaligini aniqlovchi hisoblanadi. Davlat xizmatchilari va bandlar, davlat strukturasiidagi bandlar, ayniqsa ish haqi oshishida indekciyalashgan tartib hamda qisman xususiy sektorda ish haqining o'zgarishi. Mahsulot va xizmatlar harakati, xizmatlar narxi oshishida byudjetdagi mavjud chegaralarni hisobga olmoq kerak. Foiz to'lovi ichki va xalqaro foiz stavkasi hamda ichki va tashqi foiz stavkasi, davlat qarzi bilan aniqlanadi.

Qoida bo'yicha, foiz to'lovlarini, belgilangan moliyalashtirish moddalariga ko'ra, ularni joriy yildagi yangi qarzlarni bo'yicha to'lash kerak. Bu ba'zi bir transfertlar bo'yicha (misol uchun, ishsizlik bo'yicha nafaqa) iqtisodiy aktivlik darajasiga, boshqalari esa (misol uchun nafaqa), demografiya omillariga bog'liq. Ba'zi davlatlarda kapital sarmoyalar hajmi mavjud. Tashqi moliyalashtirishga bog'liq.

Shu bilan birga davlat harakatlari ma'lum darajada o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatda aks ettiriladi va bular diskrcion hisoblanadi. Undan tashqari davlat tomonidan davlat xarajatlari miqdori mo'ljallandi. Natijada ba'zi xarajat turlari bo'ladi.

d) Moliyalashtirish

Moliyalashtirish elementlarini prognozlashda asosiy e'tibor 3 ta asosiy komponentga qaratildi.

- Tashqi moliyalashtirish.
- Ichki bankdan tashqaridagi qarz.
- Bank tizimidagi ichki qarzlarni.

Tashqi moliyalashtirish prognoziga kelsak, bu erda asosiy holda qarzlarni qoplanishi kerak.

Shu bilan birga bu ko'rsatkichlar chet e'l kreditlari prognozlarni qoplashdagi yangi kredit va to'lovlarga bog'liq.

Bu ma'lumot prognoz hisobida operaciya kapitalining to'lov balansida aks ettirilgan.

4.4 Davlat daromadlari va transfertlarning tahlili

a) Soliq tushumlari

Soliq turlarini rejalashtirishda soliq bazalari va soliq o'rtasidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish kerak.

Soliq bazasi bu, soliq solinadigan o'lchamdir.

Soliq bazasi turlariga daromadlar, ish haqi va import hajmi kiradi. Soliq turlari – soliq solinadigan bazaga bog'liq ravishda bo'ladi. Har qaysi soliqlar belgilangan tartibda soliq bozoriga mos ravishda bo'lishi shart. Ammo soliq hujjatlarining asosida soliq qonunlari turadi, soliq bazasini

aniqlash murakkab. Soliq stavkalari strukturasi har xil e'lementlar uchun soliq ayrim hollarda qonun asosida ozod qilish.

Soliq bazasi yuzasidan qonun hujjatlari qoidalarini o'zgartirish, ma'lumotlar etarli bo'lmaganda iqtisodiy prognozlar tayyorlashda o'lchamlardan foydalanish mumkin. Soliq bazasi o'lchamdagiga yaqin bo'lishi mumkin. Ushbu o'lchamlardan foydalanishda o'zgaruvchi sonlardan boshqarish uchun mo'ljallangan davlat kreditlari berish mablag' ajratish kategoriyasiga kiritiladi. Deficitning umumiy miqdorini yoki ijobiy saldoni aniqlash uchun "SGF bo'yicha qo'llanma"ga asosan qarz to'lash uchun ushlab qolinadigan kreditlar kategoriyasi mablag' ajratish kategoriyasi bilan e'las, balki xarajatlar kategoriyasi bilan birlashadi.

Bu munosabat davlat boshqaruv idoralarining kreditlar berish va zayomlar olish maqsadlari to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi.

Mablag' ajratish.

Buxgalterlik hisobiga olishda summar tushumlari musbat olingan naqd pullar umumiy to'lovlarga barobar bo'lishi kerak. Musbat naqd pullarni jamg'arish, shuni qayd e'tish kerakki, "umumiy tushumlar" yangi olingan zaymlarni o'z ichiga oladi, "umumiy to'lovlar" e'ski zayomlarning o'zini o'z ichiga oladi. Analiz qilish uchun operatsiyalarning turlarini deficitni miqdorini aniqlaydigan (yoki ijobiy saldoni) deficitga mablag' ajratadigan (yoki ijobiy saldoga) operatsiyalarni turlarini ajratmoq bo'ladi. SGF bo'yicha qo'llanmaydi quyidagi aniqliklar qo'llaniladi:

Deficitni umumiy miqdorini ijobiy saldoning (daromaddan olingan transfertlar) – (xarajatlardan qarzni to'lash uchun ushlab qolinadigan kreditlar). Bu moddalar "chiziq ustida", qolgan moddalar "chiziq ostida" joylashgan, "mablag' ajratish" deb ataladi. Buni quyidagicha yozish ham mumkin: deficitning umumiy miqdori ijobiy saldoning mablag' ajratishning (zayomlari – amortizatsiya) – (naqd pullarning toza ko'payishi).

Davlat tomonidan pulni aylanishga chiqarish va davlat o'ziga shu ko'payish va tez jamg'arma depozitlar bo'yicha mas'uliyatni olishi moliyaviy muassasasining vazifasi deb qaraladi va shu manbalardan har qanday kelayotgan mablag'lar moliyaviy muassasadan tushayotgan bo'lib hisoblanadi.

Davlat boshqaruv idoralarining mablag' ajratishi ichki mablag' ajratishga bo'linadi. Ular rezidentlardan tushadi. Tashqi mablag' ajratishi

rezident e'maslardan olinadi. Keyinchalik bu kategoriyalar qarz oluvchi majburiy turi qarzli vositalar turi bo'yicha klassifikaciyalanadi.

Iqtisodiy va moliyaviy tahlilda, qarz oluvchilar majburiyatlari tasnifi turi ma'qul, chunki bunda qarz oluvchilar majburiyatlari talab guruhga birlashgan iqtisodiy xarakterga e'ga.

Agar u yoki bu qarzli vositalar boshqa moliyaviy dasturlashtirish guruhlanishga kirsa, muayyan imkoniyatlarga e'ga bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

Daromadlar va xarajatlar kategoriyalarining asosiy tasnifi keltirilgan va oddiy umumiy balans tushunchasi muhokama qilinadi. Ikkinchi qismda o'z ichiga davlat jamg'armalari va investiciyalari tushunchalarini, byudjet disbalansini o'lchashning muqobil metodlari va byudjet deficitini moliyalashning muqobil metodlari va ularning makroiqtisodiy oqibatlari hamda soliq byudjet siyosatining barqarorligini oluvchi byudjet soxasini tahlili bilan bog'liq tahliliy xarakterdagi masalalar ko'rib chiqiladi. Davlat tashkilotlari davlat sektoridan alohida qaraladi. Davlat Moliya statistikasi ma'lumotlarini to'plash bo'yicha Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ning normalari tomonidan davlat operaciyalarini qayd qilishda kassa tamoyili: tushumlar va to'lovlar to'lov amalga oshirilayotgan paytda qayd qilish kerakligi uchun qo'llaniladi.

Asosiy tamoyil sifatida, tushum va to'lovlarning yalpi summasi ko'rsatilishi kerak

Davlat moliya statistikasi ma'lumotlari tayyorlashda davlat sektori ichidagi birliklararo operaciyalarni va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan umumiy kategoriyalar qatorida barcha operaciyalarni birlashtirish maqsadga muvofiqdir. To'lov operaciyalari o'z ichiga tovar, xizmatlar to'lovi, mulkdan foydalanish yoki unga nisbatan e'galik huquqning qo'lga kiritish, shuningdek, amaliy xizmatlar to'lovini oladi. . Agar hisob-kitoblar kassa asosida olib borilsa, DBOlarida mavjud bo'lgan pul va depozitlar summasining hisob davri jarayonidagi o'zgarishi o'sha hisob davri davomidagi barcha davlat tushum va to'lovlari summasiga teng bo'ladi.

Daromadlar o'z ichiga barcha qaytmas tushumlar, shuningdek, tovar va xizmatlar to'lovi va bir yoqli tushumlarni oladi, Olingan transfertlar bir yoqli, qaytarilmas, DBO va xalqaro tashkilotlardan nomajburiy tushumlar sifatida izohlanadi.

E'ndogen omillar davlat xarajatlari, yirik iqtisodiy darajalari kattaligini aniqlovchi hisoblanadi. Moliyalashtirish e'lementlarini prognozlashda asosiy e'tibor 3 ta asosiy komponentga qaratildi.

Soliq turlarini rejalashtirishda soliq bazalari va soliq o'rtasidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat boshqaruv organlari tushunchasini izohlang
2. Davlat daromadlari va transfertlari qandaytahlil e'tiladi?
3. Moliyaviy aktivlar va passivlarni chegaralanishi nima uchun kerak?
4. Soliq bazasi nimadan iborat?
5. Kassa tamoyili deganda nima tushuniladi?
6. Konsolidaciya deganda nima tushuniladi?.
7. To'lov operatsiyalari o'z ichiga nimalarni oladi?
8. Daromadlar o'z ichiga nimalarni oladi?
9. Noaniq tushumlar o'z ichiga nimalarni oladi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishidagi nutqi: "Halq so'zi" gazetasi. 12 fevral 2006 y.
2. Fareycheva G.V. Sistema obshchestvennykh potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii M. MGU. TEIS. 2004. 456s
3. Tarassovich L.S, P.I.Grebennikov, A.I.Leusskiy Makroe'konomika Uchebnik 5-e izdanie M. Yurayot 2004g. 654s.

4. G.A. Kutorshevskiy «E'konomika» osnovы, teoriya Uchebnoe posobie izd. «E'konomika» 2004. 382s.
5. Efimova M.R i dr. Praktikum po obshchey teorii statistika M. 2004.
6. «Makroiqtisodiy tahlil va siyosat». XV F seminar materiallari. – Vena, 2000

E'lektron pochta

1. <http://www.vqi.freenet.lezg'trudyg'bratisvriko.htm>
2. <http://g'g'www.Biblio.rkg'encaztag'humanitariang'cicle.htm>
3. <http://g'g'www.vqi.freenet.g'trudyg'dratisviko.htm>
4. <http://www.vqi.freenet.lezg'trudyg'bratisvriko.htm>
www.informika.rug'textg'exhibitg'papersg'2004g'c11-3doc

V BOB. FISKAL HISOBLAR VA ULARNING TAHLILI

5.1 Fiskal hisoblar

“Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma”da davlat boshqaruving bir necha bosqichlari aniqlangan:

1. Markaziy hukumat;
2. Shtatlar yoki mintaqalar darajasidagi organlar;
3. Mahalliy organlar;
4. Millatusti organlar

Ko'pchilik mamlakatlarda davlat boshqaruvi sektoridagi byudjet operaciyalar o'z ichiga kamida davlat byudjetini shakllantiruvchi markaziy hukumatni oladi. Lekin ko'p mamlakatlarda byudjet operaciyalari bilan mahalliy va mintaqaviy organlar ham shug'ullanadi.

“Davlat boshqaruvi sektori” atamasi davlat boshqaruving barcha darajalarini: markaziy hukumat, shtatlar hukumati, viloyat va mahalliy darajadagi organlarini o'z ichiga oladi. Davlat boshqaruv sektori va pul-kredit sektorlarining funkciyalarini bir-biridan ajratib olish uchun davlat moliyasi statistikaning ikkkala ta'rifidan barcha davlat bank va pul-kredit operaciyalari chiqarib tashlangan. Xususan, tashkilotidan qat'iy nazar pul-kredit operaciyalarini o'tkazuvchi pul-kredit organlarining barcha funkciyalari davlat bosharuvi sektoriga e'vas, balki pul-kredit sohasiga kiritiladi. Pul-kredit va soliq-byudjet siyosatlarini bir-biridan ajratish hamda pul-kredit va moliya statistikasining ma'lumotlarini davlat moliyasi statistikasining ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirish uchun bu sohalarning har birining operaciyalari bir-biridan alohida ravishda tahlil qilinishi kerak.

Davlat sektori– bu, davlat boshqaruving sektori keng ma'noda o'z ichiga davlat boshqaruvi sektorini va davlat temir yo'l, avialiniyalar yoki kommunal korxonalar kabi nomoliya davlat korxonalarini oladi. Markaziy hukumatning ayrim daromadlari va harajatlari, odatda, markaziy hukumatning mahalliy va davlat korxonalariga transfertlarni o'z ichiga oladi. Turli darajadagi davlat organlarining jami operaciyalarini

hisoblashda “ikki martalab hisobga olish”ga yo’l qo’ymaslik uchun bunday transfertlarni sof holda ko’rsatish lozim. Turli darajadagi davlat organlarining hisoblarini saldolash va chiqarish jarayoni konsolidaciya deb ataladi.

Har bir darajadagi davlat boshqaruv organlari 3 turdagi operaciyalarni o’tkazishadi: byudjet, nobyudjet, ijtimoiy sug’urtalash fondlari bilan operaciyalar. Ta’rifidan kelib chiqib byudjet operaciyalar byudjet orqali o’tadi. Nobyudjet operaciyalar byudjetdan tashqarida amalga oshib, nobozor tovarlari va xizmatlari ko’rsatishni ko’zlab, majburiy yig’imlar hisobidan mablag’larni undirish bilan bog’liq. Masalan, nobyudjet fond ko’pincha yoqilg’i uchun maxsus soliqlar yig’ish hisobidan yo’l xo’jaligini tutib turishga xarajat qilish uchun foydalanishi mumkin.

Nobyudjet operaciyalarning maxsus kategoriyasiga ijtimoiy sug’urtalash dasturlari kiradi. O’tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda bu dasturlar, odatda, nafaqa fondi, bandlik fondi va ijtimoiy sug’urtalash fondini o’z ichiga olib, ularning mablag’lari hisobidan mehnatga qobiliyatsizlik va ijtimoiy yordam nafaqalari to’lanadi.

Davlat boshqaruv organi sektori qanday aniqlanishidan qat’i nazar, ko’p mamlakatlarda byudjetning haqiqatdagi ijrosi ko’pincha davlat operaciyalarini hisobdagi jidiy kamchiliklarga olib keladi. Ikkita e’ng katta kamchilik nobyudjet hisoblarni aks e’ttirish va milliy valyutadan e’kvivalent hisoblardan foydalanish bilan bog’liq. Qator mamlakatlarda ayniqsa, o’tish iqtisodiyoti sharoitidagi davlatlarda hukumat nobyudjet hisoblaridagi operaciyalarni aks e’ttirib, boshqa hollarda byudjetga kiritilishi kerak e’di. Nobyudjet fondlardan hamma joyda foydalanish (ayniqsa, agar ular byudjet operaciyalari bilan konsolidaciyalanmagan bo’lsa) byudjet sohadagi ishlarning haqiqiy holatini buzib ko’rsatadi, daromadla mablag’larni aniq maqsadga sarflanishi sababli byudjet mablag’laridan e’giluvchan boshqarishni qiyinlashtiradi va e’ng muhimi, bu hisoblarga keluvchi mablag’larni sarflash ustidan nazorat yo’qolishiga olib keladi.

Bu muammoni echish uchun ko’p mamlakatlar nobyudjet hisoblar o’rniga byudjet doirasida alohida hisoblarni yaratishgan.

Bu hukumatga kerakli nazorat va hisoblarni olib borishga hamda bu hisoblarni tekshirishga imkon beradi.

O'tish iqtisodiyoti sharoitidagi ko'pgina mamlakatlarda milliy valyuta e'kvivalentidagi hisoblar byudjet holatini buzib aks e'ttirishini kuchaytiradi. Bu hisoblarda mablag'lar milliy valyuta e'kvivalentidagi xorijiy kreditlar va granitlarda aks e'tadi. Bu mablag'lardan ko'pincha deficitni moliyalash va tashkilotlar hamda korxonalarni kreditlash uchun foydalaniladi.

Bunday kreditlash ko'pincha byudjetda aks e'tmaydi, shu bois parlament nazariga tushmaydi va byudjet umumiy holatini buzib ko'rsatadi hamda foiz stavkalarini subsidiyalashga olib keladi. Bunday e'kvivalent hisoblar nafaqat byudjetda to'liq aks e'tishi kerak, bundan tashqari ularni norentabel korxonalarni imtiyozli kreditlashning ko'rinmas manbalariga aylanishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Davlat korxonalari davlat sektori doirasidan tashqarida deb qaraladi. Tovar va xizmatlarni keng miqyosda iqtisodiyotning boshqa sektorlariga etkazib beruvchi davlatga tegishli ishlab chiqarish bo'linmalari va davlat nazorat qiladigan akcionerlik–sanoat yoki tijorat bo'linmalari tasnifga ko'ra, nomoliya korxonalar sektorining davlat ulushiga tegishli. Bunga davlatning temir yo'llari va avialiniyalari, pochta xizmati va nacionalizatsiya qilingan yoki hukumat asos solgan tarmoqlar misol bo'la oladi. Joriy, muddatli va jamg'arma depozitlarni qabul qiluvchi hamda majburiyatlarni oluvchi yoki bozorda moliyaviy aktivlarni sotib oluvchi davlatning yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan moliyaviy muassasalar tasnifda moliyaviy korxonalar ulushiga kiradi. Markaziy bank ham, an'anaga ko'ra, davlat boshqaruv sektoriga e'las, balki yuqoridagi sektorga taalluqlidir.

Davlat operatsiyalarini o'lchash

DMS me'yorlariga ko'ra, davlat moliyaviy statistikasi doirasidagi operatsiyalar **MILLIY HISOBLASH TIZIMI** tizimiga kiritiluvchi milliy daromad, milliy mahsulot, pul-kredit sohasi va to'lov balansi hisoblari kabi hisoblanish uslubida e'las, balki kassa yoki to'lov tamoyili asosida hisobga olinadi. Olingan mablag'lar va to'lovlar kassa tamoyiliga ko'ra, moliyaviy hisoblanish vaqtida aks e'tilsa, hisoblanish uslubida operatsiyalar

hisoblarda majburiyat yoki talab paydo bo'lganda yoki ular bo'yicha to'lov muddati kelganda aks e'tadi.

Davlat operaciyalarini kassa uslubida aks e'ttirish ularni pul-kredit hisoblari bilan taqqoslash va shu bilan davlat operaciyalarini agregatlashgan pul-kredit ko'rsatkichlariga ta'siri darajasini aniqlashni engillashtiradi. Bu taqqoslash iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan ayniqsa muhimdir, chunki kassa tamoyili (DMS) asosida yozilgan operaciyalar va hisoblanish uslubida aks e'tilgan(pul-kredit hisoblari)lari orasidagi farq to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan qarzdolikni hisobga olish sababli vujudga keladi. Bunday qarzdorlik DBOlari majburiyatlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyatsizligini aks e'ttirib, kassa tamoyili va hisoblanishlar uslubi asosida belgilangan byudjet balansi miqdorlari orasidagi katta farqlarga olib keldi. Hisoblanish uslubida hisoblangan va hukumat tomonidan mablag'larning sof sarflanishini ko'rsatadigan balans davlatning majburiyatlarini (ham ichki, ham tashqi) to'liq aks e'ttiradi, shu vaqtning o'zida kassa tamoyili asosida hisoblangan balans e'sa haqiqatdagi foiz to'lovlarni aks e'ttiradi.

Kassa tamoyili asosida hisoblangan deficit hisoblanish uslubida hisoblangan deficitga ko'ra, kam bo'lgan, hukumat ham foizlarni to'lashda ham boshqa majburiyatlarni qaytarishda qarzdorlikka e'ga.

Davlat moliya statistika tizimi

Davlat moliya statistikasi tizimi (DMS) davlat organlarining milliy va jahon iqtisodiyotining boshqa sektorlari bilan operaciyalarni hamma tomonlama hisobga olish va avvalambor davlat kirimlari, to'lovlari va to'lanmagan majburiyatlarni aniqlash uchun mo'ljallangan. 3.1–rasmda DMS doirasida turli davlat organlari operaciyalarining tasnifi berilgan.

Daromadlar, kirimlar, harajatlar va to'lovlar

Umumdavlat byudjeti holatini va uning makroiqtisodiy sohaga ta'sirini baholash maqsadida mutaxassislar daromadlar va xarajatlarni aniq ajratishi kerak. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, barcha daromadlar kirimdir, lekin barcha kirimlar ham daromad hisoblanmaydi. Majburiyatlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lmagan kirimlar daromad bo'lib hisoblanadi. Hukumat bergan kreditlar hisobidan kirimlar daromad

hisoblanmaydi, chunki bunday kreditlar qaytarilishi kerak. Shuningdek, hamma to'lovlar ham chiqim hisoblanmaydi. Masalan, kreditni qaytarish mablag'larni sarflashga kirmaydi, chunki u kreditni olishdagi majburiyatdan kelib chiqadi, foizlarni to'lash boshqa tomondan xarajatlarning moddasi hisoblanadi.

Yalpi va sof summa

Daromadlar olish va xarajatlarni sarflash bo'yicha davlat operaciyalarni to'liq hajmda statistik ma'lumotlarda aks e'ttirish uchun daromadlar va xarajatlarni hozircha farqlash qabul qilingan.

Masalan, "maktab ta'limi uchun to'lovlar" ta'lim uchun xarajatlarning balanslashtiruvchisi bilan bog'liq xarajatlar soliq tushumlari summasidan "manfiy daromadlar" sifatida ayrimaydi. Kreditlash va qarz olish—bu, qoidadan chetga chiqishdir. Bu holatdagi yagona ahamiyatli miqdor—bu, davlat boshqaruvi organlariga va teskari yo'nalishdagi pul mablag'larining tez harakatidir.

Ikki tomonlama va bir tomonlama operaciyalar

Ikki tomonlama operaciyalarda pullar, tovarlar yoki xizmatlarga almashinib to'lanadigan yoki olinadigan bir tomonlama operaciyalarda to'lovlarni amalga oshirish yoki olish nimadir e'vaziga olish bilan bog'liq e'mas, bir tomonlama operaciyalarga transfertlar va grantlar misol bo'la oladi.

Soliq va soliqsiz tushumlar

Daromadlar grantlardan tashqari barcha qaytarilmaydigan tushumlarni o'z ichiga oladi. Daromadlar joriy mablag'larga va kapital hisobidan tushumlarga (faqat kapital aktivlarni sotishdan daromadlarni o'z ichiga oladi) bo'linadi. Soliq davlat organlari tomonidan olingan va ijtimoiy e'htiyojlarga sarflanadigan majburiy bir tomonlama tushumlardir.


Soliq tushumlariga (ularning sof summasi oldindan ortiqcha to'langanlarni qaytarishni ayiradi) ijtimoiy sug'urtaga majburiy ajratmalar va fiskal monopoliyalarning davlat byudjetiga o'tkazadigan daromadi kiradi. Soliqsiz tushumlarga mulkka e'galikdan daromadlar, to'lovlar va yig'implar, jarimalar va davlat korxonolari foydasidan ae'ratmalarni o'z ichiga oladi.

Beg'araz tushumlar

Beg'araz tushumlarga boshqa mamlakatlar hukumatlari va xalqaro tashkilotlardan tushumlar kiradi. DMS bo'yicha qo'llanmada beg'araz tushumlar moliyalash moddalari kabi e'vas, balki daromadlar guruhiga operaciya sifatida kiritiladi. Lekin byudjet holatini tahlil va prognozlash nuqtai nazaridan beg'araz tushumlarning boshqa daromadlardan keskin farq qilishini tan olish kerak. Ularning miqdori va tushish vaqtini oldindan aytish mumkin e'vasligi tufayli ularni byudjet prognoziga kiritish yoki xarajatlarni to'lash uchun foydalanish byudjet rejalashtirish jarayonini jiddiy izdan chiqarishi va kelajakda byudjetni juda aniqlashtirishni talab qilishi mumkin. Garchand, DMS da beg'araz tushumlarni chiziq ustidan joylashtirilsada, byudjet hisoblarining analitik kesimida ularni moliyalashning bir moddasi sifatida aks e'ttirish maqsadga muvofiqdir.

Rasm.3.1. Davlat boshqaruv organlari operaciya larini tasniflashning tahliliy asosi

tushumlar		to'lovlar	
Joriy	Kapital	Kapital	Joriy
tovar va xizmatlar	tovar va xizmatlar <i>Daromadlar</i>	tovar va xizmatlar	tovar va xizmatlar <i>Xarajatlar</i>
hech narsa	hech narsa	hech narsa	hech narsa

rasmiy olingan transfertlar			
Boshqa sektor majburiyatlari	□□□□□□□□ Likvidlini * boshqarish * maqsadida * olingan *	Da vla t siy os ati ni am alg a os hir ish ma qsa did a oli ng an	Davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida olingan
	Boshqa sektor majburiyatlari	kreditlashtirish minus uni qaytarish	Boshqa sektor majburiyatlari
Davlat boshqaruvi sektori majburiyatlari	***** *****	***** *****	***** ***** * Likvid likni boshqarish maqsadida olingan
Davlat boshqaruvi sektori majburiyatlari			
 Naq...lari qoldig'ining o'zgarishi			

Manba: MVF, «rukovodstvo po statistike gosudarstvenno'x finansov» (Vashington, 1986 god), srt.131.

Davlat organlarini sof kreditlash. Sof kreditlash (kreditlash minus qarz qaytarish) asosan davlat likvidiligini boshqarish maqsadida e' mas, balki asosan davlat siyosati masalalarini echish uchun davlat organlarini kreditlashni o'z ichiga oladi. Bunday kreditlashga fermerlar, talabalar va kichik biznes e'galariga subsidiyalar misol bo'ladi. DMSga ko'ra, sof kreditlash moliyalashga e' mas, balki xarajatlarga kiritiladi. Bu yondashuv hukumatni yo kreditlash yo qarz olishga undaydigan motivlar orasidagi assimetriyani aks e'ttiradi. davlat organlarida mavjud valyuta va uni depozit hisoblarda joylashtirish orasidagi farqning tebranishi va naqd pul qoldiqlarining o'zgarishi sof kreditlash kabi e' mas, balki moliyalash kabi ko'rsatiladi.

Bank kapitalini to'ldirish

Bir qator mamlakatlarda davlatga to'liq yoki qisman tegishli banklar katta zarar ko'rishdi va hozirda kapitalning kamchiligini boshdan kechirishmoqda. Bu mamlakatlarning hukumatlari bu banklarga kapital qo'yish yoki hatto o'ziga ularning qarz majburiyatlarini olishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, DMS tizimi kassa asosida bo'lgani uchun davlatning o'z bo'yniga naqdsiz qarz majburiyatlarini olishi qarz olish vaqtida xarajat hisoblanmaydi. Shu bilan birga, bu qarzni foizlarini to'lash xarajat deb hisoblanib, kechiktirib qarzni naqd to'lovlar bilan qaytarish e'sa manfiy moliyalashga kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, DMS uslubiyatiga ko'ra, byudjet kamomadi miqdoriga faqat olingan qarz bo'yicha foiz to'lovlari ta'sir qiladi.

Xususiyashtirishdan tushumlar.

«Davlat moliya statistika(DMS) bo'yicha qo'llanma»da davlat sektori korxonalari aktivlarining e'galik ulushini sotishdan tushumni manfiy sof kreditlash sifatida ko'rsatish tavsiya e'tilgan. Uni soliqsiz

kapital daromadlar sifatida ko'rsatilgan davlat moddiy aktivlarini sotishdan farqlash lozim.

Bunday yondashuvda, xususiylashtirishdan daromadlar oldin transfertlar yoki kapital qo'yish natijasida sotib olingan korxonalar kapitalidagi hukumatning ulushini sotishdir, deb izohlanadi. Bunday yondashuv byudjet balansini bir martalik yaxshilashni o'tkazishga imkon beradi. Garchand, ushbu tushumlarni chiziq ustida ko'rsatish qabul qilingan bo'lsada, tahlilda bu tushumlarni hukumatning sof moliyaviy pozitsiyasiga ta'sir e'tuvchi operatsiyalar bilan teng darajada chiziq ostida ko'rsatish kerak.

Byudjet kamomadining bir martalik kamayishi kelajakda uni korxonalar ajratayotgan foydadan hukumat daromad olmasligi sababli o'sishi mumkin. Lekin agar hukumat sotuvdan foydani boshqa aktivlarni sotib olishga yoki qarz qaytarishga sarflasa, kelajakdagi kamomad to'liq kompensatsiyalanadi. Bu holda hukumat va xususiy sektor faqatgina aktivlarni almashtirib, real resurslar talabiga ta'sir e'tmaydi. Lekin agar hukumat olgan pullarni- xarajatlarni oshirishga yoki soliqlarni qisqartirishga yoki ikkalasiga sarflasa, aktivlarni sotish yilida kamomad o'zgarmaydi, balki kelajakda u ko'payadi va shu yo'l bilan xususiylashtirish byudjet holatiga ta'sir e'tadi. Oxirgi yillarda xususiylashtirish natijasida katta foyda olingan Buyuk Britaniyada byudjet kamomadini hisoblashda makroiqtisodiy hisoblar 2 variantda- bu foydani ko'rsatib va ko'rsatmasdan hisoblanadi. Bu yondashuvning foydasi shundaki, u hisoblar tahlilini engillashtiradi, chunki xususiylashtirishdan daromadlar aktivlarning almashinishi kabi ko'rib chiqiladi.

Markaziy bank foydasi

Amalda hukumatga beriladigan markaziy bankning foydasi daromad hisoblanadi. Bunda shuni aytib o'tish kerakki, bu summaga oltin valyuta avuarlarni qayta baholashdan foyda kiritilmaydi. Bundan tashqari u markaziy bankning ayrim operatsiyalarini (masalan, oltin yoki valyutani sotish) e'tmas, balki barcha bitimlarni aks e'tishi kerak.

Daromadlar va xarajatlarning tasniflanishi

DBO amalga oshiradigan operatsiyalar 2 kategoriyaga tasniflanadi: daromadlar va xarajatlar. Asosiy tasniflash yalpi, joriy, kapital xarajatlar va daromadlarni aks e'ttiradi va iqtisodiy xarakterga e'ga. Bu kategoriyalarning ichida soliqlar soliqqa tortiladigan faoliyat turi bo'yicha, xarajatlar e'sa sarflanish maqsadiga ko'ra tasniflanadi. Masalan, mudofaa va ta'limga xarajatlar. Byudjet tahlili uchun byudjet operatsiyalarini standart analogik iqtisodiy tasnifi muhimroq ahamiyatga e'ga.

5.2 Fiskal balans

Agar DBO operatsiyalarini naqd pul nuqtai nazaridan qaralsa, yalpi tushumlar doim yalpi to'lovlarga tengdir.

Shu sababli davlat organlarining byudjet hisoblari har doim balanslashgandir. Lekin tahlil va qaror qabul qilishdan kelib chiqib, bir tomondan tushumlar va davlat organlarining grantlari orasidagi farqqa, boshqa tomondan sof kreditlash bilan birga ularning e'tiborini qaratmoq maqsadga muvofiqdir. DMSda byudjet balansining an'anaviy ta'rifi bu tamoyildan kelib chiqib, balansni yalpi daromadlar va yalpi xarajatlar orasida farq kabi qaraydi.

Umumiy kamomadlarning (daromad Qolingan transfertlar)-(xarajatlar +kreditlar-qarzni musbat qaytarilishi) saldosi.

Bu moddalar "chiziq ustida" joylashgan, "chiziq ostida" joylashgan qolgan moddalar moliyasi deb ataladi.

Boshqacha qilib buni shunday yozish mumkin:

Kamomadning umumiy hajmlari musbat saldoni moliyalashning – naqd pulning sof ko'payishi.

Shunday qilib, davlat organining byudjet kamomadi daromadlar va grantlar hisobidan tushumlardan oshuvchi xarajatlar va sof kreditlashning qismidir. Davlat organi kamomadni qarz olib va yoki o'z likvid mablag'larini sarflab qoplaydi. Byudjet balansining bunday an'anaviy ta'rifi byudjet tahlilida juda muhim. Chunki u umuman olganda davlat organining moliyaviy holati va hatto bu pul–kredit sohasida, ichki talabda va to'lov balansida qanday aks e'tishi to'g'risida to'liq tushuncha beradi.

Soliq tushumlari

Oborotdan soliqlar -QQS; akciz soliqlari; daromad soliqlari; korporაციyalarining daromad soliqlari; shaxsiy daromad soliqlari; ijtimoiy sug'urta va nafaqaga soliqlar; tashqi savdo soliqlari, boshqa soliq tushumlari.

Soliqsiz tushumlar

Licenziyalar, yig'imler va boshqalar. Markaziy bank foydasidan ajratmalar.

Transfertlar

Xarajatlar va sof kreditlash; joriy xarajatlar; ish haqi; tovarlar va xizmatlar; foiz to'lovlari; tashqi foiz to'lovlari; ichki foiz to'lovlari; nafaqalar; transfertlar; subsidiyalar; boshqa xarajatlar.

Kapital qo'yilmalar. Sof kreditlash

YAngi siyosat doirasidagi kreditlar (maslan, dehqon xo'jaliklarini va davlat korxonalarini subsidiyalash); qarz qaytarish hisobidan to'lovlar.

Umumiy saldoning (daromadlar va transfertlar)- xarajatlar va sof kreditlash.

Tashqi moliyalash, YAngi qarz olish

Qarz qaytarish hisobidan to'lovlar. Ichki Bank.

5.3 Byudjet tahlili

Garchand kamomadni aniqlashda DMSda qayd qilingan umumiy kamomad tushunchasidan foydalanilsada, byudjet balansini o'lchashning yagona, e'ng yaxshi usuli mavjud e'mas. Maqsadga qarab va turli tahliliy me'zonlardan kelib chiqib, balansni aniqlashning boshqa koncepciyalaridan ham foydalanish mumkin. Byudjet holatining umumiy ko'rsatkichlari sifatida ko'pincha kamomad yoki musbat saldoning YAMMga nisbati olinadi va u byudjet sohasidagi holatni aniqlashning umum qabul qilingan usulidir. Lekin, hatto, bu an'anaviy usul qator boshqa o'lchov yoki bu bo'limda aytiladigan hamma o'lchovlar bilan to'ldirilishi

mumkin. Yalpi o'lovlar soliq-byudjet siyosatining soliq solish va xarajatlar kabi tarkibiy jihatlarni hisobga olishi kerak.

Balansning kerakli ta'rifini tanlash qator omillarga asoslanadi:

1. Disbalans turi;
2. Qamrab olish darajasi (markaziy hukumat, davlat boshqaruvi sektori yoki davlat sektori);
3. Buxgalteriya hisobining uslubi (kassa tamoyili yoki hisoblanish uslubi);
4. Boshqa shartning holati.

3.3- rasmda qisqa shaklda tegishli omillar va byudjet balansining baholashdagi e'htimolli tahliliy farqlar ko'rsatilgan. Quyida byudjet balansini o'lchashning turli usullari ko'rib chiqilgan.

Davlat sektorini qarz mablag'lariga e'xtiyojini aniqlash byudjet balansini butun davlat sektori uchun an'anaviy uslubidir. U byudjet balansining e'ng keng qamrovli standart ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi, chunki butun davlat sektorining moliyaviy resurslarga talabini o'z ichiga oladi. Umumiy balans tushunchasidan davlat boshqaruving har qanday darajasida foydalanish mumkin. Markaziy hukumatning va davlat boshqaruvi sektorining qarz olishga e'htiyoji butun davlat sektori e'htiyojining tarkibiy qismidir, ularni e'sa davlat boshqaruvi sektori va davlat korxonalari sektori qarz olishga e'htiyojidan va tegishli ravishda sektorlar orasidagi transfertlarni saldolab aniqlash mumkin.

Byudjetning joriy balansi (joriy operaciyalar hisobi bo'yicha balans) joriy daromadlar va joriy xarajatlar orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichga ko'pincha davlat jamg'armalarini aniqlash va demak, davlatning yalpi milliy jamg'armalaridagi ulushining ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Uni quyidagicha yozish mumkin:

Joriy byudjet yalpi xarajatlari + davlat jamgarmalari + yalpi joriy daromad.

Lekin bu tushunchadan byudjetning amaliy tahlili davomida foydalanish qator cheklashlar bilan bog'liq. Bu tushuncha bir tomondan kapital va boshqa tomondan joriy daromadlar va xarajatlar orasidagi chegaralashga asoslangan. Kapital xarajatlar ishlab chiqarishda bir yildan ko'proq foydalanish ko'zlangan aktivlarni sotib olish va kapital tansfertlarni o'z ichiga oladi, qolgan xarajatlar joriy deb tasniflanadi. Bu farq

xarajatlarni joriy va kapitalga an'anaviy tasniflash kabi unchalik asosga e'ga e'mas. Bundan ham muhimi shuki, davlat investiciyalarini qo'llab-quvvatlash kerak, chunki ular iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi degan boshlang'ich qoida ham shubhalidir, chunki turli loyihalarni moliyalashga davlat mablag'larini haddan tashqari ko'p isrof qilish bo'yicha misollar ko'p. Bundan tashqari agar asosiy fondlarni yaxshi holatda ushlab turishni o'rniga mablag'lar ishlatilsa, bu oxir oqibat iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasayishiga (o'sishni o'rniga) olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, joriy byudjet balansi ko'rsatkichi birinchi qarashda qulay bo'lib ko'rinsada, u yaxshi indikator bo'lib xizmat qila olmaydi. Bundan tashqari u byudjet sohasidagi holatning ichki va tashqi sektorlardagi makroiqtisodiy balansga ta'sirini tahlil qilishga unchalik yaramaydi.

Birlamchi yoki foizsiz balans ko'rsatkichlaridan foiz to'lovlarni hisobga olmasdan turli bosqichlardagi joriy byudjet siyosati ta'sirini aniqlashga imkon beradi. Ushbu birlamchi balans davlat sof qarzigiga qaysi siyosat ta'sir e'tishini ko'rsatadi va shuning uchun davlat kamomadini bir xil darajada saqlashning muhim indikator bo'lishi mumkin. Uni quyidagicha yozish mumkin:

Asosiy byudjet balansi q an'anaviy balans-to'lash

Kamomad+byudjet kamomadi+musbat foizlar+musbat saldo

Operacion balans- bu an'anaviy balansdan inflyaciya to'g'ri kelgan foiz to'lovlarni ayirib yoki birlamchi balansga foiz to'lovlarning real komponentini qo'shib olinadi.

Garchand, kreditorlar yuqoriroq nominal foiz stavkalar ko'rinishida kompensaciya olishiga qaramay, davlatning qaytarilmagan qarzining real qiymati inflyaciya sababli pasayadi. Ko'pincha pul korrekciyasi deb atalgan bunday kompensaciya kapital uchun foyda e'mas, balki kapitalni qaytarishdir. Boshqacha qilib aytganda, davlat qarzi bo'yicha foiz to'lovlarning bir qismi haqiqatda asosiy summasini qaytarishdir va shuning uchun bu summani chiziq ustidagi foiz to'lovlardan ayirib tashlamasa, kamomadning miqdori oshirib ko'rsatilgan bo'ladi. Operacion balans tushunchasidan foydalanilsa bu muammo paydo bo'lmaydi. Bunday tushunchani qo'llash inflyaciya sur'atlari baland

va katta davlat qarzdorligiga e'ga mamlakatlarda qo'llash ayniqsa muhimdir, chunki bu indikatorlar har yil uchun byudjet siyosatini davlat qarzining real miqdoriga ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Inflyatsiya sharoitida real davlat qarzining dinamikasi nominal davlat qarzi dinamikasiga ko'ra byudjet siyosatining istiqbollarini belgilash uchun aniqroq indikatordir. Inflyatsiya yuqori sur'atli mamlakatlarda an'anaviy va operacion balans ko'rsatkichlari orasida katta farq paydo bo'lishi, bu ikki ko'rsatkich o'zgarishining tendenciyalari e'sa keskin farqlanishi mumkin.

Bu o'zaro munosabatni quyidagicha yozish mumkin:

Operacion q an'anaviy- kamomadq inflyacion komponenti yoki operacionqasosiy+ kamomadning haqiqiy komponenti/kamomad/foiz tulovlari Saldoqsaldo

5.4. Davlat moliya statistikasi: ma'lumotlarni taqdim e'tish tamoyillari

Ushbu bobda statistik tahlil mohiyati hisoblanuvchi davlat sektorining turli xildagi faoliyati, shuningdek, o'sha faoliyatning turli jihatlarini hisobga olish uslublari ko'rib chiqiladi. Unda shuningdek, davlat operatsiyalarini asosiy kategoriyalar bo'yicha tasniflanishning nazariy asoslari yoritilgan.

Statistika nuqtai nazaridan qaraganda bozor iqtisodiyoti uchun xos xususiyat, firmalar va uy xo'jaliklari ishtirokidagi operatsiyalar hisoblanadi, davlat sektorining iqtisodiy operatsiyalari e'sa bundan mustasnodir. Odatda, davlat sektorining xizmatlari raqobatchi narxlar bo'yicha sotilmaydi. MILLIY HISOBLASH TIZIMI da ham, DSHI boshqaruvida ham davlat sektori mahsulotining narxi bir qancha xarajatlar qiymati, ya'ni ishlatilgan, kiritiladigan barcha resurslarning umumiy qiymati bo'yicha aniqlanadi. Xarajat qiymati bo'yicha ma'lumotlar, odatda, kiritiladigan resurslarning, muhokama uchunqobil qo'llash paytidagi qiymatini ifoda e'tadi. Ishchilar davlat sektorida ishlashni xohlamaydilar, agar undagi ish haqi xususiy sektor tashkilotlari taklif qilayotgan ish haqidan past bo'lsa. Shu ma'noda, garchi, davlat sektori tovar va xizmatlari qiymati xarajatlarining buxgalteriya qiymatiga asoslangan bo'lsa-da, u bozor qiymati bilan bog'liq.

5.5 Kamomadni moliyalash

Davlat kamomadining makroiqtisodiy ta'siri asosan kamomadni moliyalashning xarakteriga bog'liq. Bo'limda ko'rsatilganidek, kamomadni qarz olishning quyidagi to'rt manбайдan moliyalash mumkin:

1. Markaziy bankdan qarz olish yoki kamomadni e'mission moliyalash;
2. Pulni bank sektoridan qarzga olish;
3. Milliy nobank sektordan qarz olish;
4. Tashqi qarz olish yoki valyuta zahiralardan foydalanish.

Umuman olganda, moliyalashning bu usullaridan har biri jidiy makroiqtisodiy disbalansni chaqiradi. Inflyaciyaning kuchaytiruvchi ortiqcha pul massasining paydo bo'lishi; tashqi qarz muammosining keskinlashuvi haddan ortiq tashqi qarz olish; valyuta inqiroziga olib keluvchi valyuta zahiralarning kamayib ketishi; real foiz stavkalarini oshirib yuboruvchi haddan ortiqcha ichki qarz olish va e'htimol foiz to'lovlar, kamomad va qarzning o'zaro ta'sir dinamikasi sababli davlat qarzining keskin o'sishi. Lekin moliyalashning bu muqobil usullari va ularning oqibatlarini orasidagi o'zaro aloqa juda murakkab bo'lishi mumkin.

Markaziy bankdan qarz olish (kamomadni e'mission moliyalash). Markaziy bankdan qarz olish quvvati oshirilgan pullarni yaratish bilan teng. Agar pul e'missiyasining sur'atlari joriy narxlar darajasidagi pulga talabdan ortiqcha bo'lsa, naqd pulning ortiqcha qoldiqlari paydo bo'lib, bu narxlar darajasini ko'taradi. O'tish iqtisodiyoti sharoitidagi ko'pgina mamlakatlarda davlat kamomadining kattagina foizi naqd pulga aylantiriladi va inflyaciyaning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Hukumatning real resurslarni pul e'missiyasi yo'li bilan nazorat qila olish qobiliyatini ayrim vaqtda e'mission daromad deb ataladi. Mohiyatan e'mission daromad "inflyacion soliq" bilan uzviy bog'liq. Aholining real pul qoldiqlariga o'zgarish talabida e'mission daromad amalda inflyacion soliqqa tengdir.

Boshqa sektorlar to'laydigan inflyacion soliq hukumat yig'ib olganidan ko'ra ko'pdir. Boshqacha aytganda, kamomadni inflyacion soliq hisobidan qoplash davlat siyosati natijasida boshqa sektorlar

qiladigan xarajatlar real resurslardan ko'proqdir. Hukumat xarajatlarni boshqa sektorlardan soliq tushumlarni oshirib, qarz olib yoki pul e'missiyasi bilan moliyalashi mumkin. Pul e'missiyasidan olingan daromad e'mission daromad deb ataladi. Bu daromadni davlatning mamlakatni almashmaydigan qog'oz pullar bilan ta'minlashning monopol huquqi natijasida olish mumkindir. Davlat pulni chiqarishga ozgina xarajat qilib, quyidagilarni oladi: qog'oz kupyuraning nominal qiymatiga teng resurslarni olib, u mamlakatni pul bilan ta'minlabgina daromad oladi. Hozirgi sharoitda banklar ham pulni yaratish va demak, e'mission daromad olish imkoniyatiga e'ga.

Shunday qilib, e'mission daromadni mamlakatdagi pul e'mitentlari oladigan real resurslarning yalpi miqdori deb ta'riflash mumkin.

Shunday qilib, e'mission daromadni narxlar darajasi (R) orqali ifodalangan boshqa sektorlardagi pul qoldiqlarining o'zgarishi (M) sifatida yoki nominallar hajmi o'sishining sur'ati sifatida ko'rsatish mumkin.

Sof e'mission daromadning komponenti naqd pullar real qoldiqlari summasining o'zgarishidir. U real iqtisodiy o'sish yoki pulga talabning ijobiy o'zgarishida paydo bo'ladi.

Inflyacion soliqning komponenti ushbu holda soliq solish stavkasiga teng bo'lgan inflyaciya sur'atini boshqa sektorlardagi naqd pulning real hajmiga ko'paytmasiga teng. Inflyaciya bo'lmaganda inflyacion daromad oldingidek kelaveradi, agar naqd pullarning real qoldiqlari o'sishni to'xtatmasa, albatta.

Inflyaciya sur'atlari jadallashgan sari naqd pulning real qoldiqlariga talab kamayadi, chunki boshqa sektorlar yuqori inflyaciyaga moslashadi, shu jumladan, ular yuqori soliqlarga tortiladigan milliy valyutani xorijiy valyutaga amashtiradi.

Inflyaciyaning baland sur'atlari sharoitida naqd pullarning real qoldiqlari kamaishi inflyacion soliq solish bazasi qisqarishiga teng. Soliqqa tortish bazasining bunday qisqarishi shuni bildiradiki, agar hukumat o'sha daromadni olishi uchun inflyaciya sur'ati- soliq sur'ati oshishi kerak.

E'mission daromaddan tushumni to'ntarilgan "U"simon e'gri chiziq sifatida tasvirlash mumkin. Inflyaciya o'sishi bilan e'mission daromad ham o'sadi, lekin ma'lum nuqtada u maksimumga e'rishadi va

bundan so'ng inflyaciyaning o'sishi daromadlarning kamayishiga olib keladi.

Sanoati rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarda e'mission daromadning hajmi YAIMning 1,2 foizi atrofida tebransa, ayrim rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi ayrim mamlakatlarda maksimum YAIMning 5-10%i atrofida o'zgaradi.

Markaziy bankdan qarz olishdan farqli ravishda depozit banklaridan qarz olish quvvati oshirilgan pullarni yaratishga o'zidan-o'zi olib kelmaydi. Depozit banklarning kredit resurslariga bo'lgan qo'shimcha talabi Markaziy bank tomonidan qo'shimcha zahiralar berilib, qondiriladi va bu Markaziy bankdan kredit olishga tengdir. Lekin Markaziy bank kreditlarga qo'shimcha talabini qondirishdan bosh tortsa, depozit banklar davlat kreditlariga yuqori talabni qondirish uchun xususiy sektorni kreditlashni qisqartirishga majbur bo'lishadi. Bu hodisa xususiy sektor xarajatlarini siqib chiqarishi kabi ma'lum va asosan foiz stavkalari oshishidan kelib chiqadi.

Bank bo'lmagan muassasalardan qarz olish. Ichki qarz majburiyatlarini chiqarish kamomadni noe'mission moliyalashning usullaridan biridir. Bank bo'lmagan muassasalardan qarz olish davlatga qisqa muddatda kamomadni saqlab turishga imkon beradi, lekin pul bazasi yoki xalqaro zahiralar oshadi. Shu sababli ushbu usul nafaqat inflyaciyaning, balki tashqi sektorda inqirozning oldini oluvchi hisoblanadi. Lekin agar bank bo'lmagan muassasalardan qarz olishdan ko'p foydalanilsa, bu yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, kamomadni uzoq muddatli davlat obligაციyalari chiqarib moliyalash inflyaciya xavfini kechiktirsada, davlat qarzining miqdori kamaymasa, u kelajakda inflyaciyaning yanada yuqori sur'atlariga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan bank kreditlari kabi bevosita aholidan qarz olish pullarni xususiy sektordan siqib chiqaradi va foiz stavksining o'sishiga olib keladi. Shuningdek, bu yuqori foiz stavkalari bo'yicha xarajatlarning oshishiga sabab bo'ladi va shu bilan kelajakda davlat byudjet kamomadini yanada oshiradi. Real foiz stavkalari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan oshganda qarzni qaytarish bo'yicha xarajatlarni to'xtovsiz o'sishi kuzatilishi mumkin va buning natijasida davlat qarzi ancha davrgacha o'sha darajada saqlanib qoladi.

Inflyaciya sur'atlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda davlatning uzoq muddatli qarz majburiyatlari qiymati tez pasayadi va bunday vositalarga ixtiyoriy talab past darajada bo'ladi. Hukumat ko'pincha majburlash choralari (bevosita va bilvosita) ko'rib banklar va hatto aholini shunday majburiyatlarni sotib olishga majburlamaydi. Lekin bunday harakatlar yoki o'tmishda bo'lib o'tgan shu yo'l bilan aholi pulini musodara e'tish davlatga ishonch ancha yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda, davlat noinflyacion makroiqtisodiy siyosat va moliyaviy barqarorlashuvni amalga oshirish asosida bu ishonchni tiklashga asta-sekin e'rishishi kerak.

Tashqi qarz olish. Davlat tashqi kamomadini norezidentlar xarid qilishi uchun uzoq muddatli qarz majburiyatlarini e'missiya yo'li bilan yoki o'z valyuta zahiralari ishlatib qoplashi mumkin. Lekin zahiralari hisobidan kamomadni moliyalashning imkoniyatlari cheklangan. Agar xususiy sektor bu chegaraga yaqin qolganini sezib qolsa, bu kapital oqib ketishini va almashinuv kursi pasayishini chaqirishi mumkin, bu e'sa inflyaciya kuchayishiga olib keladi. 80–yillarda Meksikaning o'z qarzini qaytarish atrofidagi inqirozi mamlakat 1982 yil avgustida deyarli barcha valyuta zahiralari sarflab bo'lgach, sodir bo'ldi. Bu hol 80–yillarning boshida moliyalashning imkoni yo'q bo'lgan yirik byudjet kamomadi natijasida kelib chiqqan byudjet ustidan nazorat yo'qotilgach, vujudga keldi.

Kamomadni tashqaridan qarz olish va valyuta sarflash hisobidan qoplash avval milliy valyuta kursining oshishiga olib keladi, bu e'ksport sektorning raqobatbardoshligiga rahna soladi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning o'tmishdagi juda katta qarzdorligi va past kredit qobiliyati bugungi kunda ularni moliyalash manbalarini topish imkoniyatlarini jiddiy cheklaydi. Lekin, hatto, tijorat manbalardan xorijiy kreditlar mavjud bo'lganda ham, ular uchun foiz stavkalari juda baland bo'lgan.

Byudjet hisoblaridagi qoldiqlarni hisoblash uchun hisoblanish usulidan foydalanilsa, moliyalashning yana bir manbai–muddati o'tgan qarzarlar paydo bo'ladi. O'tish iqtisodiyotidagi ko'pgina mamlakatlarda davlatda to'lovlar bo'yicha katta qarzdorlik paydo bo'ldi, natijada kassa asosida aniqlangan kamomad hajmi hisoblanish usulida aniqlangan kamomaddan kam bo'lgan.

Davlat muddati o'tgan qarzni qaytargach, hisoblanish usulida aniqlangan kamomad kassa tamoyili asosida aniqlangan kamomaddan ko'p bo'lib qoladi.

Muddati o'tgan qarzdorlik kamomadni moliyalashning majburlovchi usulidir. Shuning uchun imkoni boricha bunday qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun harakat qilish mumkin.

Xarajatlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik. Hukumatning mol etkazib beruvchilarga yoki kreditorlarga to'lovlari kechikishini ko'rsatuvchi xarajatlar bo'yicha muddati o'tgan davlat qarzdorligi o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi ko'rpina mamlakatlarda soliq-byudjet siyosatining jiddiy muammosiga aylangan. Muddati o'tgan qarzdorlik xarajatlarni va mamlakat oldida turgan byudjet muammosini kamaytirib ko'rsatadi. Bunday muddati o'tgan qarzdorlik kamomadni moliyalashning majburlovchi usullaridan biridir; bundan tashqari bunda davlatning qarz olishdagi e'htiyojlari kamaytirilib ko'rsatiladi va bu mamlakatdagi kredit e'missiyasining manbalarini buzib ko'rsatadi. Garchand, kamomadni moliyalash davlatga ko'proq milliy resurslardan foydalanishga imkon bersada, lekin boshlang'ich samara ishlab chiqaruvchilarning narxlari oshishi yoki soliq va yig'imlar tushumidagi kechikish hisobidan yo'qqa chiqariladi. Xarajatlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik oxir-oqibat davlat organlariga xizmat ko'rsatishning qiymati oshishiga olib keladi. Muddati o'tgan xarajatlar bo'yicha davlat qarzdorligining to'planishi aholining davlat moliya tizimiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir qiladi. Xususiyy iste'molchilar va investorlar o'rta muddatli kelajakda soliq stavkalari, inflyatsiya sur'atlari o'sishidan va umuman olganda, mamlakatdagi moliyaviy holatning yomonlashuvidan qo'rqishadi. Muddati o'tgan davlat qarzdorligining o'sishi natijasida umuman iqtisodiyotda muddati o'tgan qarzdorlikning ko'payishi moliyaviy tizim barqarorlashuviga va iqtisodiy o'sishga juda salbiy ta'sir e'tishi mumkin. Davlat tashkilotlari xodimlariga ish haqini va transfertlarni to'lashning kechikishi yalpi talabga ta'sir e'tishi mumkin, buni byudjet kamomadining jiddiy tahlilida hisobga olish kerak.

Bu juda optimistik daromad kelishining prognozi yoki davlat harajatlarini nazort qilish mexanizmi yo'qligidan kelib chiqadi. Demak,

to'g'ri ishlaydigan g'aznaxona (kaznacheystvo) kechikishning oldini olishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Soliq-byudjet siyosatining barqarorligi. U yoki bu soliq siyosati barqarorligining umum qabul qilingan ta'rifi mavjud e' mas.

Qarz YAIMga nisbati baland bo'lganda foiz stavkalariga bosim beriladi. Bu davlat byudjet kamomadida qarzni qaytarishga imkon beradi, xarajatlar ulushining o'sishiga va shu bilan byudjet sohasida manyovr qilish va e'giluvchan siyosat olib borish imkoniyatini cheklaydi.

Bunda byudjetni saqlab qolishga imkon yo'qligi moliya bozorlari olib boradigan siyosat yaxshi e' masligi bilan izohlanadi. Uni qayta ko'rib chiqish kerakligiga ishonch hosil qilingach, e'rtami-kechmi o'z kutishlarini o'zgartirishadi.

Kutishlar o'zgarishi natijasida davlat o'z qarz majburiyatlarini sotish qiyinlashib boradi va oxiri ularni umuman sota olmaydi. Bozor faoliyatining qatnashchilari keyinchalik YAIMga qarz nisbati qanchalik baland bo'lsa, shunchalik hukumatga byudjetni qisqartirib (ya'ni daromadlarning harajatlar ustidan oshishini ta'minlash), byudjet chegaralanishlari doirasida qolish qiyinlashayotganini sezgach, bu e'mission moliyalash yoki qarzni qaytarishdan voz kechish va to'lov shartlarini ko'rib chiqish xavfini oshiradi.

Ushbu ko'rib chiqilgan masladan shu aniqki, byudjet-soliq siyosatining barqarorligini belgilaydigan yondashuvlardan biri-qarzni YAIMga nisbatan o'sishiga yo'l qo'ymaydigan kursni ishlab chiqish, ya'ni uning doirasida qarzning YAIMga nisbatini o'sish, foiz stavka va inflyatsiya sur'atlariga to'g'ri keladigan darajasida ushlab turishdir. Garchand, ushbu mezonni bu siyosatining barqarorligi indikator sifatida qo'llash mumkin bo'lsa ham, unda ikkita asosiy kamchilik bor. Birinchidan, odatda, iqtisodiy adabiyotlardan qarzning YAIMga optimal yoki to'li nisbatini topish qiyin. Ikkinchidan, qarzning YAIMga barqaror nisbatini ushlab turish aniqlanishi byudjet siyosatiga nisbatan juda qattiq chegaralashlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun to'lov qobiliyati tushunchasidan kelib chiqib, yumshoqroq talab ishlab chiqilgan.

Barqaror byudjet siyosatining muhim qismi hisoblangan to'lov qobiliyati tamoyili qarzni YAIMga nisbati real foiz stavkadan YAIM real

o'sish sur'atlarini chegirib tashlangan miqdoriga qaraganda pastroq sur'atlarda o'sishni talab qiladi. Bunga qarzning nominal miqdori nominal foiz stavkalariga nisbatan sekinroq oshishi kerak degan qoidasi ham tengdir.

Byudjet-soliq siyosatining mustahkamligi, kapitalning sof qiymati, asosiy uzilish va o'rta muddatda soliq uzilishi tushunchalarini o'z ichiga oluvchi qator amaliy indikatorlar ishlab chiqilgan.

Qarzning YAIMga nisbati o'sishi asosan siqib chiqarish va portfel investiciyalar e'ffekti orqali real foiz stavkalariga ta'sir qiladi.

Aniqlik, derektiv organlar davlat qirzi qaysi darajada ro'y berishiga befarq e'mas.

Barqarorlik ko'rsatkichlari quyida keltirilgan byudjet-soliq siyosati barqarorligining indikatorlari to'lov qobiliyatini ta'minlash uchun zarur korrekciyani hamda qarzning YAIMga nisbatini barqarolashtirish maqsadida doimiy korrektirovkaning miqyosini aniqlash uchun kerak. Bunda e'mission daromadning doimiy darajasi hisobga olinmasligi taxmin qilingan.

Kapitalning musbat sof qiymati. Bu nuqtai nazardan davlat organlarining kapitalni musbat sof qiymati qarzni YAIMga nisbatan miqdoriga ko'ra ko'p bo'lmasligi yoki ko'p bo'lishini talab qiladi. Asosiy soliq-byudjet balans-diskontlashgan joriy qiymati qarzning YAIMga nisbatiga teng bo'lsin yoki ko'p bo'lsin. Ushbu scenariy bo'yicha barqaror byudjetni ushlab turish uchun korrektirovkalar qarzning YAIMga boshlang'ich nisbati va asosiy balansning diskontlangan miqdori ayirmasiga teng.

Asosiy uzilish. Asosiy uzilish qarzni YAIMga boshlang'ich nisbati barqarorlashadigan asosiy balansning diskontlashgan miqdoridan haqiqiy asosiy balans ayirmasiga e'kvivalentdir. Musbat uzilish bo'lganda qarzni YAIMga nisbatan barqarorlashtirish uchun byudjet xarjalarini qisqartirish kerak. Bu ko'rsatkich kerakli axborot bo'lishi mumkin, chunki faqat haqiqiy asosiy balansni, qarzning YAIMga boshlang'ich nisbatini, real foiz stavkalarni va o'sish sur'atlarinigina bilish kerak. Ushbu indikator barqaror boshlang'ich qarzda kapitalning musbat sof qiymatini hisoblashga barobardir.

5.6 Daromadlarning tahlili

Daromadlar va daromadlar tushumining o'zgarishi dinamikasini baholash daromadlarning YAIMga nisbatiga va xuddi shunday iqtisodiyotli mamlakatlarda daromadlarning YAIMga nisbati bilan taqqoslashga qaratilishi kerak. Soliqlarni oshirish bilan bog'liq byujet kamomadini qisqartirish zaruratida iqtisodiy xarajatlarni davlat xarajatlarini qisqartirishdagi sarflar bilan taqqoslash lozim. Odatda bu sharoitda ham birinchisini, ham ikkinchisini qisqartirish kerak. Ko'pchilik hukumatlar ham ma'muriy, ham siyosiy nuqtai nazardan amalga oshirish oson bo'lgan daromadlarning qisqa muddatli bir martalik oshirishni ma'qul ko'rishadi. Lekin bunday yondashuv ko'p hollarda qiyinchiliklarga, samarasiz sarflash va soliq tizimlarining faoliyat ko'rsatishida buzilishlarga olib keladi, kerakli daromadlar yig'ilishini ta'minlamaydi va mehnatga, jamg'arishga qiziqishni yo'qotadi hamda shu bilan iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

Soliq tizimi samaradorligini va zarur islohotlarni aniqlashda mutaxassislar e'giluvchanlik va soliqning dinamikligi koefficientlari tushunchalarini qo'llashadi.

Soliqlarning e'giluvchanligi va dinamikligi

Soliq e'lastikligi deb berilgan soliq tizimida (o'zgarimas bo'lib qolgan) soliq tushumlari hajmi nisbiy o'zgarishlarini soliq solish bazasining nisbiy o'zgarishiga bo'linmasiga aytiladi. E'giluvchanlik soliq tizimiga ichki moslashuvchanlikni beradi. E'giluvchanlik koefficientini quyidagicha yozish mumkin:

Солиқтўшум–

ларининг эгалувчанлиги =

Солиқтўшумларининг физузгарши
солиқ тўртини базасининг физузгарши

Agar soliqqa tortish bazasi o'rniga YAIM ko'rsatkichini qo'llasa, YAIMga nisbatan e'giluvchanlik quyidagiga teng:

$$egiluvchanlik = (\Delta GDP) / GDP$$

Bu erda: AT – o'zgarmas soliq tizimida soliq tushumlari; Δ - ko'rsatilgan davrdagi o'zgarishlar.

Agar e'giluvchanlik koefficienti birdan ortiq bo'lsa, soliq tizimi e'giluvchan hisoblanadi, bu e'sa YAIMga nisbatan soliq tushumlari yangi soliqlar kiritmasdan yoki stavkalarni oshirmasdan, ya'ni soliq siyosatida diskreciyaon o'zgarishlarsiz tez ko'payishni bildiradi. E'giluvchanlik- ijobiy holdir va uni davlat xarajatlarining o'sishi YAIMning qo'shimcha o'sishidan oldinga ketish tendenciyasi kuzatilgan mamlakatlarda qo'llab-quvvatlash kerak. Xalq xo'jaligining tez rivojlanayotgan tarmoqlariga soliq solinganda, soliq stavkalari progressiv bo'lganda, ular aniq ob'ektdan e'mas, qiymatdan undirilganda va soliqlarning yig'imi kechikmaganda soliq tizimi YAIMga nisbatan e'giluvchandir. Oxirgi misol inflyaciyaning yuqori sur'atlarida, ayniqsa, muhimdir, chunki soliqlarni hisoblash va ularni yig'ish o'rtasidagi juda katta vaqt uzilishi soliq tushumlarining real qiymati pasayishiga olib keladi.

E'giluvchan soliq tizimi iqtisodiy o'sishga yordam berib, unda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaga va uni tutib turishga xarajatlar oshadi. Agar xarajatlar oshib, daromadlar oshmasa, bu kamomadli moliyalash, tashqi qarz olish (bu e'sa tashqi qarz yukiga salbiy ta'sir qiladi) ichki qarz olishga haddan ortiq suyanishga olib kelishi mumkin. E'lastik soliq tizimi mavjudligida unumdorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va hukumatga ishonch yo'qolishiga olib keladigan rejalashtirilmagan soliqni oshirishga tez-tez murojaaat qilish zarurati, odatda, yo'q bo'ladi.

E'lastiklik koefficientlari nafaqat barcha soliqlarga nisbatan, balki soliq solishning alohida turlari bo'yicha ham hisoblanadi. Masalan, qiymatdan soliq aniq ob'ektga solingan soliqqa nisbatan ancha e'lastikdir. Individual daromad solig'i e'lastik soliqqa yana bir misol bo'la oladi.

Soliqning dinamikligi yig'ilgan soliq YAIMning nisbiy ko'payishiga bo'linmasi kabi aniqlanadi. Soliq tushumining o'zgarishi soliq tizimidagi har qanday o'zgarish, shu jumladan, soliqqa tortish tuzilmasidagi diskrecion

o'zgarishlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Soliq dinamikligi koefficientini algebraik jihatdan quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\text{Dinamiklik} = \frac{\Delta T / T}{\Delta \text{GDP} / \text{GDP}}$$

Dinamiklikda ΔT berilgan davrda soliq tushumlarining o'zgarishini bildirsa, e'lastiklik koefficienti formulasida ΔAT ma'lum davrda soliq tizimidagi o'zgarishlar sxemasini hisobga olib soliq tushumlaridagi o'zgarishlarni aniqlaydi. Agar tizimdagi o'zgarishlar daromadlar oshishiga yordam bersa, dinamiklik e'lastiklikdan yuqori bo'ladi, chunki haqiqiy soliq tushumlari soliq tizimi o'zgarimasdan olingan soliq tushumlaridan ko'p bo'ladi.

Soliq tizimini baholash.

Berilgan mamlakatning soliq tizimini tahlil qiluvchi mutaxassislar o'z oldilarida turgan talablarga qanchalik javob bera olishini hisobga olishi va uni isloh qilishning imkoniyatlarini o'rganishi kerak. Garchand, soliq tizimining asosiy vazifasi daromad olish bo'lsada, u ayrim vaqtlarda boshqa maqsadlarda foydalaniladi, masalan, bozor xo'jalik yuritishning kamchiliklarini tuzatish va daromadlarni qayta taqsimlashga ko'maklashishi uchun. Bu maqsadlarni hisobga olib, mamlakat soliq tizimining samaradorligini baholashning qator me'zonlari ishlab chiqilgan. Biron mamlakatning soliq tizimini tahlil qilishda Tanzi diagnostik testidan foydalanish mumkin. Daromadlarning samaradorligini baholash uchun Tanzi diagnostik testi juda qo'l keladi. Berilgan soliq tizimida "daromadlar tushishining samaradorligi"ni baholash uchun Vito Tanzi 8 ta miqdoriy diagnostik testlarini tavsiya qiladi, shu jumladan:

1. Koncentraciya indeksi. Yalpi daromadning katta qismi soliqlar va soliq stavkalarining nisbatan kam sonida kelib tushadimi?
2. Dispersiya indeksi. Kam tushumli, faqat qiyinchiliklar tug'diruvchi soliqlarning oz miqdorigina mavjudmi(yoki umuman yo'qmi)?
3. E'roziya indeksi. Haqiqiy soliqqa tortish bazalari potentsial bazalarga maksimal to'g'ri keladimi?
4. Yig'ishni kechikishi indeksi. Soliq to'lovchilar soliqlarni kechikmasdan to'laydimi va qancha vaqtda to'laydi?

5. Aniqlik indeksi. Soliq tizimi aniq stavkalariga e'ga e'ng kam sonli soliqlarga asoslanganmi?

6. Ob'ektivlik indeksi. Ko'pchilik soliqlar ob'ektiv belgilanadigan soliqqa tortish bazasidan undiriladimi?

7. Soliq yig'ishda xarajatlarni kamaytirish indeksi. Soliq yig'ishning byudjet xarajtlari minimumga tushirilganmi?

8. Soliq yig'ishning ta'minlanganlik indeksi. Soliqlarning samarador yig'imi to'la ta'minlanganmi?

Bu savollarning barchasiga ijobiy javoblar Tanzi bo'yicha bu mamlakatning soliq tizimi samaradorligi nuqtai nazaridan e'ng yuqori bahoga loyiqligini ko'rsatadi.

Soliq faoliyatining tahlili.

Daromadlarning etarli miqdorini samarali yig'ish har qanday soliq tizimining e'ng muhim vazifasidir. Aniqroq aytganda, soliq tizimining vazifasi – iqtisodiy resurslarni xususiy foydalanuvchilardan davlatga tartibga solib va noinflayacion uzatishdir. Soliq faoliyati nomi bilan ma'lum bo'lgan uslubiyatdan foydalanib, daromadlar yig'ish unumdorligining me'zonini aniqlash mumkin.

Daromadlar olish tizimi unumdorligini baholash asosida yotgan savol shundaki, DBO zarurat tug'lganda daromadlar tushumi darajasini minimal salbiy oqibatlar bilan oshira oladimi? Bu kontaktda soliqlar yig'ish samaradorligining e'ng keng qo'llaniladigan indikator soliq tushumlarining nisbati yoki haqiqiy soliq koe'fficientidir. Hukumatning soliq yig'ish bo'yicha faoliyati umumiy tavsifi uchun turli mamlakatlarda soliqlarning YAIMga nisbati hisoblanadi. Lekin haqiqiy soliq koe'fficientini soliq faoliyatini baholash uchun qo'llash noto'g'ri natijalar berishi mumkin, chunki haqiqiy soliq koe'fficienti uning salohiyatining e'ng mos keluvchi indikator YAIM deb hisoblab, bu mamlakat soliq salohiyatini hisobga olmaydi.

Soliq salohiyati o'rta intensivlikka e'ga soliq bazalardan foydalaniladigan soliq tushumlari darajisidir. Shunday qilib, "soliq faoliyatining koe'ficenti" haqiqatda yig'ib olingan soliqlarning soliq valyutasiga nisbatidir. Soliq salohiyati – aniq ko'rsatkich e'mas, lekin u

umuman olganda soliqqa tortishning samardorligini baholashga imkon beradi. Soliq salohiyati 3 ta asosiy omil bilan aniqlanadi:

- iqtisodiyotning ochiqlik darajasi;
- uning rivojlanish va daromad larajasi;
- daromadlarning tarkibi.

Soliq faoliyatining tahlili soliq yig'ishning samaradorligini baholashga yordam bersada, u kamchiliklarga e'ga e'kani aniq. Bu me'yoriy ko'rsatkich e'mas, chunki soliq faoliyati o'rta darajadan past bo'lgan mamlakatlarda ham, soliq koefficienti milliy afzalliklarni hisobga olish uchun etarlicha bo'lishi mumkin. Soliq faoliyatining tahlili o'z xarakteriga ko'ra, juda statikdir, chunki u bu tahlil vatli xarakterga e'ga hollardan tashqari soliq koefficientlari faoliyatidagi tez o'zgarishlarni hisobga olmaydi. Dinamsika nuqtai nazaridan e'ng maqbul indikator bo'lib soliq tushumlarining YAIMga nisbatan e'lastiklik koefficienti xizmat qiladi.

5.7 Harajatlar tahlili

Davlat harajatlari – bu, tovarlar va xizmatlar, ishlab chiqarish va daromadlar transfertlari bo'yicha davlat organlari faoliyatini moliyalashning sarflaridir. Davlat ikki turdagi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradi: bevosita aholi individual yoki jamoa asosida iste'mol qiladigan tovarlar(masalan, jamoa transporti va milliy bog'lar) va ishlab chiqarish omillaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tovarlar va xizmatlar (masalan, portning sanoat inshootlari). Infratuzilmaga ko'p xarajatlar, shu jumladan yo'llar ikkala kategoriyani o'z ichiga oladi. Ayrim davlat xarajatlari, masalan, nafaqalar va ishsizlik bo'yicha nafaqalar uy xo'jaliklari va tijorat korxonolari uchun bevosita transfertlardir. Keyingi bo'limlarda davlat harajatlarining asosiy kategoriyalari ko'rib chiqiladi, bunda asosiy e'tibor subsidiyalarga, davlatning roliga, davlat xarajatlarining makroiqtisodiy ta'siri hamda makroiqtisodiy makroiqtisodiy nazarlar bilan davlat harajatlari tarkibiy jihatlari orasidagi o'zaro munosabatga qaratiladi.

Davlat xarajatlarini baholashda tegishli tahliliy yondashuvdan foydalanish muhimdir. Ushbu tizimli yondashuv muayyan unsurlardan iborat.

– makroiqtisodiy yondashuvga to'g'ri keladigan yalpi xarajatlar va byudjet balansining darajasi;

– qator tovarlar va xizmatlar etkazib berishda xususiy sektordan racional foydalanish (hatto ijtimoiy tovarlarni etkazib berish, tashqi samarani ta'minlash va aholi ie'timoiy himoyasi tizimidan foydalanuvchilarga nafaqalarni berish bilan bog'liq dasturlarni amalga oshirishga birinchi navbatda davlat moliyalashi zarur bo'lgan hollarda, ya'ni xususiy bozor ta'minlamaydigan yoki etarli darajada ta'minlamaydigan hollarda);

– xarajatlarni ham bir dastur, ham turli dasturlarning o'zaro ta'siri natijasida olingan natijaga ko'ra taqsimlash;

– barcha sektorlar va dasturlar orasida mablag'larni balanslashtirib taqsimlash maqsadida ushbu dasturlar yoki sektorlarga joriy xarajatlarni va kapital qo'yilmalarni batafsil tahlili;

– yalpi xarajatlarni cheklash va sarflanayotgan mablag'larni samarador hamda adolatli taqsimlash uchun byudjet tashkilotlarini stimullar va yo'riqnomalarni qo'llab batafsil tahlil qilish.

Xarajatlar strategiyasi korrektirovkalari ko'pincha byudjetni anchaga qisqartirishni talab qiladi. Amalda soliq stavkasini oshirish bilan bog'liq salbiy oqibatlar va daromadlarning boshqa manbalari yo'qligi byudjetni asosan xarajatlarni qisqartirish hisobiga kamaytirishga majbur qilishi mumkin.

Davlat xarajatlarining turlari.

Davlat xarajatlarining asosiy kategoriyalari ish haqini, tovarlar va xizmatlarni, subsidiyalarni, transfertlarni, foiz to'lovlarni va kapital qo'yilmalarni o'z ichiga oladi. Davlatning davlat tashkilotlarida mehnat va ish haqiga yondashuvi davlat xarajatlarining samaradorligiga katta ta'sir qiladi. Okladning past stavkalari va malakaviy hamda texnik xodimlarning shkalalari ko'p farqlanmasligi ishga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi va davlat xizmatchilarining past mehnat unumdorligiga olib keladi. Boshqa

tomondan davlat sektoridan oxirgi instanciya ish beruvchisi sifatida foydalanish ish haqi foizi bo'yicha xarajatlarning anchaga oshishiga olib keladi. Ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlar ish haqi fondini qator choratadbirlar o'tqazish bilan qisqartirishga yo'naltirilgan, jumladan, davlat xizmatchilarini ro'yxatdan o'tkazish va "yolg'ondakam ishlaydiganlar"ni yo'qotish, vakansiyalar va vaqtinchalik ish o'rinlarini yo'qotish; kafolatlangan ishga joylashishni bekor qilish; nafaqaga ixtiyoriy ketish, ish haqini qisqartirish, ish haqining yuqori chegarasini belgilash va uni muzlatish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish va e'ng oxirgisi- ishdan bo'shatish. Qator mamlakatlarda okladlarni rahbarlar foydasiga differenciallashga urinishlar bo'ldi.

5.8 Davlat xarajatlarining makroiqtisodiy oqibatlari

Tovarlar va xizmatlar. Ko'p mamlakatlarda joriy xarajatlarning katta qismi DBOlarning ma'muriy va qo'shimcha xarajatlari bilan bog'liq. Garchand, xarajatlarning bu kategoriyasida anchagina mablag'larni tejashga e'rishish mumkin bo'lsada, beriladigan tovarlar va xizmatlar miqdorining qisqarishi hukumat etkazib beradigan xizmatlar samaradorligiga salbiy ta'sir e'tishi mumkin. Tovarlar va xizmatlarga xarajatlarning katta qismi asosiy fondlarning faoliyat ko'rsatishi va ularga xizmat ko'rsatishga sarflanadi. Joriy faoliyatni etarli darajada moliyalamaslik ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarda samaradorlik pasayishiga olib keladi. Shunga o'xshab ishlab chiqarish fondlariga texnik xizmat ko'rsatishga mablag'larni kam sarflash ularning tez e'skirishiga sabab bo'ladi. Mavjud infratuzilmani o'z holiga tashlab qo'yib, yangi quvvatlarni yaratish siyosati qimmat va kam unumlidir. Amortizaciyani hisoblashning to'g'ri usulidan foydalanganda sof investiciyalar salbiy bo'lib qolishi mumkin. Boshqa tomondan mavjud dasturlarning samaradorligini pasaytirmaslik uchun makroiqtisodiy qayta qurish davomida barcha turdagi xom ashyo, materiallar va xizmatlarni bir vaqtning o'zida qisqarishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Subsidiyalar. Subsidiyalar – bu, hech qanday kompensaciya olmaydigan ishlab chiqaruvchilarga va iste'molchilarga hukumat yordamining har qanday shaklidir. Subsidiyalar turli shakllarda berilishi mumkin. Jumladan:

1. Ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar bilan berish (naqd to'lov shaklidagi grantlar);

2. Davlat o'zi olgan kreditlar foiziga nisbatan past foiz stavkalar bilan kredit berish va kredit kafolatlari (kredit subsidiyalari);

3. Aniq soliq majburiyatlarini kamaytirish (soliq subsidiyalari);

4. Bozor narxlaridan past narxlarda tovar va xizmalarni etkazib berish (natera shaklidagi subsidiyalari);

5. Tovarlar va xizmatlarni bozor narxidan yuqori narxda harid qilish (tayyor mahsulotni subsidiyalash);

6. Bozor narxlariga yoki bozorga chiqishga ta'sir e'tuvchi davlat me'yoriy aktlari shaklidagi yashirin to'lovlar (me'yoriy aktlar bilan bog'liq subsidiyalari);

7. Valyutaning yuqori almashinuv kursini ushlab turish (valyuta subsidiyalari).

Subsidiyalar ochiq (bevosita) yoki yashirin (bilvosita) bo'lishidan qat'i nazar ular o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarning davlat byudjetiga og'ir yuk bo'ladi. Agar subsidiyalar byudjetda xarajatlar ko'rinishida bo'lsa, ular ochiq subsidiyalardir, agar ko'rsatilmasa, yashirin subsidiyalardir. Yashirin subsidiyalash bozor darajasidan yuqori yoki past o'rnatilgan derektiv narxlarning, masalan, yoqilg'iga narxlar yoki yuqori ayirboshlash kursi oqibatida kelib chiqishi mumkin. Davlat subsidiyalarning katta qismi yashirin bo'lgani uchun ularning hajmi va miqyosi byudjetda to'liq aks e'ttirilmaydi. Subsidiyalar iqtisodiy resurslarning taqsimlanishiga ta'sir qilib, iqtisodiy dastaklardan e'giluvchan foydalanish imkonini pasaytiradi va tarkibiy qayta qurish yo'lida ko'pincha to'siq bo'ladi. Subsidiyalar iqtisodiyot ishida kamchiliklar keltirib chiqarishga misol bo'ladi. Ular yoqilg'iga bozor darajasidan pastroq narxlar belgilash hisoblanadi, bu yoqilg'ining isrofiga olib keladi.

Subsidiyalarni baholashda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

Samaradorlik. Hamma subsidiyalar ham salbiy oqibatlariga e'ga e'mas. Lekin samarador subsidiyalar deb resurslarni minimal qayta taqsimlab va stimullash tizimida e'ng kam kamchiliklarni keltirib chiqarib aniq maqsadlarni echishga yordam beruvchilarni hisoblash mumkin. Samarador subsidiyalar bundan tashqari aniq o'zgaruvchanlik xarakteriga e'ga, ya'ni ular faqat mo'ljallangan guruhlar va faoliyat turlari foydasiga beriladi.

Davomiylik.Subsidiyalar berishning davomiyligi jiddiy muammoni keltirib chiqaradi, chunki ushbu dasturlardan foydalanmoqchi bo'lgan shaxslar o'z hulqini o'zgartirishadi, lekin bunda o'z moddiy holati yaxshilangandan so'ng ham ushbu dasturlardan voz kechish niyati yo'q. Vaqt davomida xulq o'zgarishi natijasida subsidiyalar o'z samaradorligini yo'qotadi. Garchand, ayrim subsidiyalarni berish davomiyligini boshidan chegaralash kerak bo'lsada, subsidiyalash dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun subsidiyalar beriladigan sabablar doimo tahlil qilinishi talab qilinadi va agar bu zarur bo'lsa, bunaqa dasturlarni to'g'rilash, ularning izlanish (adreslili)ni o'zgartirish yoki ularni to'xtatish.

Oshkoralik. Davlat byudjetida subsidiyalash dasturining hajmini va bu maqsadlarga kerak bo'lgan moliyalashni ochiq ko'rsatish kerak. Oshkoralikni ta'minlash ham davlat, ham xususiy manfaatlariga to'g'ri keladi, chunki u alohida dasturlar bilan bog'liq bo'lgan foyda va sarflarni aniqlashga imkon beradi. DBOlari o'z byudjetlarida, odatda, qaysi subsidiyalash turlariga va qancha hajmda mablag'lar berilganini ko'rsatishi kerak va ularni tayyor mahsulotga, soliqlarni, foiz stavkalarini yoki me'yoriy aktlar yordamida subsidiyalash kabi e'mas, balki pul ko'rinishidagi transfertlar sifatida imkoni boricha ko'rsatishlari kerak. Agar subsidiyalar pul ko'rinishidagi transfertlar sifatida aks e'ttirilgan bo'lsa, DBOlari va subsidiya oluvchilar qanday summalar haqida gap ketayotganligidan aniq voqif bo'ladilar. Bu oshkoralik boshqa tomondan moliyaviy imkoniyatlarni va subsidiyalarning zaruratini baholashga imkon beradi.

Moliyalash. Subsidiyalar har doim byudjet mablag'lari hisobidan moliyalanishi shart. Bunda moliyalash muammosini marketing bo'yicha davlat boshqarmalari, yarim davlat agentliklari va maqsadli nobyudjet fondlar yoki Markaziy Bank kabi nobyudjet vositalar yordamida echish

xavflidir. Bunaqa usullar subsidiyalashni kamroq oshkora qiladi, ishlab chiqaruvchilarning narxi pasayishiga olib keladi, bu e'sa unumdorlikni rag'batlantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Pragmatik yondashuvni tanlash. Subsidiyalash dasturlari DBOlarning tashkiliy- Oma'muriy imkoniyatlariga to'g'ri kelishi kerak. YAshirin subsidiyalarni ochiq subsidiyalarga qaraganda samarali nazorat qilish qiyinroq. Ma'muriy xarajatlarni kamaytirish maqsadida ular maksimal oshkora bo'lishi kerak.

Ijtimoiy sug'urtalash xarajatlari. Ko'p mamlakatlarda byudjet xarajatlarining katta qismi jamiyatning e'ng kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalashga, shu jumladan, qarilik va ishsizlik nafaqalariga to'g'ri keladi. Markazlashgan reja xo'jalik sharoitida davlat korxonalari bevosita yoki bilvosita ijtimoiy sug'urtalash xarajatlari bir qismini o'z bo'yniga olgan. O'tish davrida bu korxonalarni isloh qilish va ijtimoiy sohadagi majburiyatlarning kamayishi yoki ulardan voz kechishi bilan ishonchli sug'urtaning ijtimoiy davlat tizimini tuzish masalasi paydo bo'ladi.

Ijtimoiy himoya tizimi quyidagi asosiy unsurlarni o'z ichiga oladi:

Aholining e'ng zarur mahsulotlar xarid qilish qobiliyatini yaxshilash sharoitini ta'minlashga mo'ljallangan tovarlarga adresli subsidiyalar va naqd pul bilan ustama to'lovlar.

Ijtimoiy himoya mexanizmlari nafaqalarni, mehnat qobiliyatini yo'qotish sug'urtasi, bolalarga qarash bo'yicha nafaqalarni o'z ichiga olib, ularning tuzilmasida adreslik va stimullar tizimi qo'yilgan hamda past daromadli guruhlar uchun ishsizlikning o'sishi oqibatlarini yumshatuvchi ishsizlik bo'yicha nafaqalar va jamoat ishlari dasturlari.

Ijtimoiy ta'minot tizimlarini tuzishda asosiy e'tibor ularning adresliligiga va stimullarning mavjudligiga qaratilishi kerak. Ko'pgina mamlakatlarda muxtojlik darajasi yo'q, nafaqalar faqat ayrim guruhlar bilan, masalan, faqat bolalar va qariyalar bilan chegaralangan. Stimullar tizimiga kelsak, uy xo'jaliklarining daromadlari o'sgan sari nafaqalar kamaysa, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashga byudjet xarajatlari kamayadi. Lekin bunaqa yordam oluvchilar uchun soliqning chegaraviy stavkasi kamaytirilib amalga oshiriladi, bu e'sa stimullar tizimiga salbiy ta'sir e'tishi mumkin.

Kapital quyilmalar. Iqtisodiy o'sishning tarkibiy qayta qurishni o'tqazish davlatdan samarador kapital quyilmalarni amalga oshirish kabi chora-tadbirlar bilan birga olib borishni talab qiladi. Bunda bozor faoliyati bilan raqobatlashmay, balki uni to'ldirib, rivojlantiradigan faoliyat turlariga e'tibor berilishi kerak. Davlat uchun bunday ustivor yo'nalishlar ta'lim, sog'liqni saqlash, shahar kommunal xo'jaligi, qishloq joylarda infratuzilmani yaratish hisoblanadi.

Davlat xarajatlari va davlatning roli.

Bozorlarning ayrim e'htiyojlarni qondirish imkoni bo'lmagani sababli davlat ko'pincha ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Bozorlar aholiga milliy mudofaa, tartibni saqlash, milliy bog'larni saqlash kabi ijtimoiy tovarlarni bera olmaydi, chunki bu tovarlar jamoa tomonida iste'mol qilinib, ishlab chiqaruvchilarga foyda keltirmaydi. Bozor faoliyatining kamchiliklari davlat xarajatlari, me'yoriy aktlar va soliq solish orqali davlat tomonidan kompensaciyalanadi.

Soliq solishdan, me'yoriy aktlardan foydalanib, mablag'larni sarflab davlatga uzoq muddatli kelajakda cheklangan rol o'ynashi mumkin. Bunda davlat sektorining roli aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Faolroq davlat aralashuvini bozor iqtisodiyotining kamchiliklari yoki adolatli taqsimot zarurati bilan oqlash, lekin bunaqa faol rol jamiyatni ham bevosita, ham bilvosita iqtisodiy sarflarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi ko'pgina mamlakatlarda davlatning xo'jalik faoliyatiga keragidan ortiq aralashuvini kamaytirish bo'yicha kattagina chora-tadbirlar qabul qilingan. Bundan tashqari ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xarajatlarining YAIMga nisbati kamligi davlatning cheklangan rolini e'las, balki moliyalash sohasidagi imkoniyatlarining cheklanganligini, narxlarni buzib ko'rsatish va keng kvazifiskal operaciyalarning mavjudligini aks e'ttirish mumkin.

Davlat xarajatlarining makroiqtisodiy oqibatlari.

Davlat xarajatlari ham yalpi taklifga, ham yalpi talabga ta'sir qiladi. Moddiy aktivlar shaklidagi kapitalga va inson kapitaliga samarali davlat investiciyalari investiciyalardan qaytimni oshiradi, xususiy investiciyalar oqib kelishiga va iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Bu taklifga tez ta'sir qiladi, infratuzilmaning qator muammolarini bartaraf qilishga yordam beradi. Lekin ta'lim kabi sohalardagi davlat kapital qo'yilmalaridan uzoq muddatli kelajakdagina qaytim to'liq hajmda keladi. Shu vaqtning o'zida davlat sektori xususiy sektor bilan chegaralangan resurslar omili uchun va davlat xarajatlari, xususiy xarajatlar, shu jumladan, xususiy investiciyalar raqobatlashadi. O'tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda xarajatlarni soliq yoki kreditlar hisobidan moliyalashning imkoniyatlari cheklangandir. ular na tashkiliy tuzilmaga, na rivojlangan ichki kapital bazorlariga e'ga, markaziy bank kreditlari e'sa inflyacion oqibatlar sababli ancha qimmatga tushadi.

Qisqacha xulosalar

Moliya tizimi, bank tizimi hamda sug'urta kompaniyalari, pay fondlar pension fondlar va pul bozori fondlari kabi bankmas moliya tashkilotlaridan iborat.

Pul kredit sohasi statistikasi 4 asosiy tamoyilni ajratib, ular zaxira va oqimlar; kassa asosida va hisoblanishlar metodi; valyuta; konsolidaciya.

Pul kredit sohasi tahlilining asosi bo'lib pul kredit bozori hisoblanib, u mamlakat tashqi pozitsiyasi va bank tizimining xorijiy sof aktivlari orasidagi muxim o'zaro aloqadorlik hamda davlat boshqarish organlari hisoblari va davlat moliyalashtirishi orasidagi bevosita o'zaro aloqani ajratib ko'rsatadi.

Mamlakat pul kredit sohasini o'zgarishlarini tahlil qilishda o'z ichiga moliyaviy yangiliklar valyutalarni o'rin bosishi, valyuta kursining roli, kapital oqimlari, e'mission daromadni oluvchi bir qator masalalarini hisobga olish zarur.

Bozorlarning ayrim e'xtiyojlarni qondirish imkoni bo'lmagani sababli davlat ko'pincha ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Davlat xarajatlari ham yalpi taklifga, ham yalpi talabga ta'sir qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Byudjet hisoblari nima?
2. Byudjet balansi nima?
3. Kamomdni moliyalash nima?
4. Joriy byudjet qoldig'i qanday hisoblanadi?
5. Kamomad qanday moliyalashtiriladi?
6. Davlat xarajatlarining qanday asosiy kategoriyalarini bilasiz?
7. Subsidiyalar deganda nim tushuniladi?
8. Subsidiyalarni baholashda nimalarni nazarda tutish kerak?
9. Ijtimoiy himoya tizimi qanday asosiy unsurlarni o'z ichiga oladi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishidagi nutqi: "Halq so'zi" gazetasi. 12 fevral 2006 y.
2. Tarassovich L.S, P.I.Grebennikov, A.I.Leusskiy Makroe'konomika Uchebnik 5-e izdanie M. YUrayot 2004g. 654s.
3. G.A.Kutorshevskiy «E'konomika» основы, teoriya Uchebnoe posobie izd. «E'konomika» 2004. 382s.
4. Efimova M.R i dr. Praktikum po obıcey teorii statistika M. 2004.
5. "Makroiqtisodiy tahlil va siyosat». XVf seminar materiallari. –Vena, 2000

E'lektron pochta

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. [http: g'g' www. Review.uz g'homeg' azticle.asp?](http://g'g' www. Review.uz g'homeg' azticle.asp?)
3. [http: g'g' www. vqi.freenet. g'trudyg' dratisviko.htm](http://g'g' www. vqi.freenet. g'trudyg' dratisviko.htm)
4. <http://www.vqi.freenet.lezg'trudyg'bratisvriko.htm>
www.informika.rug'textg'exhibitg'papersg'2004g'c11-3doc

V1 BOB.PUL KREDIT (MONETAR) SEKTORI

6.1. Iqtisodiy operaciylar

Iqtisodiy operaciylar hisobotiga makroiqtisodiy hisoblarning umumiy e'lementi deb qaralishi mumkin. Mulkchilik huquqi biror iqtisodiy birlikdan boshqasiga real yoki moliyaviy aktivga bo'lgan mulkchilik huquqiga o'tsa yoki biror-bir iqtisodiy birlik boshqa birlikka xizmat qilsa, iqtisodiy operaciya sodir bo'ladi. Ko'p hollarda iqtisodiy operaciylar sodir bo'lganda, biror moliyaviy aktiv boshqasiga almashiladi. Ba'zi hollarda iqtisodiy operaciylar tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar almashuviz bo'ladi. Masalan, biron aholi punktiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi yoki davlatga soliq to'laganda. Bu operaciylar 2 ta komponentdan iborat:

1-tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar oqimi va 2-“Bir tomonlama transfertlar”.

Ma'lum hisoblangan davrda yuz beradigan iqtisodiy operaciylar **oqim** deyiladi.

“Oqim” – bu, ma'lum birlik davridagi faoliyat o'lchovidir. Makroiqtisodiy o'zgaruvchi oqimlar ikki kategoriyaga bo'linadi: moliyaviy oqimlar va moliyaviy e'mas yoki real oqimlar. Real oqimlar ishlab chiqarish yoki tovar va xizmatlarni qo'lga kiritish davrida bo'ladigan operaciylarni ko'rsatadi. Moliyaviy oqimlar e'sa kredit ajratish va kredit olish operaciylari bilan bog'liq. Masalan, bank mijozi o'z hisobidagi pulni omonat hisobiga o'tkazadi, bu erda moliyaviy oqim yuz beradi. Real oqimlar tovar va xizmatlarni sotib olishdangina iborat e'mas, balki u o'z ichiga daromadlar va bir tomonlama transfertlarni ham oladi. Joriy daromad moliyaviy bo'lmagan oqim hisoblanadi, chunki u ishlab chiqarish jaraenida to'lov shaklida bo'ladi, masalan, xizmatchi mehnati.

Real va moliyaviy oqimlar, birga olinganda, barcha daromadlar va xarajatlar bilan bog'liq operaciylardan iborat. Bundan, iqtisodiyotning istagan sektorida moliyaviy e'mas va moliyaviy oqimlar yig'indisi nolga teng bo'lishi shartligi kelib chiqadiki, qachonki, hisobot davridagi xatolar e'tiborga olinmasa. Undan tashqari moliyaviy operaciylar balansi, real

operatsiyalar balansiga qarama-qarshi belgi bilan teng bo'lishi shart. Shunday qilib, oila xarajatlarning o'sishi qarzga olingan summaga teng bo'lishi kerak. Bunda daromadlar va xarajatlarning o'sishi o'rtasidagi farq jamg'arma hajmini tashkil e'tadi.

Real va moliyaviy oqimlar o'rtasidagi farq va ularning iqtisodiyotning istagan sektori ichida tengligi shu MAVZUda ko'rsatilgan tahlil uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Milliy daromad va mahsulot hisoblarida qo'shimcha qiymat, daromadlar va xarajatlar moliyaviy bo'lmagan operatsiyalar deb ko'rsatiladi, ichki va tashqi aktiv hamda passivlar hajmining o'zgarishi – moliyaviy operatsiya deyiladi. Davlat moliya statistikasida moliyaviy bo'lmagan operatsiyalar haqidagi ma'lumot – daromadlar va xarajatlar haqidagi ma'lumotdir. Moliyaviy operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumot – bu, sof kreditlash va umumiy ijobiy saldo deficitini moliyalashtirish haqidagi ma'lumotdir.

To'lov balans statistikasi ham moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan operatsiyalar haqida ma'lumotga e'ga. Moliyaviy bo'lmagan operatsiyalar joriy hisoblardagi operatsiyalarda o'z aksini topgan, moliyaviy operatsiyalar e'sa, kapital harakat hisobida va zahiralari hajmining o'zgarishida o'z aksini topgan.

Bundan tashqari pul-kredit obzorida moliyaviy bo'lmagan operatsiyalar ko'rsatiladi, unda faqatgina bank tizimi aktivlari va passivlari qayt e'tiladi. Pul-kredit obzorida tarmoqlar hajmining o'zgarishi faqat moliyaviy operatsiyalarni ko'rsatadi.

Milliy hisoblar tizimida va to'lov balansida operatsiyalar biror passiv bo'yicha to'lov amalga oshirilganda e'mas, balki qachonki shunday passiv paydo bo'lganda o'tkaziladi. Davlat moliya statistikasi ma'lumotlari poydevorida, aksincha, kassa prinsipi yotibdi. Pul statistikasi sohasida balansli hisobotlarga asoslaniladi. Bu hisobotlar qaysiki normaga asoslangan holda tashkil e'tiladi. Shuningdek, u ham butunlay hisoblab ustiga qo'yishi prinsipi asosida tuziladi. Masalan, vazifalar to'lovgacha amalga oshiriladi. Biroq ko'pchilik bank operatsiyalari o'sha zahotiyoq bajariladi va hisob naqd amalga oshiriladi, bu farq amaliy ahamiyat kasb e'tmaydi.

6.2 Milliy daromad, mahsulot va to'lov balansi hisoblari o'rtasidagi aloqa

a) Milliy hisoblar koncepciyasi obzori.

Milliy daromad va mahsulot hisoblari poydevori mahsulotning ishlab chiqarilganligi va taqsimlanganligi birlamchidir. Tovar va xizmatlarning bir yildagi taklifini, mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yig'indisi va importni hisoblash mumkin. Mahsulotni taqsimlash rezidentlarini umumiy xarajatlarini tashkil e'tadi (bular iste'mol, investiciya + e'ksport). Buni quyidagicha yozish mumkin:

$$Y+M=C+I+X$$

Y – ichki ishlab chiqarish;

M – import;

S – iste'mol;

I – investiciya;

X – e'ksport.

Bundan quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$Y=C+I(X-M) \quad (1)$$

Ishlab chiqarishning umumiy miqdorini belgilashni tanlash “X” va “M” hajmiga kiritilganligiga ta'sir qiladi. Agar Y – YAMM, unda e'ksport va import tovarlarini va omilsiz xizmatlarni o'z ichiga oladi. Faraz qilaylik, ishlatilayotgan kattalik shunday aniqlanadiki, ushbu ifodaning ikkala tomoniga sof milliy daromad qo'yilgan. Bu daromad chet e'lda olingan (YF).

U holda:

$$Y+YF=C+I+(X-M+YF) \quad (2)$$

E'ndi tenglamaning chap tomoni YAMMga e'mas, balki YAMD ga teng.

Ushbu ifodaning yana bir varianti ifodali;

2-tenglamaning ikkala tomoniga sof transfertlarni, chet e'l to'lovlari qo'yish mumkin:

Sof tranfertlar, chet e'l to'lovlari – TRF

$$Y+YF+TRF=C+I+(X-M+YF+TRF) \quad (3)$$

Bu holda ifodaning chap tomoni YAMDga (GNDI) teng. YA'ni daromadning to'la hajmi, rezidentlar iste'moli va jamg'arishi uchun ishlatilishi mumkin. O'ng tomonidagi ifoda e'sa e'ksport va import, shuningdek, sof tashqi transfematalarni o'z ichiga oladi. Bu yig'indi to'lov balansini hisobiga teng. (SAV). Quyidagi jadvalda mahsulotning uch xil aniqlanishi ko'rsatilgan. (Tashqi balansining unga to'g'ri keladigan konsepciyasiga binoan).

Milliy daromad, mahsulot va joriy operaciyalar (to'lov balansini hisoblari).	
Milliy hisoblar konsepciyasi	Joriy operaciyalar hisobi ta'rifi
YAMM	E'ksport, import (tovarlar va omilsiz xizmatlar)
YAMD	Tovarlar va xizmatlar e'ksporti va importi.
Foydalaniladigan milliy daromad	Tovar va xizmatlar e'ksporti, importi. Birtaraflama transfertlar

Nazariy nuqtai nazaridan xarajatlarni xususiy va davlat xarajatlariga bo'lish foydali.

CR – xususiy sektor iste'mol xarajatlari;

CG – davlat boshqaruv organi xarajatlari;

IP – xususiy sektorning umumiy investiciya xarajatlari;

IG – davlat sektorining umumiy investiciya xarajatlari.

Xarajatlarning shu kabi belgilab (1) tenglamani qo'yidagicha izohlash mumkin.

$$Y=CP+CG+IP+IG+(X-M) \quad (4)$$

Shu bilan birga

$$I=IP+IG; GqGP+CG$$

YAMDni ta'rifini hisobga olgan holda, u yalpi milliy jamg'armalarning ishlatilmagan qismi deb ta'riflanishi mumkin.

$$S=GNDI-GP-CG \quad (5)$$

S-jamg'arma, GNDI – yalpi foydalaniladigan milliy daromad.
b) to'lov balansi bilan bog'liqlik

Davlat jamg'armasi qo'yidagicha aniqlansin:

$$SP+SG=GNDI-TX-CP=GNDI-CP-CG$$

Shunday qilib, 5-ta'rifga binoan $SP+SGqS$.

Bu natijadan foydalanib, 6-ifodani quyidagicha yozamiz:

$$\begin{aligned} SP+SG-1 &= CAB \\ (SP-IP)+(SG-IG) &= GAB \\ &\text{yoki} \\ (SP-IP)+(TX-G) &= GAB, \quad (7) \end{aligned}$$

Shunday qilib, GAB – to'lov balansi joriy operatsiya hisob sal'dosi xususiy sektor jamg'arma va investiciyadar yig'indisi farq + davlat boshqaruv organlari jamg'arma va investiciyalar o'rtasidagi farqqa teng.

Sektorlar balansi uchun ifodani umumiy daromad yoki mahsulotga bog'liq holda ko'rsatish foydalidir.

U holda

$$\frac{SP}{GNDI} + \frac{SG}{GNDI} - \text{minus sektorial investicion}$$

$$\frac{SP}{GNDI} + \frac{SG}{GNDI} = \text{tashqi hisob savdosi munosabati teng}$$

(GNDI)

$$\frac{X - M + TRF - YF}{GNDI} \text{ Bu tashqi munosabat orqali mamlakat}$$

iqtisodiyotida investiciyalar va ichki jamg'armalar ulushini oshirishga bo'lgan siyosatning mo'ljallangan ta'sirini osongina ko'rish mumkin.

To'lov balans bilan aloqa. Milliy daromad va mahsulot hisoblari.

Mamlakat iqtisodiyotining chet davlatlar bilan bo'lgan operaciyalar yig'indisidan iborat. Bu yig'indi xuddi to'lov balansini bilan bir xil, biroq to'lov balansini tushunchasi forasi aniqroq. Modomiki, YAJ (yoki jamg'arma).

YA MD-S deb ta'riflangan bo'lsa, investiciyalar jamg'armalardan katta bo'lish summasi, joriy tashqi operaciyalar hisobining deficitiga teng deb ko'rsatish mumkin. Buni ko'rsatish uchun, 3 va 4 YAMD komponentlarini B-ifodada ko'rsatamiz:

$$\begin{aligned} GNDI &= GDP + YF + TRF = CP + CG + IP + IG + (X - M + YF + TRF) \\ S &= GNDI - CP - CG \\ &= CP + CG + IP + IG + (X - M + YF + TRF) - CP - CG \\ &= IP + IG + (X - M + YF + TRF) \end{aligned}$$

yoki

$$S - I = GAB, (6)$$

GAB – joriy operaciya (to'lov balansining) savdosi.
Sva 16 – ifoda ham davlat sektorini o'z ichiga oladi.
Xususi jamgarmani aniqlaymiz:

$$SP = YD - CP = (CNDI - TX) - CP?$$

Bu erda:

YD – uy xo'jvaligi

TX – soliqlar, davlatga, davlatdan olinadigan transfertlarni chiqarib tashlagan xoldagi.

6.3 Davlat moliya statistikasi, milliy daromad va mahsulot hisoblari va balansi

a) Davlat moliya statistikasi va milliy daromad davlat operatsiyalarining ma'lumotlarni standart ko'rsatish poydevori hisoblanadi. Bu poydevor davlat boshqaruv organlarining daromad, xarajat, kapital jamg'arish va moliyalashtirish nuqtai nazaridan operatsiya analizini engillashtirish uchun mo'ljallangan. Milliy daromad va mahsulot hisoblari ham davlat boshqaruv organlari faoliyati to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni standart holda ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, milliy hisoblarning asosiy agregatlari DMSning asosiy komponentlari bilan o'xshashligi uchun o'zaro bog'langan bo'lishi mumkin. Biroq ular o'rtasida muhim farqlar ham bor. Bu farqlar asosan shundan iboratki, milliy daromad va mahsulot hisobi davlat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmini hisoblashga, DMS e'sa davlat boshqaruv organlarining iqtisodiyotning qolgan qismiga bo'lgan ta'sirini o'lchashga mo'ljallangan.

Davlat sektori chegaralari ikkala tizimda ham bir xil aniqlanadi. Davlat boshqaruv organlariga ikkala tizimda ham turli birliklar to'g'ri keladi. Bu birliklar "avvalo davlat siyosatini bozor xizmatlarisiz va daromadlarni asosan boshqa sektorlarni soliqqa solish yo'li bilan qayta taqsimlaydigan yo'l orqali faoliyat olib boradi. Biroq milliy hisoblar tizimida davlat sektori nafaqat markaziy hukumatdan iborat, balki u ma'muriy-siyosiy federatsiya bo'limlari, shuningdek, barcha darajadagi mahalliy davlat boshqaruv organi subsektorlarini tashkil e'tadi.

Moliyaviy bo'lmagan davlat korxonalari, chunonchi korporatsiya nomiga e'ga yoki aholiga o'z mahsulotini katta miqdorda taklif e'tadigan korxonalar davlat boshqaruv sektoriga kirmaydi. Bunday korxonalariga temir yo'llar, avialiniyalar, kommunal xo'jaliklar, shuningdek, sanoat korxonalari kiradi. Davlat hokimiyat organlarining funktsiyalarini batamom

chegaralash uchun DMSda davlat sektori bank va pul-kredit siyosati pul-kredit va moliya statistikasining DMS bilan muvofiqligini ta'minlash uchun ushbu operaciyalar va davlat boshqaruv organlari operaciyalari o'rtasida chegaralanish zarur.

Ikki hisob tizimi o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilar: DMSda operaciyalar to'lovlar bazasida qayd qilinadi. Ular ustiga qo'yib hisoblash principidan foydalanilmaydi: resurslar, joriy davrni ko'rsatmaydigan operaciyalar, masalan, asosiy kapital yoki nafaqa dasturlariga narxlangan to'lov summani iste'mol qilish, fondlar orqali ta'minlanmaganlar DMSga kiritilmaydi, lekin milliy daromad hisoblarida ko'rsatiladi; milliy daromad va mahsulot hisoblaridagidek soliqlar ishlab chiqarish davrida hisobga olinmaydi, balki DMS soliqqa solish bazasi bo'yicha hisoblanadi; Davlat boshqaruv organlari kredit operaciyalari DMSda davlat siyosatini amalga oshirishda ishlatiladi va xarajatlar qismiga kiritiladi, milliy daromad va mahsulot hisoblarida esa, moliya kategoriyasiga kiritiladi.

Transfert to'lovlari DMS va xarajatlar kategoriyasiga kiritiladi, lekin davlat boshqaruv organlari ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bir qismi deb qaralmaydi.

Milliy hisoblar asosiy kategoriyalari bo'yicha operaciyalar DMS tarmoqlari bilan bog'lanib ketishi mumkin. Markaziy hukumatning DMS metodi bo'yicha iste'moli oylik ish haqi va davlat xarajatlari uchun to'lovlarini ayiramiz.

DMSda "e'gri soliqlar" atamasi ishlatilmasada, e'gri soliqlar milliy hisoblangan bo'lishi mumkin. E'gri soliqlar ishlab chiqarish uchun xarajatlar deb qaraladi. To'g'ri soliqlardan e'gri soliqlarni farqlab, turadigan jihat shundaki, to'g'ri soliqlar omilli daromadlardan to'lanadi. E'gri soliqlar o'z ichiga quyidagilarni oladi: e'ksport va import bojlari, akciz yig'inlar savdo solig'i, xo'jalik faoliyatini olib borish uchun licenziya to'lovi, ma'lum operaciyalarni amalga oshirish uchun yig'inlar, qo'shimcha narx uchun soliq, avtotransport uchun to'lovlar, pasport berilishi to'lovlari, ae'roportda, sudda olinadigan soliqlar va to'lovlar.

b) Davlat moliya statistikasi.

To'lov balansi. Davlat boshqaruv organlari tomonidan va chet mamlakatlar bilan olib borilgan operaciyalar ham DMS ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Faqat farqlar kengligini jalb e'tish va hisob

principini hisobga olmaganda, berilgan operaciyalar ikkala tizilmada ham bir xil namoyon bo'ladi.

Jalb e'tish kengligiga kelsak, bu erda farqlar minimal. Birinchidan, to'lov balans hisobiga davlat boshqaruvi darajalari farqlanmaydi, ikkinchidan, to'lov balansida tashqi operaciyalar bilan milliy birlashmalar o'rtasida chegaralanish yo'q.

To'lov balans ma'lumotlar hisobi ustiga qo'yib hisoblash usuli orqali olib boriladi. DMSda e'sa kassa usulidan foydalaniladi. YA'ni to'lovlar asosida. Shunday qilib DMSda faqat to'lovlar oqimi, to'lov balansida e'sa resurslar, to'lovlar, majburiyatlar aks e'tadi.

6.4 Pul-kredit obzorining boshqa makroiqtisodiy hisoblar bilan o'zaro aloqasi

Pul-kredit obzori to'lov balans bilan hisobot ma'nosida bog'liq, chet e'l aktivlari va pasivlari summasining o'zgarishi orqali va DMS – davlat boshqaruv organlarining bank tizimiga sof qarzi orqali. Biroq pul-kredit obzori (tizimi) bilan milliy daromad va mahsulot o'rtasidagi bog'liqlik o'rtacha hisoblanadi: iqtisodiyotda likvidlik zahirasining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish va daromadlar hajmining o'zgarishiga olib keladi. Milliy daromad va xarajatlarning o'zgarishi e'sa import talabi va e'ksport taklifiga ta'sir qiladi. Bu e'sa o'z navbatida sof tashqi aktivlar summasining o'zgarishiga va nihoyat, pul massasiga ikkilamchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

6.5 Pul vositalarining oqimi

Iqtisodiyotning asosiy sohalarini hisob-kitoblarini har bir sohaning "to'lov balans"ni ko'rsatuvchi yagona jadvalga keltirish mumkin. Bu jadval shu bilan birga balansining sohalar orasidagi qarzarlar va kreditlar yordamida mablag' bilan qanday ta'minlanishini ko'rsatadi. Pul oqimlarining bunday jadvali 1-bo'limda ko'riladigan turli xil hisoblarning tabiiy holda davomi hisoblanadi. Uning yordamida iqtisodiyot sohalarini orasidagi moliyaviy aloqalar tabiatini aniq kuzatib borish mumkin.

Sohaning daromad va xarajatlari orasidagi farqni bu sohaning “moliyaviy bo’lmagan harakatlar saldosi” deb ataymiz. Pul oqimining jadvali iqtisodiyotning har bir sohani “moliyaviy saldo”si sohaning moliyaviy bo’lmagan harakatlar saldosi bilan teng bo’lishi kerak bo’lgan o’zlashtirish va kreditlash harakatlarini ko’rsatib beradi. Shunga ko’ra, ichki sohalar orasida moliyaviy harakatlar saldosi yig’indisi xalqaro kapital oqimlari miqdoriga teng, shuningdek, daromad va xarajatlar (ichki iqtisoddagi) orasidagi farq kundalik to’lov balansi harakatlari hisoblari saldosi teng.

Pul oqimlari jadvalini tuzishda quyidagicha farazlar qilingan:

– bank tizimining moliyaviy balansi saldosi nolga teng deb qabul qilingan, bu sohaning moliyaviy bo’lmagan harakatlari e’sa xususiy sohada qamrab olinadi;

– tashqi sohadagi zarar musbat belgiga e’ga, musbat saldo e’sa manfiy belgiga e’ga, shuningdek bu ustun o’ziga kuzatilayotgan mamlakatning chet davlatlar bilan balansini ko’rsatadi (13.1-jadvalda bu ustun “chet davlatlar” nomi bilan berilgan);

– moliyaviy oqim uchun aktiv qiymatlarning o’sishi manfiy belgiga (fondlarning ishlatilishi), passiv qiymatlarning o’sishi musbat belgiga e’ga (fondlarning manbai) va shunga muvofiq qarama-qarshi belgilar aktiv va passiv qiymatlar pasaygan holda qo’llangan.

Pul oqimining sxemasi 13.1-jadvalda ko’rsatilgan. Davlat iqtisodiyoti xususiy sohaga, markaziy hokimiyat sohasiga, bank va tashqi sohaga bo’linadi. YAnada to’liq va nazariy to’g’ri bo’lgan sinflash davlat tashkilotlari sohasini ham qamrab oladi. Birinchi qatordagi sonlar moliyaviy bo’lmagan harakatlar balansi 7 tenglama komponentlari kundalik harakatlar hisobi saldosi bilan muvofiq tushadi:

$$(SP-IP)+(TX-G)-CAB=0$$

Shunday e’kan, (SP-IP) qiymat xususiy sohaning moliyaviy bo’lmagan harakatlari saldosi.

Modomiki, kundalik harakatlar hisobi teskari qiymat bilan olingan e’kan, unga jadvalning birinchi qatori nazariy jihatdan nolga teng bo’lishi kerak.

Quyida jadvalda pul oqimlarining sxemasi keltirilgan:

Qolgan qatorlar sohalarni mablag' bilan ta'minlovchi asosiy ashyoviy vositalarni ko'rsatadi. YUlduzlar bilan kerak bo'lgan yozuvlar uchun joy ko'rsatilgan. Masalan, bank sohasi uchun passiv va xususiy soha uchun aktiv bo'lgan pul massasining ortishi 1 ustunda manfiy qiymat va 3 ustunda musbat qiymat sifatida yoziladi.

Sohalarning moliyaviy bo'lmagan balansi va pul oqimining sxemasini tuzishda turli xil xatolarga yo'l qo'yilish mumkin. Xatolarning birinchi kategoriyasiga hisob ichidagi statistik tafovut sabab bo'lsa, boshqasiga turli hisoblarning mos tushmasligi sabab bo'ladi. Uchinchi xil xato turli davrlardagi hisoblarga bog'liq holda kelib chiqadi, masalan, agar mahsulotning milliy daromadi pul-kredit ko'rinishi, to'lov balansi va statistikasi kalendar yil negizida, davlat moliyasi statistikasi e'sa moliyaviy yil negizida aytilgan bo'lsa, hato kelib chiqish mumkin.

13.1–jadval

	Xususi y soha	Markaziy hukumat	Bank tizimi	CHet davlatlar
Moliyaviy bo'lmagan harakatlar balansi	*	*		*
Moliyaviy balans. Pullar va kvazipullar	*	*	*	*
Xususiy soha bank krediti	*	*	*	*
Davlat bank krediti	*	*	*	*
Toza xalqaro zahiralari	*	*	*	*
Hokimiyatning xorijiy qarzlari. Xususiy sohaning xorijiy qarzlari	*	*	*	*
Bankka oid bo'lmagan davlat tashqi qarzlari	*	*	*	*

Boshqa hammasi	taraf,lar,	*	*	*	*
-------------------	------------	---	---	---	---

¹⁾Shu mamlakatning qarama-qarshi ishora bilan berilgan tashqi sohasi (* etishmovchilikni bildiradi).

Pul oqimlari jadvalini tuzishda va moliyaviy bo'lmagan harakatlar muvozanatini yuzaga keltirishda tovar va xizmatlarning e'ksport va import bo'yicha ma'lumotlari to'lov balansi va pul-kredit ko'rinishi jihatidan mahsulot va milliy daromad hisobidan; markaziy hokimiyat xarajatlari jihatidan davlat moliyasi statistikasi bergan ma'lumotlardan olinadi.

Bunda soddalashtirish uchun bank sohasidagi moliyaviy bo'lmagan harakatlar yo'q deb faraz qilingan. Natijada bu sohaning har qanday nolga teng bo'lmagan saldosi xususiy sohasining moliyaviy bo'lmagan harakatlari saldosi qamrab oladi.

Bu faraz va markaziy hokimiyatning moliyaviy bo'lmagan harakatlar haqida bergan ma'lumotlari hisobiga davlat moliyasi statistikasidan boshqa yo'l bilan olib bo'lmaydigan ma'lumot "xususiy sohaning moliyaviy bo'lmagan harakatlar saldo"sini olish mumkin, bu markaziy hokimiyat hisobiga kiritish mumkin bo'lgan milliy daromad hisobining turli yillik raqamlari orasidagi farq sifatida hisoblanishi mumkin.

Quyida hisoblashning hamma bosqichi keltirilgan:

1. $GNDI = GDP + YF + TRF$
2. Umumiy mablag' = $GNDI - C$
3. Ichki iqtisodiyotning moliyaviy bo'lmagan harakatlari saldosi + umumiy mablag' - umumiy investiciya.
4. Markaziy hukumat hisobiga kiritish mo'ljallangan daromadning umumiy miqdori q daromadning umumiy miqdori – transfert to'lovlar uchun xarajatlar.
5. Markaziy hukumat mablag'ining markaziy hokimiyat mo'ljallangan daromad – markaziy hukumat mo'ljallangan daromad – (ish haqi+xizmat va tovarlarni sotib olish).
6. Markaziy hukumat moliyaviy bo'lmagan harakatlari saldosi q markaziy hukumat mablag'lari – markaziy hokimiyat investiciyasi.

7. Xususiy soha moliyaviy bo'lmagan harakatlari saldosi q ichki iqtisod moliyaviy bo'lmagan sohasi saldosi – markaziy hukumat moliyaviy bo'lmagan sohasi saldosi.

Moliyaviy bo'lmagan xarajatlar saldosi hisoblab, makroiqtisodiy hisoblar orasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatuvchi, pul vositalarining harakati haqida hisobot tuzish mumkin. Bu hisobot bitta jadvalda iqtisodiyotning alohida sohalari disbalanslarining umumiy iqtisod imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, u iqtisodiy siyosatning asosiy o'zgaruvchanligini aniqlab beradi.

6.6 Tahliliy hisobot

To'lov balansi hisoblarini tuzishning asosiy maqsadlaridan biri, tashqi muvozanatlikni to'g'rilash e'htiyojining paydo bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotga e'ga bo'lishdir. Biroq ikkilik yozuv tizimi to'lov balansida debet va kredit tinchligini nazarda tutadi. Shuning uchun unda ijobiy saldo yoki deficitni ko'rsatish uchun barcha tashqi operaciyalarni summalash va bu guruh ichidagi operaciyalarni moddalardan ajratish kerak (chiziq ostidan yoki ustidan).

Chiziqni tortish erini hal qilish to'lov balansi bosh e'htiyojini a'lo darajadagi qaysi operaciyalar doirasini ko'rsatish to'g'risidagi sub'ektiv nazarni ifodalaydi. Mustaqil hisoblangan operaciyalarga bo'lgan yondashuvlarning biriga asosan, avtonom moddalarni kompensaciyalash uchun ular amalga oshiriladigan operaciyalardan ajratilishi kerak. Boshqa yondashuv doirasida asosiy e'tibor operaciya xarakterining o'zgaruvchanligiga qaratiladi: nostabil deb qaraladigan operaciyalar to'lov balansining umumiy holatini ko'rish uchun, "chiziq ostida" belgilanadi.

Afsuski, moddalarni farqlash uchun yagona o'lchov birligi mavjud e'mas, chunki bunday bo'lish sezilarli darajada operaciyani amalga oshiruvchi iqtisodiy agent motivaciyasiga nisbatan sub'ektiv qarashni ifoda e'tadi. Shuningdek, qanday moliyaviy aktivlar yuqori o'zgaruvchanlik bilan xarakterlanishini aniqlash mumkin. Balans tushunchasiga bir qator turli yondashuvlar birligi ham bejiz e'mas.

To'lov balansining tor ma'nosi savdo balansi, ya'ni FOV asosida e'kspert va import saldosi ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq iqtisodiy

nuqtai nazardan qaraganda tovarlar va xizmatlar oqimi orasidagi farq sub'ektiv hisoblanadi. Xizmat e'ksportidan tushgan chet e'l valyutasi birligi, tovar e'ksportidan tushgan chet e'l valyutasi birligidan maqsadi tashqi savdo balansining ahvolini yaxshilashdir. Savdo balansidan asosan bojxona hisobotlaridan foydalanib, tovar savdosi bo'yicha ma'lumotlarga nisbatan tezroq e'ga bo'lish mumkinligi sababli foydalaniladi.

Nazariy nuqtai nazardan joriy operaciyalar hisobi tushunchasi alohida ahamiyatga e'ga. Mavjud nuqtai nazarlarning biriga asosan, bu hisob o'z ichiga tovar savdosi, xizmat va daromadlar, boshqasiga ko'ra e'sa bundan tashqari xususiy yoki umuman bir yoqli transfertlarni oladi. Xususiy bir yoqli transfertlar to'lov balansini to'g'rilash nuqtai nazardan qaralganda tarkibga kirishi mumkin. U holda boshqa hech qaysi muayyan tarkibga kirmaydigan mehnati daromadi ko'rsatkichni chiziq ustiga, chet e'ldan kelgan imigrant xizmatchilarni e'sa chiziq ostiga joylashtiriladi. Ba'zan rasmiy transfertlar joriy oqimi e'sa balansning kapital oqimi bo'lganligi uchun hisobga olinmaydi. Biroq bir yoqli transfertlarni chiziq ostida hisobga olishda muammolar paydo bo'ladi: real respublikalar qabul qiluvchi debet to'lov balansini yomonlashtiradi, degan fikr paydo bo'ladi. Hozirgi paytda e'ng tarqalgan yondashuv bu joriy hisobga barcha transfertlarni kirishidir. Tovarlar, xizmatlar va bir yoqli transfertlar balansi ikkinchi rial operaciyalar natijasida o'zgaradigan moliyaviy aktivlarning haqiqiy kattaligini ifodalaydi. Joriy operaciyalar hisobi balansi sof kapital oqimi kattaligi yoki zahiralalar va parallel moddalar summasining o'zgarishi bilan mos kelishi kerak.

Joriy operaciyalar hisobining muvozanatsizlashtirilganligi doim ham iqtisodiy o'zgartirish kiritish e'htiyojini ko'rsatmaydi. Misol uchun, davlat rahbariyati rivojlantirishga qaratilgan xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli kapitallar oqimi hisobidan moliyalashtirilgan deficitning joriy operaciyalar hisobini saqlashga borishi va aksincha, davlat rahbariyati, tashqi nvesticiyani moliyalashtirish uchun joriy operaciyalar hisobining ijobiy saldosi saqlashga o'z faoliyatini qaratishi mumkin.

Joriy operaciya hisobi saldosi o'ziga xos tahliliy ahamiyatga e'galigi yana ikkita omil bilan ifodalanadi. Birinchisi, agar transfertlar bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik hisobga olinmasa, kattalik bo'yicha joriy

operatsiyalar hisobining defitsiti yoki ijobiy saldosini iqtisodiyotning qolgan boshqa barcha sektorlari bo'yicha jamg'armalar summasining o'sishi yoki qisqarishiga teng bo'ladi. Ikkinchisi, joriy operatsiyalar hisobining saldosini sof tashqi qarzlarning hajmining o'zgarishiga tengdir. Umumiy balansga e'rishish uchun chiziq atigi faqat yuqori likvidli aktivlar va pul-kredit organlarining qisqa muddatli passivlari hajmining (yoki ular tomonidan boshqariladigan ma'lum bir aktiv yoki passiv) ifodalashi kerak. Pul kredit boshqaruv organlarining oltin, qiymatli qog'ozlar va aktivlari, odatda, zahiralarning tarkibiga kirgan bir paytda, depozit pul banklaridagi ayni xil aktivlar tushunchasi sub'ektiv hisoblanadi va hukumat bu aktivlarning ishlatilishini qay darajada nazorat qilishiga bog'liq.

Bundan tashqari passivlar tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchilik ham yuzaga keladi.

XVF tomonidan ishlatiladigan kreditlar zahiralarning kategoriyasiga kiritiladi va ba'zi hollarda ma'lum talablarni bajaruvchilarning tomonidan zahira aktivlari sifatida qaraladigan passivlar shuningdek, chiziq ostiga joylashtiriladi (masalan, ma'lum MBning boshqa MBlardagi hisoblari). Ushbu yondashuvning afzallik tomoni shundaki, u balanslarni aniqlashda muvofiqlikni ta'minlaydi.

6.7 Ma'lumotlarning asosiy manbalari

Tovar operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbalari davlatning soliq tizimi tomonidan to'planib, ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi savdo hisobotlari, bank tizimi orqali chet e'l valyutasining to'lovlari va oqimini ko'rsatuvchi valyuta almashuvi bo'yicha ma'lumotlar hisoblanadi.

Savdo hisobotlarida tovarlarning davlat chegarasi orqali jismoniy harakati, banklar orqali amalga oshirilgan va xizmatlar uchun to'lovlarda valyuta almashuvi bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, bank tizimi orqali daromadlar harakati aks e'tadi. Bu manbalardan foydalanilganda doim ham e'galik huquqi sotuvchidan xaridorga o'tayotganida (ikkala tomonning ham buxgalteriya kitobida aks e'tadi) to'lov balansining o'tkazish prinsipi operatsiyasini tuzishda joriy manbaga amal qilinmaydi.

Shuning uchun operaciya o'rtasidagi farq ularni kategoriyalarga bo'lim operacijalarini amalga oshirish vaqti tushunchasi, shuningdek, qiymati baholashlarni ifodalovchi tuzatishlarni kiritish kerak bo'lishi mumkin. Valyuta almashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarda operacijalar hisobi uchun shunday tuzatishlar kiritilishi kerakki, ularni amalga oshirishda to'lov bank tizimi orqali bajarilmaydi. Natural ko'rinishdagi davlat importi, barter bitimlari, bir yoqli transfertlar va chet e'ldagi moliyaviy aktiv va passivlarni hajmining o'zgarishi yordamida bevosita amalga oshirilgan operacijalar valyuta almashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarga kiritiladigan moddalar qatoriga tegishlidir.

Bojxona hisoboti ma'lumoti korrekciyasiga misol tariqasida mamlakatdagi kemalarning dengiz ovchilarining ochiq dengizdan tutgan ovini chet e'lda realizaciya qilishlarini olish mumkin.

Turli moddalarni kategoriyalarga bo'lish bilan bog'liq tuzatishlarda hamma e'ksport FOB asosida o'tkazilishi kerak bo'ladi. Bunda ma'lum o'zgartirishlar "Transportaciya" moddasiga kiritilishi kerak. Operaciyani amalga oshirish vaqti bilan bog'liq bo'lgan tuzatish tovar oqimi hajmi o'zgarishida, shuningdek, davlat rezidentlari chet e'ldagi zahiralarga e'ga bo'lganda yoki rezident e'maslar – ko'riladigan davlatdagi zahiralarga e'ga bo'lganida muhim bo'lishi mumkin.

Savdo hisobotlarida tovarlarning jismoniy kuchi qayd qilinadi va shuning uchun bu zahiralalar hajmini o'zgartirishda ularga tuzatishlar kiritish kerak. Valyuta hisobotlarida operacijalarni amalga oshirish vaqti bilan bog'liq bo'lgan tuzatish kapitalar harakatidagi aktivlar va passiv o'zgarishni ko'rsatish uchun kiritiladi. Qiymat bo'yicha tuzatishlar asosiy manbalardan olinadigan ma'lumotlar bozor narxini ifodalamaganda zarur bo'ladi.

Ba'zi xususiy operacijalarni baholashda valyuta almashuvi ustidan kuchli nazorat bo'lmagan davlatlarga tegishli so'rovnomalar yoki tanlama kuzatishlar olib borish kerak bo'lishi mumkin. "Turizm" to'lov balansi moddasini baholaganda ba'zan davlat rezidentlari tomonidan chet e'lda o'tkaziladigan sutkaning o'rta summasi kunlarning umumiy soniga ko'paytiriladi, shuningdek, ushbu davlatda chet e'lliklar tomonidan o'tkaziladigan kunlar soniga ko'paytiriladi.

Sutkaning o'rtacha kattaligini aniqlash uchun sayohat agentligi, banklar, mehmonxona va do'konlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish mumkin. CHet e'l turistlarining mehmonxonalarda o'tkazgan kunlar soni to'g'risidagi sistematik ma'lumotlarni to'plash, ba'zan turizm bo'yicha ma'lumotlar davlatlararo ma'lumot almashish yo'li orqali tekshirilishi mumkin. So'rovnomalardan, shuningdek kema va aviakompaniyaning yo'lovchilik chiptasi narxi to'g'risidagi ma'lumotning investicion foyda va trans milliy kompaniyalarining to'g'ri investiciyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishda foydalanish mumkin.

Qisqa muddatli kapital oqimi bo'yicha ma'lumotlar, odatda, ishonchsiz hisoblanadi. Bu valyuta almashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai sifatida ishlatilishida tijorat–kredit to'g'risidagi ma'lumotni, qiyin bo'lsa, so'rovnomalarni qo'llaganda ma'lumotning kerakli hajmini olishni, shuningdek, uning ishonchligini ta'minlashi murakkabdir.

6.8 Pul-kreditni tartibga solish tashkilotlari

1. **Umumiy qoidalar.** Moliyaviy tashkilotlarni 2 guruhga bo'lish mumkin (nazariy jihatdan bular orasidagi farqlar aniq, amaliyotda e'sa ular umumiyroq).

Birinchi guruhga davlatning to'lov vositalarini yaratuvchi moliyaviy muassasalar kiradi. Ular an'anaviy ravishda "pullar" deb ataladi.

Ikkinchi guruhga e'sa pul yaratmaydigan moliyaviy tashkilotlar kiradi. Birinchi guruhga kiruvchi pul-kreditni nazorat qiladigan tashkilotlar va pul-depozit (tijorat) banklari nazariy jihatdan ko'proq ahamiyat kasb e'tadilar, sababi bu guruh agregatlar likvidligini, hajmini o'zgartirish xarajatlar va iqtisodiy faollik darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

"Xalqaro moliyaviy statistika" jadvalida keltiruvchi pul va moliyaviy ma'lumotlar 3 bosqichda beriladi. Quyida ularning ikkitasi to'g'risida fikr yuritiladi.

Birinchi bosqichda pul–kreditni nazorat qiluvchi va pul-depozit banklari to'g'risidagi ma'lumotlarida bir necha qismlarda beriladi.

“Xalqaro moliyaviy statistika” ma’lumotlari pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlarga asosiy o’rin berilgan.

Xorijiy zahiralarni hajmini inobatga olgan holda ular pullarning holati to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z vaqtida baholash uchun asosiy ma’lumotlar bazasini yangidan to’ldirib boradilar va shu bilan birga pul-kredit siyosati yaratiladi.

Ikkinchi bosqichda e’sa pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlar va pul-depozit banklari to’g’risidagi ma’lumotlar umumiyashtirilib “Pul kredit to’g’risidagi to’liq ma’lumotlar” yig’iladi. Bular orqali pul va kredit holati, statistikasi to’g’risida tushuncha hosil qilish mumkin.

2. Birinchi bosqich.

a) Pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlar.

Pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlar mamlakat zahirasini oltinlarda, xorijiy valyutalarda va maxsus huquqli qarzlarda saqlaydilar (SDR). Bulardan tashqari pullarning xarajati, aylanish tezligini nazorat qiladi va davlat tashkilotlarini nazorat qiluvchi bank sifatida namoyon bo’ladi. Odatda bunday funkciyalarni markaziy bank amalga oshiradi, ammo ko’p mamlakatlarda tanga zarb qilish bilan davlat zahira idoralari shug’ullanadi, ba’zi mamlakatlarda e’sa oltin zahiralari va xorijiy valyutalar davlat zarbxonalarida yoki valyutani nazorat qiluvchi fondlarda joylashadi.

Bunday monetar funkciyalar davlatning markaziy bank hisoblari bilan uzviy bog’lanishi kerak. Bu ishlar pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlarning barcha funkciyalarini yagona hisob-kitob o’lchov birligiga keltirish maqsadida qilinadi. 10.1-jadvalda pul kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlarning asosiy hisob-kitob balanslari berilgan bo’lib, unda pul-kredit to’g’risida to’liq axborot olish mumkin.

Xorijiy aktivlarga oltin, banknot, davlat investiciya majburiyatlari, SDR, xorijiy davlatlardagi depozitlar, shu bilan birga, davlatning XVF dagi zahira o’rni kiradi.

Davlat sektoriga bo’lgan talablar hukumat, davlatning mahalliy boshqaruv organlari va nomoliyaviy davlat tashkilotlarga bo’linadi. Rivojlantirish va jamg’arish banklariga bo’lgan talablar pul-kredit xarakteriga e’ga bo’lmasa ham moliyaviy tashkilotlarga bog’liq bo’ladi. Xususiylariga bo’lgan talab uncha ahamiyatli e’mas: uy xo’jaligi va

muassasalarga asosan Markaziy bank e'las, balki tijorat banklari kredit berish bilan shug'ullanadi. qayd qilingan veksel va banklarning boshqa majburiyatlari pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlarda joylashgan bu qo'yilmalar pul-depozit banklariga qo'yilgan talablar bilan uzviy bog'liqdir, sababi ular Markaziy bank va pul-depozit banklari orasidagi operaciyalarda ishtirok e'tadi va namoyon bo'ladi.

Zahira pullar asosiy passivlar hisoblanadi. Bu – pul bazasi. Bu baza orqali Markaziy bank depozit banklarining likvidligiga ta'sir ko'rsatadi va shu orqali depozit pullar yaratilishiga ta'sir qiladi.

Zahira pullarning asosiy komponentlaridan biri bu bankdan tashqarida aylanuvchi pullardir. Iqtisodiyotni tahlil qilish uchun banklardagi zahira va depozitlarda saqlanayotgan pullar muhim ahamiyatga e'ga. Xususiy sektor depoziti, xuddi talab singari uncha ahamiyatli e'las, yoki 0 ga teng bo'ladi. Xorijiy majburiyatlar o'z ichiga rezidentlar majburiyatlarini milliy hamda xorijiy valyutalarda, shu bilan birga pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlar depozitini qamrab oladi. Bu ma'lumotlarga XVF (MVF) kreditlarining ishlatilishi ham kiradi, ammo hisob-kitob balanslarida bu ma'lumot "qolgan ma'lumotlar" turiga kiritiladi, "qolgan ma'lumotlar" tarkibiga moliyaviy muassasalar tarkibining, kapitalining harakatchanligi va zahira aktivlari kiradi.

Xorijiy valyuta depozitlari tarkibiga faqat rezidentlar oldidagi majburiyatlar kiradi, shuning uchun ham ular xorijiy passivlar turiga kirmaydi, hukumatning markaziy depozitlari alohida ko'rsatiladi va ular zahira pullar tarkibiga kiritilmaydi.

Pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilot balansi

Aktiv	Passiv
Xorijiy valyuta	Bu turga bankdan tashqarida aylanib yuruvchi pullar
MVF va SDR zahira o'rni	Depozit banklar imkoniyatining mavjudligi
Xorijiy banklar korrespondentlari	Pul-depozit banklarning depozit imkoniyatlari
Xorijiy investiciya	Xususiy sektor depoziti

Aktiv	Passiv
Markaziy hukumatga talablar	Zarur va jamg'arma depozitlari va xorijiy valyuta depozitlari
Zarbxona	Obligაციyalar
Veksellari	CHegaralangan depozitlar xarakteri
Boshqa qimmatli qog'ozlar	Tashqi majburiyatlar cheklari va boshqa to'lov vositalarida ishlatilishi lozim
Qisqa	
Avansirlashtirish	
Regional va mahalliy boshqaruv hukumatiga talabalar Veksellar, obligaciya va boshqa qiymatli qog'ozlar	
Kreditlar va avanslar	

10.2-jadvalda ko'pgina tashkilotlar hisobi berilgan. Bu jadvalda asosiy masala depozitlarni talab qilib olish, depozitlarga taqsimlash va kvaz pul majburiyatlaridir. Kvaz pullar tarkibiga zaruriy va jamg'arish depozitlarining xususiy ichki sektorga tashkilot zahirasi va boshqalar kiradi. Xususiy sektor depoziti xorijiy valyutalarda va boshqa rezidentlarining xorijiy valyutalari "Kvazi pul" sifatida ko'riladi.

10.1-jadval

Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga talabalar, veksellar va boshqa qiymatli qog'ozlar. Kreditlar va avanslar. Xususiy sektorga talab	Davlat boshqaruvi tashkilotlarining depozitlari Kapital hisoblari, kapital zahiralar
Pul-depozit banklariga talablar, qayta hisoblash, kreditlar va overdraftlar	Qolgan ma'lumotlar. Qolgan passivlar. Minus qolgan aktivlar.

Pul-kredit xarakteriga e'ga bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarga talabalar, qayta hisoblash, kreditlar va overdraftlar

Oxirgi yillarda moliyaviy tashkilotlarning o'z majburiyatlarini boshqarish sohasiga qiziqishlari ortib bormoqda. Bu e'sa yangi moliyaviy vositalar paydo bo'lishiga olib keladi, ularni qiymatli qog'ozlar yoki depozitlar deb ta'riflab bo'lmaydi. Ularni asosan substitut depozit majburiyatlari yoki depozit sertifikatlari, deyish mumkin. Yana bir boshqa moliyaviy operatsiya turi – sotish to'g'risidagi kelishuv. Bunda moliyaviy tashkilotlar biror yangi moliyaviy vositani sotib olish to'g'risida kelishadi.

6.9. Pul depozit banklari

Pul-depozit bank turiga har qanday banklar va ularga o'xshash muassasalar kiradi (pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlar). Bular istesno fondida kerakli passivlarning depozitlar ko'rinishida bo'ladi, depozitlar hisob-kitob qilishda foydalanish mumkin.

Bundan uning narhi va sinash oldidan belgilangan bo'ladi. Ko'pchilikning fikricha bunday moliyaviy vositalar likvidligi "Kvazi pullar" likvidligiga nisbatan past bo'ladi, sababi bunday vositalar olingandan so'ng oldindan bilib bo'lmaydigan xatar ostida bo'lishi mumkin, ammo tajribada e'sa banklar asosan bunday shartnomalarni qisqa vaqtlarga yoki kreditor talabi bilan bekor qilish shartlari bilan to'lanadi va bu tur hozir kengaymoqda.

10.2–Jadval

Aktivlar	Passivlar
Zahiralar	Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar
Saqlanish qiymati	Joriy hisoblar
Pul-kredit tashkilotlaridagi depozitlar	CHegaranmagan ishlatish huquqiga e'ga bo'lmagan depozitlar
Xorijiy aktivlar	Zaruriy va jamg'arma

Rezident bo'lmagan banklarga talablar	Depozitlar va xorijiy valyuta depozitlari
Bank bo'lmagan	Xorijiy valyutadagi depozitlar Zaruriy depozitlar Jamg'arma depozitlari Pul-bozor vositalari Depozit sertifikatlari Oddiy vekselar Obligatsiya CHegaralangan xarakterli depozit Importni oldindan to'lash Akkreditiv depozitli import
Markaziy hukumatda talablar	Tashqi majburiyatlar
Zarbxona veksellari Davlat-ning qolgan qimmatli qog'ozlari	Bank bo'lmagan tashkilotlar – Norezidentlari
Regional va mahalliy xokimiyat boshqaruv organlari	Markaziy hukumat depozitlari Zaruriy va talab qilib olguncha bo'lgan depozitlar Markaziy hukumat depozitlari Xorijiy valyutalardagi depozitlar
Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar	Markaziy bank kreditlari Pul kreditlari Pul-kredit xarakteriga e'ga bo'lmagan tashkilotlar oldidagi majburiyatlar
Xususiy sektorga talab operatsiya hisobi yig'indisi	Kapital hisobotlari
Kreditlar va avanslar	qolgan ma'lumotlar
Ipotekalar	qolgan passivlar
Investitsiyalar	Minus: qolgan aktivlar
Overdraftlar	
Pul-kredit hisobiga e'ga bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarga bo'lgan majburiyatlar	

6.10. Ikkinchi daraja: pul-kredit masalasi

Pul-kredit masalasining asosiy maqsadi – pul krediti tartibot organlarining ko'p miqdorda ta'sir qila olishi mumkin bo'lgan va o'zlari ham ma'lum miqdorda boshqa iqtisodiy agregatlarga ta'sir e'ta oluvchi, moliyaviy agregatlarning tahlilini ta'minlab berishdir. Buning uchun pul-depozit banklari va pul-kredit organlarining balans-hisobot ma'lumotlari iqtisodchi va siyosiy iqtisodni o'zlashtirishga javobgar shaxslarni qiziqtirish bir necha toifalarga ajratiladi.

Bir qancha sabablarga ko'ra, pul-kredit tekshiruvchi faqatgina yuqorida qayd e'tilgan moliyaviy vositalarni qamrab oladi. Birinchidan, muhlatli depozitda va naqd holda, butunlay likvid holda mamlakat iqtisodiyotidagi sarf-xarajatlarning kattaligiga va shu bilan ishlab chiqarish va bandlikka nisbatan qattiq va bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi, bank moliyaviy vosita muassasalarining balans hisobotlari, qoidaga asosan, faqat mavjud to'xtashdan keyingina foydalanish imkoniyatiga e'ga bo'ladilar, lekin, ayni vaqtda pul siyosatini shakllantirishda bu ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Nihoyat, pul siyosatini tartibga soluvchi markaziy banklar tomonidan ishlatiladigan uskunalar pul-depozit banklari operaciyalariga ko'pincha bevosita ta'sir ko'rsatadi, lekin ularning boshqa moliyaviy muassasalari operaciyalariga ta'siri kamroq namoyon bo'ladi.

Ko'p hollarda maqolalarning nomlari ularning mazmunlarini aks e'ttiradi. Ko'rib chiqishga kiritilgan sof aktivlar, barcha turdagi chet e'l aktivlarini, oltin, muassasalarning qisqa vaqtli tashqi majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolaning vazifasi – sof tashqi aktivlarning o'zgarishlarini o'lchagan holda, mamlakat tashqi aktivlarining ichki pul tizimiga ta'sirini ko'rsatishdir. Ichki kredit (bank tizimining aktivi) bank tizimining davlat boshqaruv organlari, boshqa davlat muassasalari va xususiy sektorlar(masalan, pul-kredit xarkateriga e'ga bo'lmagan xususiy shaxslar korporaciya, moliyaviy muassasalar) barcha to'lanmagan talablarni o'z ichiga oladi. Butun halqaro bank kredit, shuningdek, Markaziy bank tomonidan pul-depozit banki (tomoni) taklif e'tilgan kreditlar, korporaciya jarayonidan istisno qilinadi.

Pul-kredit masalasida markaziy hukumat talablari bank tizimida xukumat depozitlarini ushlab qolish bilan ko'rsatiladi.

Bunday munosabat markaziy hukumat operaciyalarining mamlakat iqtisodiyoti likvidligiga ta'sirini o'lchash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari markaziy hukumat siyosiy-iqtisodiyotga javobgardir va shuning uchun uning xarajatlari bo'yicha qarorlari, qoidaga binoan, bank depozitlari summasiga bog'liq e'vas, balki kengroq idrok qilish bilan qabul qilinadi. Davlat muassasalariga talablar alohida modda holda va jami hisoblab chiqilib ko'rsatiladi, chunki ular mavjud depozitlarning xarajatiga ta'sir ko'rsatilganidek hisoblanadi.

Shunga o'xshash sababga ko'ra, yalpi hisoblab chiqilganda boshqa sektorga ham talablar ko'rsatiladi.

“Pul” tushunchasi nazariyada va amliyotda har xil ta'riflanadi. Anchagina keng tarqalgan ta'rifga asosan “pul” tushunchasi bank tizimini va davlat boshqaruv organidan tashqarida muomalada bo'lgan barcha pullarni oladi, ya'ni unga to'lov vositasi bo'lib xizmat qila oluvchi hususiy sektordagi pul vositasi va barcha depozitlar, chunonchi hisob varaqasi yordamida o'tkazish mumkin bo'lgan depozitlar kiradi. Biroq, qo'llanilayotgan tashkiliy tizimga asosan, bu erda boshqa kundalik tezkor muomaladagi depozitlar ham kiritilishi mumkin, masalan, omonat depozitlari. Pul-kredit masalasida pul turkumi muomaladagi naqd pul va o'sha turdagi depozitlarni o'z ichiga oladi xuddi muxlatli depozitlar singari. Pul-pul tizimining majburiyati sifatida ko'rsatiladi, chunki bu naqd pul-pul tartibining majburiyatidir, muhlatli depozitlar e'sa, pul depozit bankining majburiyatidir. Boshqa bank passivlaridan biri kvozi – pullari, pul tizimining likvidlik depozitlariga kiradi va bevosita to'lov vositasi sifatida ishlatilmaydi, odatda, muomalada juda sekindir. Bular asosan bank tizimidagi tezkor va omonat depozitlari hamda xorijiy valyutada rezident depozitlardir. Kvozi – pulidagi pul summasini, odatda, “keng ma'nodagi pullar” deb ataladi. Bu – agrifat, e'htimol pul-kredit sohasi nuqtai nazari bilan qaraganda, ko'proq iqtisodiy faoliyatni tahlil qilishda ishlatiladi.

Pul agregatlari haqida ma'lumot

Pul-kredit tartibot organlarining moliyaviy dasturni vujudga keltirishdan asosiy maqsadi inflyatsiyaning rejaviy raqamga va ichki ma'lumotlarning (TIM) real o'sish sur'ati hisobiga muvofiq pulning pul darajadagi talabi palatasiga o'zgarishlar kiritish olishdir.

Pulga talab haqidagi ma'lumotlar.

Pul sohasidagi o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan baholashda va ularni iqtisodiyotning boshqa sektorlari bilan bog'lanishi uchun pul-kredit masalasi asos bo'lib xizmat qiladi. Pul-kredit masalasining asosiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

$$\mathbf{NFA+DC=MQ+DIN}$$

Bu erda:

NFA – tashqi netto aktivlar;

DS – ichki kredit;

MQ – keng ma'nodagi pullar, ya'ni tor ma'nodagi pullar, plyus kvazi – pullar;

DIN – ba'zi moddalar, netto.

Pul-kredit tartibot organlarining muhim masalasi—bu, boshqa makroiqtisodiy o'zgarishlarning istalgan yoki kutilgan mohiyatga munosib, yuqorida keltirilgan o'zgaruvchilarning kelgusidagi mohiyatini ta'riflashdir. Bunday, birinchi va asosiy qadam—bu, pulga talab haqidagi ma'lumotdir.

Pulga bo'lgan e'htiyojning ikki asosiy ko'rinishi mavjud. Birinchi, nominal T.I.M.ning pulning ko'plik massasiga bo'lgan munosabatiga belgilangan, pul massasi aylanish tezligi oxirgi o'zgarishining e'kstropolirovkalash. Pul massasi keng ma'noda olganda, quyidagi ko'rinishga e'ga:

$$V = \frac{\mathbf{GDP}}{\mathbf{M2}}$$

Agar oxirgi bir necha yillar ichida aylanish tezligi ravon belgilanishga muvofiq o'zgargan bo'lsa, bunga asosan bashoratlanayotgan davr v qiymatini baholash mumkin.

Pul massasining aylanish tezligi ma'nosi shu holda aniqlanganda, shuningdek, foiz stavkalari va inflyatsiya kutilishi o'zgarishlarini ko'rsatish maqsadida tuzatishlar kiritish mumkin. Pul aylanishi haqidagi ma'lumotni

pulga bo'lgan talab miqdori munosib rejalashtirilgan yoki nominal TIM ma'lumoti mazmunini oldindan bilish uchun ishlatish mumkin.

Ma'lumot berishning bunday usuli darajasi past yoki etarli e'mas, ma'lumotlarning tahlil qilish qiyin, shuningdek, moliyaviy sektor tuzilishida institucional o'zgarishlar ahamiyatga e'ga bo'lgan mamlakatlarda ayniqsa foydalidir.

Ikkinchi usul—e'lektrik usuldan foydalanishga asoslangan pulga talab miqdorini baholashdir. Taxmin qilinishicha, iqtisodiy agentlarning moliyaviy qarorlari uncha ko'p bo'lmagan iqtisodiy o'zgarishlarning vazifasi sifatida va pul agregatlari o'rtasidagi o'zaro aloqa va tushuntirish mumkin bo'lgan o'zgarishlar ma'lum vaqt ichida o'zgarishini ko'rish mumkin.

Modomiki, aholi o'z xohishiga ko'ra, ushlab turishga tayyor pul miqdori uning sotib olish qudratiga bog'liq, pulga e'htiyojning tenglashishi real ma'noda uning ishlatish miqdori bilan yoziladi. Aynan qaysi pul ta'rifi hisob-kitob uchun ishlatish e'mpir natijalari bilan belgilanishi kerak. Aholi tomonidan e'ng barqaror, talab qilinadigan pul agregatini oldindan aniqlash mumkin e'mas. Qoidaga binoan, pul massasini aniqlashga kirishayotgan nodavlat sektori oldida bank tizimi majburiyatining bu tomoni qancha ko'p bo'lsa, bunday aniqlash pul-kredit **sohasidan ma'lumot** berishga shunchalik foydalidir. Biroq, pul agregatining aniqlanishi qanchalik keng bo'lsa, pul-kredit tartibot organi uning miqdorini nazorat qilishi shunchalik mushkuldir.

Iqtisodiy operaciyalar bilan bog'liq holda, o'zgarish miqdorini tushuntiruvchi sifatida, pulga talab funkciyasi keng miqyosida ishlatiladi - qoidaga asosan, real T.I.M. – va o'zgaruvchan boshqa moliyaviy yoki real aktivlar bilan solishtirilganida pulni saqlashning nisbatan jalb qilinishi aks e'ttiriladi.

O'zgaruvchi muqobil narxni tanlashda qaysidir darajada pul agregatining ishlatilayotgan ta'rifi yoki mamlakat institucional tuzilishiga bog'liqdir. Foizlik daromad keltirmaydigan pul aktivlarini saqlash muqobil narx e'ng mos keladigan o'lchovi—bu, namoyon bo'luvchi nominal foiz stavkasidir. Foizli daromad keltiruvchi pul aktivlariga foiz stavkalarining pulga va boshqa moliyaviy aktivlariga o'lchashning o'zaro farqlovchi o'zgaruvchanligi ko'proq munosibdir.

SHaxsiy sektor oldida bank tizimining moliyaviy majburiyati shaxsiy sektor moliyaviy aktivlari majmuasining ko'proq qismini o'zida aks e'ttiruvchi mamlakatlarda real foiz stavkalari ba'zan real aktivlarining daromadi bilan moliyaviy aktiv daromadlari o'rtasidagi o'lchov sifatida ishlatiladi. Foiz stavkalarining uzoq vaqt mobaynida o'zgarish miqdorini aniqlash uchun bir darajada inflyatsiya o'zgarishi haqidagi ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Pul agregatiga talabni e'mpirik baholash quyidagi shakldadir.

$$\left(\frac{M}{P}\right)_t = \alpha_0 + \alpha_1 \left(\frac{V}{P}\right)_t + \alpha_2 (\pi)_t \quad \alpha_1 = 0; \quad \alpha_2 \begin{matrix} < \\ > \end{matrix} 0$$

Bu erda:

M – pul agregati;

R – narx darajasi;

Y – TIM nominal ma'noda;

π - pulni saqlash nisbiy qiymati;

α_1 – daromad bo'yicha pulga talabning e'giluvchanligi;

α_2 – nisbiy narxda o'zgaruvchanlikning pul massasiga ta'sir darajasi.

Tenglashtirishda barqaror o'zaro aloqa o'rnatilgandan keyin, foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi kutilayotgan yoki dasturlashtirilgan

TIMning real o'sish ma'nosini aks e'ttiruvchi kauzal o'zgarishlar miqdori asosida kelajakda pulga bo'lgan talab ma'lumotini olish mumkin.

Pul massasi miqdori ma'lumoti, pul-kredit passivlarining tekshirish ma'lumotining asosiy e'lementidir. Aktivlarga to'xtalganimizda, sof xorijiy aktivlarning miqdori o'zgarishini umumiy tashqi saldo to'lovlari ma'lumoti yordamida aniqlash, boshqa moddalari (OIN) ma'lumoti to'liq axborot yo'q hollarda tegishli trendga asoslanishi mumkin.

Boshqa moddalar xalqaro zahiralarni tashkil qiluvchi valyuta kursini ayirboshlash natijasida sof xorijiy aktivlar miqdorining o'zgarish e'kvivalentini o'z ichiga oladi.

Sof xorijiy aktivlar va boshqa moddalarning ma'lumot berish davridagi mohiyati, shuningdek, pulga bo'lgan talab ma'lumotini, tenglashtirishga munosib ichki kredit miqdorining yagona mohiyatini

aniqlash imkonini beradi. Sof kreditning davlat sektoriga to'lov o'zgarishi, bank tizimida davlat sektorining sof qarzi byudjet ma'lumotiga asoslangan umumiy kredit miqdori va davlat krediti o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi shaxsiy kredit sektori qoldiqli miqdor sifatida hisoblab chiqiladi. SHaxsiy sektorga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan kredit summasining muvofiqligiga baho berish muhimdir.

TIM ma'lumotida aks e'ttirilgan mablag' ajratish va boshqa xarajatlar mavjud rejalarbo'yicha amalga oshiriladi.

Taklif e'tilgan pullar haqida ma'lumot.

Pul-kredit tartibidagi organlarga pul siyosati oraliq yo'nalishi bo'lgan pul-kredit asosiy o'zgaruvchanlik tekshiruvning rejaviy mazmuniga e'rishish uchun operacion belgilangan o'zgarishlar ma'lumotlari ham zarur. Bunday ma'lumotlar to'planadi. Munosib o'xshashlik quyidagicha yozilishi mumkin:

$$NFA*+NDGG*+CCB*=RM*=DIN*$$

Bu erda:

NFA – pul-kredit organlarining sof xorijiy aktivlari;

NDGG – davlatga sof ichki kredit;

SSV – tijorat banklariga talablar;

RM – zahira pullar;

DIN – boshqa moddalar, netto.

YUlduzlar – pul-kredit tartibining hisobi belgisidir.

Pul-kredit tekshiruvida aks e'tgan konsalidar bank tizimi M2 pul agregatining miqdoriy o'zgarishlari bilan quyidagi tenglik yordamida bog'liq bo'lishi mumkin:

$$MQ=K RM*$$

K – kattalik miqdori bilan bog'liq, bank tizimida segmentlash tuzilishi zahiralari o'rtacha zahira talablari mohiyatini tekshirishdir, lekin bu ikki kattalik e'vas.

Nobank tizimida naqd pul foizini o'rganish uchun quyidagi tenglama berilgan:

CY – bank tashqarisidagi naqd pul;

D – joriy depozitlar, muhlatli va omonat depozitlar;

R – tijorat banklari zahiralari ortiqcha zahiralarni kiritgan holda;
S – bank tashqarisidagi naqd pulning umumiy depozit summasiga munosabati.

r – zahiralarning miqdorining aholi daromadlari umumiy miqdoriga nisbati.

Kisqacha xulosalar

Makroiqtisodiy agregatlar an'anaviy tarzda o'zaro aloqador makroiqtisodiy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi, milliy daromad va ishlab chiqarish hisoblari; to'lov balansi, davlat moliyasi statistikasi va pul hisoblari. Ma'lum davr davomida e'rishiladigan iqtisodiy orientirlarga etishishga yo'nalgan turli makroiqtisodiy sohalaridagi miqdoriy va o'zaro kelishilgan siyosiy tadbirlar to'plamidan iborat. Moliyaviy mablag'lar harakati hisobida tizimli ravishda tasvirlangan sektor investiciyalari va jamg'armalari orasidagi aloqalar va boshqa sektorlar bilan tegishli moliyaviy operaciylar moliyaviy dasturni tuzishda muhimdir. Moliyaviy tashkilotlarni 2 guruhga bo'lish mumkin Pul-kreditni nazorat qiluvchi tashkilotlar mamlakat zahirasini oltinlarda, xorijiy valyutalarda va maxsus huquqli qarzlarda saqlaydilar (SDR) Davlat sektoriga bo'lgan talablar hukumat, davlatning mahalliy boshqaruv organlari va nomoliyaviy davlat tashkilotlarga bo'linadi. Zahira pullar asosiy passivlar hisoblanadi Zahira pullarning asosiy komponentlaridan biri bu bankdan tashqarida aylanuvchi pullardir Xorijiy valyuta depozitlari tarkibiga faqat rezidentlar oldidagi majburiyatlar kiradi, Pul-depozit bank turiga har qanday banklar va ularga o'xshash muassasalar kiradi Pul-kredit masalasining asosiy maqsadi – pul krediti tartibot organlarining ko'p miqdorda ta'sir qila olishi mumkin bo'lgan va o'zlari ham ma'lum miqdorda boshqa iqtisodiy agregatlarga ta'sir e'ta oluvchi, moliyaviy agregatlarning tahlilini ta'minlab berishdir pul siyosatini tartibga soluvchi markaziy banklar tomonidan ishlatiladigan uskunarlar pul-depozit banklari operaciylariga ko'pincha bevosita ta'sir ko'rsatadi, lekin ularning boshqa moliyaviy muassasalari operaciylariga ta'siri kamroq namoyon bo'ladi.

Pul-kredit tartibot organlarining moliyaviy dasturni vujudga keltirishdan asosiy maqsadi inflyatsiyaning rejaviy raqamga va ichki

ma'lumotlarning (TIM) real o'sish sur'ati hisobiga muvofiq pulning pul darajadagi talabi palatasiga o'zgarishlar kirita olishdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul-kredit sohasi qanday olib boriladi?
2. Pul-kredit sohasini olib borishda qanday tamonlar asos bo'ladi?
3. Pul-kredit sohasi organlari.
4. Pul-kredit sohasining tartibga solish organlarining qanday balanslari mavjud?
5. Pul-kredit obzori qaysi sektorlar bilan bog'liq.
6. Pul-kredit masalasining asosiy ko'rinishi qanday bo'lishi mumkin?
7. Pulga bo'lgan e'htiyotning qanday ko'rinishi mavjud

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma yig'ilishidagi nutqi: "Halq so'zi" gazetasi. 12 fevral 2006 y.
2. Fareycheva G.V. Sistema obshchestvennykh potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii M. MGU. TEIS. 2004. 456s
3. Tarassvich L.S, P.I.Grebennikov, A.I.Leusskiy Makroe'konomika Uchebnik 5-e izdanie M. YUrayot 2004g. 654s.
4. G.A.Kutorshevskiy «E'konomika» osnovy, teoriya Uchebnoe posobie izd. «E'konomika» 2004. 382s.
5. Efimova M.R i dr. Praktikum po obshchey teorii statistika M. 2004.
6. "Makroiqtisodiy tahlil va siyosat». XV seminar materiallari. –Vena, 2000

E'lektron pochta

1. <http://g'g'www.Review.uz/g'homeg'azticle.asp?>

2. [http: g'g' www. vqi.freenet. g'trudyg'dratisviko.htm](http://www.vqi.freenet.g'trudyg'dratisviko.htm)
3. [http: g'g' www. Yabloko.rug'themesg'belorusg'belfrus-25.html](http://www.Yabloko.rug'themesg'belorusg'belfrus-25.html)
4. <http://www.vqi.freenet.lezg'trudyg'bratisvriko.htm>

VII BOB. TAILAND FISKAL SIYOSATI VA MAKROIQTISODIY TAHLILINING TAJRIBASI

7.1. Tailandni iqtisodiy rivojlanishi

Tailandning iqtisodiy rivojlanish tarixiga bir nazar. 50–yillarda Tailand dunyoning e'ng kambag'al mamlakatlaridan biri e'di. Jon boshiga yalpi daromad 1960 yili taxminan 2000 bat³(100 AQSH dollari ayirboshlash kursi 1 AQSH dollariga 20,48 bat). Keyingi 40 yilda iqtisodiyot tub o'zgarishlarni boshidan kechirdi- inflyatsiyaning past sur'atlarida va tashqi qarzning YAIMga mo'tadil oshishi bilan tez va barqaror o'sishga e'rishildi, qashshoqlik darajasi ancha kamaydi. Tailandning iqtisodiy rivojlanishiga neft importer rivojlanayotgan boshqa mamlakatlarga juda salbiy ta'sir qilgan 70 yillarning neft shoki ham halaqit qilmadi.

Tarixan bu mamlakat ko'plab davlat to'ntarishlari va to'ntarishga urinishlarni boshidan o'tkazgan, ular nisbatan demokratik va avtoritar boshqaruv davrlarini bir-birini almashishiga olib kelgan. Lekin paradoks shundaki, siyosiy chalkashlikka qaramasdan iqtisodiy stagnatsiyaning uzoq davridan so'ng iqtisodiy o'sish tez va barqaror e'di. Ushbu mavzuda bu paradoksni tushunishga va quyidagi savollarga javob berishiga harakat qilamiz.

1. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishini keltirib chiqargan sharoit va shartlar qanday e'di?
2. Tarkibiy o'zgarishlarning dasturi qanday e'di?
3. Rivojlanishda davlatning va xususiy biznesning roli.
4. Jahon bozorida mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar.
5. Iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi sharoit.
6. Qashshoqlikni tugatish va daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlikni qisqartirish bo'yicha dasturlar.
7. Osiyo inqirozidan so'ng Tailand iqtisodiyotining jadal o'sishi yana qaytarilishi mumkinmi?

8. O'tish iqtisodiyotlari uchun Tailand tajribasidan qanday saboq olsa bo'ladi?

Tub tarkibiy o'zgarishlar 1961-1966 yillarga 5 yillik **birinchi** milliy iqtisodiy rivojlanish rejasi (MIRR) qabul qilingach boshlandi. Rejaning asosi davlat xarajatlari dasturi, shu jumladan, davlat mo'tadil byudjet kamomadini ushlab turishi e'di. Maqsadlar quyidagilar e'di: iqtisodiy o'sishga e'rishish, transport, aloqa, e'nergetika, ijtimoiy ob'ektlar va qishloq xo'jaligidagi davlat sektorida⁴ ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi orqali xususiy sektorning o'sishi. Tailand hukumatining iqtisodiy siyosati xorijiy investiciyalarni jalb qilishga qaratilgan e'di. Bundan tashqari V'etnam tomonidan kommunizm tarqalish xavfi oldida Janubi-SHarqiy Osiyoda kapitalizmning poziciyalarini mustahkamlamoqchi bo'lgan AQSH hukumati tomonidan Tailandga yordam berildi. Aholining o'sish sur'ati 3% bo'lishiga qaramay, 1-5 yillik reja muvaffaqiyatli amalga oshdi-iqtisodiy o'sishda YAIMning o'rtacha yillik sur'ati 8,1% ni tashkil e'tdi.

Tailand qirolligi konstitucion monarxiyal davlatdir. Lekin soddalik uchun bu erda va matn davomida davlat sektori an'anaviy atamasi olingan.

Ikkinchi MIRR davomida ustunlik davlat xarajatlari va insoniy resurslarni rivojlantirish dasturiga berildi. Bunda resurslarni tarmoqlr va iqtisodiyot sektorlari orasida bevosita tartibga solish va qayta taqsimlash kiritilmagan. Asosiy e''tibor qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishdansanoatni rivojlantirishga ko'chirildi. Natijada, qishloq xo'jaligi sektorining o'rtacha yillik o'sishi 1-5- yillikdagi 6,2% dan 4,5% gacha pasaydi va iqtisodiyotning o'rtacha yillik o'sishi 7,5% ni tashkil e'tdi. Vetnam urushi tugagach, AQSHning Tailand harbiy majmuiga investiciyalari sezilarli kamaydi, bu e'sa YAIM pasayishining sabablaridan biri e'di.

Uchinchi MIRR (1972-1976)davomida sodir bo'lgan neft inqirozi sezilarli tuzatishlarni kiritdi. Hukumat asosiy e''tiborni ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish va yaxshilashga, iqtisodiy barqarorlikni saqlab turishga, resurslarni taqsimlashda ko'proq adolatli bo'lishga va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga berdi. Neft inqirozi natijasida YAIM o'sish sur'atlari 6,2% gacha pasaydi. Tailandning habiy sanoatiga AQSH

investiciyalar kamaygan sharoitda, davlat hisobidan investiciyalar ko'paydi. Davlatning yordami bilan yangi ishlab chiqarishlar yaratildi, sanoatning rivojlanayotgan tarmoqlariga mehnat resurslari oqib keldi. YAIMda qishloq xo'jaligi sektorining ulushi kamayib, YAIMda sanoat ishlab chiqarishining ulushi o'sdi. Bu yillarda milliy iqtisodiyotning restrukturizatsiyasi amalga oshirildi, qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish va saqlab qolishga zo'r berib harakat qilindi, muhim e'tibor qishloq joylarda ishlab chiqarish va turizm rivojlanishiga berildi. Yirik shaharlar infratuzilmasi tez sur'atlar bilan yaxshilandi.

To'rtinchi MIRR davomida (1979-1980 yillar) 2-neft shoki sodir bo'lib, jahon iqtisodiyotining pasayishiga olib keldi, bu e'sa tashqi savdo balansining kamomadi o'sishiga yordam berdi. 1980 yildan so'ng xalqaro kreditlar bo'yicha foiz stavkalari keskin ko'tarildi. Lekin neft shokining oqibatlarini iqtisodiy dastaklar bilan yumshatilib, natijada butun 5 yillik davrda YAIMning o'sish sur'ati yiliga 5%ni tashkil e'tdi.

Beshinchi MIRRning maqsadlari quyidagilar bo'lib qoldi: tarkibiy islohotlar, moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish, qishloq aholisining farovonligini ko'tarish va qashshoqlikni yo'qotish. 1974-1978 yillarda sanoat savdo to'siqlarining himoyasida e'di va shu vaqtning o'zida e'ksport subsidiyalarni olardi, bu sanoat ishlab chiqarishi hajmi ham, raqobatbardoshligi ham o'sishiga olib keldi.

Lekin bu siyosat qo'shimcha salbiy samaraga olib keldi.

Himoya va DBOlarini saqlash maqsadlariga byudjet xarajatlari keskin oshdi. Shu vaqtning o'zida davlat korxonalarining investiciyalari byudjet hisobidan va Moliya vazirligi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan oshirildi. Natijada 1975-1978 yillar davrida davlat xarajatlari YAIMning 24%ini tashkil e'tdi, shu vaqtning o'zida davlat daromadlari YAIMning 19%ini tashkil e'tardi, xolos. Shunday qilib, masalan, 1976 yilda davlat byudjet kamomadi 16 mln. bat yoki YAIMning 3,3%ini tashkil e'tdi. Davlat sektorining xorijiy qarzlari 87 mln. AQSH dollaridan 1978 yilda 200 mln. AQSH dollariga o'sdi. Ahvol navbatdagi tuzatishlarni talab qilardi. Shu maqsadda belgilangan ro'yxat bo'yicha faqat tanlangan e'ksporter tarmoqlarni rag'batlantiruvchi tariflar va soliqlar tizimi joriy e'tildi. Bu ro'yxatga kirmagan tarmoqlar uchun maksimal e'ksport "tarif"lari o'rnatilib, ularning "e'ksport" faolligi pasaytirildi va faqatgina

bozorga yo'naltirildi. Bu siyosat etarli darajada samarali bo'lib chiqdi-sanoat e'ksportining umumiy e'ksportdagi ulushi 1961 yilda 2,4 % dan 1968 yilda 61% gacha o'sdi. Bu qishloq xo'jaligining e'ksportdagi ulushidan 3 martaga ko'p e'di. E'ksportning o'sish sur'atlari bo'yicha Tailandni SHarqiy Osiyo mintaqalarining muvaffaqiyatli rivojlanayotgan boshqa mintaqalari bilan taqqoslayomiz (1-jadvalga qarang)

1-jadval

SHarqiy Osiyoning ayrim mamlakatlarida e'ksport o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari, %

Mamlakatlar	Davrlar	
	1965-1980	1980-1990
Tailand	8,6	13,2
Xitoy	NA	11,0
Malayziya	4,6	10,3
Koreya	27,2	12,8

Manba: World Bank, World Development Report 1992.

Hukumat prognoziga ko'ra, 5-MIRR davrida sanoat o'sishi yiliga 7,6% dan ortiq bo'lishi kerak e'di, lekin o'sishning haqiqiy sur'ati prognozdagidan 2 martaga ko'p e'di. Bunda kichik korxonalar yiriklariga qaraganda tezroq o'sishdi. Yirik hajmdagi xorijiy bevosita investiciyalar jalb e'tilgan, e'ksportga yo'naltirilgan mehnattalab va resurсталab tarmoqlar tez rivojlandi. Natijada iqtisodiyotning sanoat sektorida yangi ish joylarining o'rtacha yillik o'sishi 7,6% ni tashkil e'tdi.

Qashshoqlikni yo'q qilish dasturiga kelsak, bu erda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari va qashshoqlikning pasayishi orasida o'zaro aloqa aniq ko'rinadi. Lekin sanoatlashish jarayoni Bangkok va uning yaqinidagi provinsiya (viloyat)lardagina mujassamlashgandi. Sanoat faolligini mintaqaviy disperciyalarga urinish etarli muvaffaqiyat bilan yakunlanmadi, bu e'sa Tailand mintaqalari iqtisodiy rivojlanish darajalari orasida yirik farqlarga olib keldi. Shuning uchun provinsiya (viloyat)larda qashshoqlikni yo'q qilish borasida maqsadli dasturlar qabul qilindi.

Dasturning asosini Tailand qiroli- Bumelopa Abduladey Rama IX g'amxo'rliqi ostida tuzishdi.

Ushbu dasturlar quyidagi masalalarni echishga qaratilgan e'di: prvinciya (viloyat)larda sanoat korxonalarining o'sishi, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish; shahar va qishloq aholisi o'rtasida daromadni qayta taqsimlashdagi tengsizlikni kamaytirish. Bu loyihalarning ob'ekti Tailandning e'ng kambag'al provinciya(viloyat)lari e'di. Bu ish yaxshi natijalarni berdi- hozirgi vaqtda ko'pgina qoloq provinciya(viloyat)lar ilg'or o'rinlarni e'gallashdi. Dasturlarning muvaffaqiyatiga g'oyalarning soddaligi, ularning aniq tashkiliy tuzilmasi va tegishli moliyalash bilan ta'minlanganligi yordam berdi. Milliy va mintaqaviy darajada iqtisodiyotni rejalashtirishning yaxshi yo'lga qo'yilgan mexanizmi, mintaqalarni rivojlantirish uchun imtiyozli investicion va soliq rejimining kiritilishi tovar bilan nafaqat ichki mintaqaviy bozorlarni to'yintirishga, balki tashqi bozorga, ayniqsa, Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlariga chiqishga imkon berdi.

Tailandda 1975-76 dan 1987 yillargacha qashshoqlik va iqtisodiy o'sish

2-jadval

	Yillar			
	1975-76	1981	1986	1988
Jon boshiga yalpi daromad (jon boshiga qiyosiy baholardagi Tailand batlarida)				
SHahar aholisi	2961	5151	5834	6203
Qishloq aholisi	1981	3454	3823	4076
Mintaqalar bo'yicha, %da				
SHimoliy	33,2	21,5	25,5	19,9
SHimoli-sharqiy	44,9	35,9	48,2	34,6
Markaziy	13,0	13,6	15,6	12,9
Janubiy				
Bangkok va uning atrofidagi (viloyat) provinciylar	7,8	3,9	3,5	3,5

YAIM (o'rtacha yillik haqiqiy o'sish sur'ati, %)	5,9	7,5	5,2	11,5
--	-----	-----	-----	------

Manba: Bank of Thailand, Quartile Bulletin, 1990

Ko'p loyihalar qashshoqlikka qarshi kurashda samarasini isbotlashdi, bunga jon boshiga daromadlarning va YAIM o'sish sur'atlari ko'rsatkichlarining retrospektiv tahlili dalolat beradi (2-jadvalga qarang)

5-MIRR bajarilishining ijobiy natijalari bilan ayrim iqtisodiy tendenciyalar tashvishli e'di, byudjet kamomadi o'sdi, jamg'armalar darajasi 1970-75 yillarda YAIMning 20-27%idan 1985 yil 16-17% gacha pasaydi. Xorijiy valyutaning rasmiy zahiralari kamayishi tezlashdi, masalan, 1970-1985 yillarda u 3 marta kamaygan. Tashqi qarzning ahvoli ham yaxshi e' mas e'di, u 1985 yil 16 milliard AQSH dollarigacha ko'payib, YAIMning 40%ini tashkil e'tdi.

Bu salbiy tendenciyalar 6-MIRRni bajarish davrida ancha yaxshilandi, unda davlat investiciyalarni anchaga qisqartirish hisobidan 1988 yili byudjet kamomadini YAIMning 1,3% gacha kamayishiga e'rishildi. Bunda: iqtisodiy o'sish yiliga 5% dan ortiq ko'paydi, hukumat tuzilmasi yaxshilandi va uning milliy iqtisodiyotdagi roli qayta ko'rib chiqildi, xususiy sektor rivojlanishi uchun qulay sharoitga e'ga bo'ldi. Ayniqsa, bungacha davlat investiciyalari siqib chiqarilgan ichki jamg'armalarni, asosan xususiy sektornikini anchaga oshirishga e'rishildi. Davlat korxonalarini xususiy lashtirish va rekonstruktariyaciyalash jarayonlari davom e'ttirildi, korxonalarga xorijiy qarz berish va xorijiy investiciyalarni jalb qlishiga ko'proq imkoniyatlar yaratildi. Fiskal siyosatdagi yaxshilanishlardan biri quyida ko'rib chiqiladigan soliqqa tortish tuzilmasining o'zgarishi, hukumat daromadlarining oshishi e'di.

7.2. Tailandning fiskal tizimi

